

## SHAMOILI MUHAMMADIYYA

### Bismillahir rohmanir rohim

1. Anas roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam na ko`p uzun qomatlik va na past qadlik, balki o`rta bo`ylik, qomatlari nihoyatda mavzun zot edilar. Ranglari na nihoyatda oq va na to`q bug`doyrang edi, balki oq qizillikka moyil, ko`rkamlikda o`n to`rt kechalik oy kabi nurlik edi. Muborak sochlari na nihoyatda buralgan va na nihoyatda yozilgan edi, balki o`rta bir holda o`zlariga yarashgan edi. Alloh Taolo ul kishini qirq yoshida payg`ambarlik maqomiga musharraf etdi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o`n yil Makkai mukarramada va o`n yil Madinai munavvarada turdilar, va oltmish yoshda dunyodan rihlat qildilar. Muborak boshlarida va soqollarida yigirma adad ham oqargan mo`y yo`q edi.

*I z o h: Bu rivoyatda Makkadagi istiqomatlarini o`n yil deyilgan va butun umrlarini oltmish yosh ko`rsatilgan. Buning sababi shuki, arablar goho kasr adadni zikr qilmaydilar. Haqiqatda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Makkai mukarramada o`n uch yil turganlar. Va vafot topganlarida, muborak yoshlari oltmish uchda edi.*

2. Anas roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o`rta qadlik bir zot edilar. Na uzun va na past bo`yli edilar. Jismlari chiroyli, kelishgan, sochlari na buralgan va na yozilgan edi. Chehralari bug`doyrang, qachon yursalar, oldilariga moyil bo`libroq yurar edilar.

3. Baro' ibn Ozib roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o`rta buyli (biroz uzunga moyil) bir kishi edilar. Ikki yelkalarining o`rtasi keng bo`lib, muborak sochlari ko`p va ikki quloqlarining yumshoqlariga tushib turardi. Egnilarida qizil libos (ya`ni rido' va izorlari) bor edi. Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan husnliroq bir narsani hargiz ko`rmadim.

4. Baro' ibn Ozib roziyallohu anhudan rivoyat: Men hech bir zulflik mahbubni qizil libos ichida Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan ziyoda husnlik ko`rmadim. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak sochlari ikki yelkalariga tushib turar edi. Ikki yelkalarining orasi keng edi. Qad-qomatlari na past va na ziyoda uzun edi.

5. Ali roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam na uzun va na past bo`yli edilar. Ikki kaftlari va ikki qadamlari to`la va go`shtlik edi. Muborak boshlari katta va a`zolarining bo`g`imlari, xar ikki suyaklarining qo`shilgan yeri yo`g`on edi. Siynalaridan kindiklariga qadar uzun va ingichka mo`ylari bor edi. Qachon yursalar, go`yo balandlikdan pastlikka tushib borayotgan kabi yurar edilar. Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan avval ham, keyin ham, u kishiga o`xshagan biron zotni hargiz ko`rmadim.

6. Ali roziyallohu anhudan rivoyat: Ali roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning vasflarini bayon qilsalar, der edilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam na uzun va na past bo`ylik edilar, balki o`rta qadlik odamlardan edilar, va muborak sochlari na ziyoda buralgan va na ziyoda yozilgan edi,

balki ikkisining o'rtasida edi. Muborak badanlari na semiz va muborak chehralari na yumaloq, balki ozroq mudavvar (yumaloqqa moyil) edi, chehralari qizilga moyil oq edi. Ikki ko'zlari nihoyatda qora va kipriklari nihoyatda uzun edi. Ikki suyaklarining qo'shilgan boshlari yo'g'on va ikki yelkalarini jam bo'ladigan joylari ham yo'g'on go'shtlik edi. Badanlarida tuk yo'q edi, magar siynalaridan kindiklariga qadar nozik mo'ydan bir chiziq tortilganday edi. Ikki kaftlari va ikki qadamlari to'la va go'shtlik edi. Qachon yo'l yursalar, qadamlarini yerdan quvvat-la uzib olar, guyoki pastlikka ketib borayotgan kabi ko'rinar edilar. Qachon bir tarafga burilsalar, butun badanlari bilan burilar edilar. Tanho bo'yinlarini burib qo'ymas edilar.

Ikki yelkalarining o'rtasida muhri-nubuvvat, ya'ni payg'ambarlik muhri bor edi, va o'zlari barcha payg'ambarlarning oxiri edilar. Hammadan ziyoda saxiy zot edilar, va hammadan ziyoda rost so'zlaguvchi va muloyim tabiatli va sharafli xonadonlik bir zot edilar. Kimki u kishini birdan ko'rib qolsa, haybatlari bosar edi, kimki yaxshi tanib, suhbatlariga musharraf bo'lsa, diydorlariga va suhbatlariga oshiq bo'lib qolar edi. Maddohlari "Men bu ga o'xshagan zotni na o'zlaridan avval ko'rdim va na o'zlaridan keyin ko'rdim", degandi.

7. Imom Hasan roziyallohu anhu rivoyat qiladi: Men o'zimning tog'am Hind ibn Abi Holadan Rasululloh sollallohu alayhi vasallam haqlarida savol qildim. U kishi ning vasfi muboraklarini hammadan ziyoda ravshan va yaxshi bayon qilar edi va tog'am menga payg'ambarlikning yuksak sifatlarini bayon kilishini va uni men yod qilib olishni xoxlar edim. Tog'am dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam haqiqatda o'zlari nihoyatda ulug' bir zot bo'lib, odamlar nazarida ham nihoyatda ulug', hurmatli zot edilar. Muqaddas chehralari o'n to'rt kechalik oy kabi ko'rkam edi. O'rta qadlik insondan uzunroq va nihoyatda uzun bo'ylik odamdan pastroq edilar. Muborak boshlari katta, sochlari ozroq buralgan edi.

Agar sochlari o'zicha osonlik bilan ochilsa, farq ochar edilar, agar taroq va boshqa narsaga zarurat tushadigan bo'lsa, farqlarini ochmay qo'yib qo'yardilar. Sochlarini ziyoda o'stirsalar, quloqlarining yumshog'idan tushib turar edi. Muborak ranglari yaltirab turgan oq edi. Peshonalari keng va ochiq edi. Qoshlari egilgan bo'lib, ingichka va qalin va bir-biridan alohida va qo'shilmagan edi. Ikki koshlari o'rtasida bir tomirlari bor edi, g'azablari kelganda harakatga kelib ko'rinar edi. Muborak burunlari biroz baland va qirralik va unda biroz nuri duraxshon (ko'rkam) ediki, unga yaxshi diqqat qilib ko'rmagan odam burunlarini katta va baland gumon qilar edi. Muborak soqollari katta va qalin, muborak ikki yonoqlari na ozg'in va sergo'sht, balki nihoyatda marg'ub edi. Ma'sum (pokiza, gunohsiz) og'izlari mo'tadil keng edi (fasohatli va balog'atli insonlarning og'izlari shunaqa bo'ladi). Muborak tishlari mayda va yaltirab turgan edi. Oldingi tishlari bir-biridan alohida ko'rinardi. Muborak siynalaridan kindiklariga qadar nozik mo'ydan bir chiziq tortilgan bo'lib, muborak buyinlari shundoq yarashgan, chiroyli ediki, guyo oq marmar toshdin, yo oj(fil suyagi)dan tarashlangan xaykalning bo'yni kabi edi, oqlikda kumush kabi sof edi.

Badanlarining a'zolari hammasi bir-biriga munosib yaratilgan, o'rta darajada go'shtlik edi. Go'shtlari osilib turgan emas, qorinlari va siynalari tekis va barobar edi. Siynalari keng edi. Ikki yelkalarining o'rtasi keng edi. Bo'g'imlari yo'g'on edi. Libosdan tashqari turgan a'zolari nurlik, nihoyatda ko'rkam ko'rinur edi. (Bundan ma'lum buladiki, libos ichida mahfuz turgan a'zolari naqadar nurlik bo'lur). Siynalarining va kindiklarining o'rtasida xat kabi cho'zilgan bir mo'y tushgan edi. Ko'kraklari va qorinlari mo'ydin holi

edi. Lekin ikki bilaklari va ikki yelkalari va siynalarining yuqori tomonlarida mo'ylari bor edi. Ikki bilaklari uzun edi, kaftlari kushoda, ikki kaftlari va ikki qadamlari go'shtlik edi. Qo'llarining va oyoqlarining barmoqlari mo'tadil uzun edi.

Qadamlari silliq edi, unda suv to'xtamas edi. Qachon yursalar, quvvat ila qadam ko'tarar edilar. Oldilariga egilibroq yurar va ohista qadam qo'yar edilar. Yurishlari tez-tez bo'lib, keng qadam qo'yar edilar. Qachon yursalar, bir balandlikdan tushib turgandek yurardilar. Va bir tarafga burilsalar, butun qomatlari bilan burilardilar. Nazarlari tubanga bo'lar edi. Osmondan ko'proq yerga boqar edilar. Ko'pincha ko'z qirrasini bilan boqar edilar. Sahobalarining o'zlaridan ilgari yurgizib, o'zlari orqalaridan yurar edilar. Har kimsa yuliydilar, undan ilgari salom berardilar.

8. Jobir ibn Samra roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning og'izlari mo'tadil katta edi (Arablar erlar uchun katta og'iz bo'lishni yaxshi ko'radilar, chunki fashatli bo'ladi). Ma'sum ko'zlarining oqida qizillik bor edi. Qadamlarining orqasida go'sht kam edi.

9. Jobir roziyallohu anhudan rivoyat: Men bir oydin kechada Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni ko'rdimki, badanlarida qizil libos bor edi. Men goho Rasulullohga boqar edim, goho oyga boqar edim. Boqa-boqa shu natijaga yetdimki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam husnda, jamolda va nurda oydan ziyoda va ortiq edilar.

10. Abu Ishoq dedilar: Bir kishi Baro' roziyallohu anhudan savol qildi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak chehralari qilich kabi yaltiragan edimi? Baro' dedilar: Yo'q. Oy kabi nuroniy, ya'ni nihoyatda nurli, nihoyatda ko'rkam edi. Uzun emas va yumaloq ham emas edi.

*I z o h. Bu o'xshatishlar hammasi taxminiydur, haqiqat emasdur. Bir oy nima (bo'libdi), ming oy bir bo'lsa ham nuroniyatda chehrai nabaviyyaga o'xshay olmas.*

11. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning jismi muboraklari shul qadar marg'ub, chiroyli va zebo ediki, inson ko'rib, vujudlarini Alloh Taolo kumushdan quyganmikan deb qolar edi. Muborak sochlarida biroz buralganlik bor edi.

12. Jobir ibn Abdulloh roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat qildilarki, menga barcha payg'ambarlar ko'rsatildi. Qarasam, Muso alayhis-salom biroz ingichka va oriq odam ekanlar. Yamandagi Shanua kabilasining odamlariga o'xshar ekanlar. Iso alayhis-salomni ko'rdim, u zotga men ko'rgan odamlardan Urva ibn Mas'ud nihoyatda o'xshaydir. Ibrohim alayhis-salomni ham ko'rdim, men ko'rgan odamlar ichlarida u zotga nihoyatda o'xshagan odam sizlarning payg'ambarlaringizdur (ya'ni o'zlarini aytdilar). Jibriyl alayhis-salomni ham ko'rdim, u zot men ko'rgan zotlardan Dihyat-al-Kalbiyga nihoyatda o'xshar ekanlar.

13. Sa'id Jurayriy debdilar: Men Abu Tufayl roziyallohu anhudan bu so'zni aytib turganini eshitdim: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni ko'rganman. Yer yuzida ul ni ko'rganlardan mendan boshqa bir kishi ham qolmadi. Sa'id Jurayriy dedilar: Men u kishi menga vasf qilib berishlarini so'radim. Abu Tufayl dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi

vasallam oq yuzli, malohatlik, jismlari mo`tdil bir zot edilar, ya`ni tamomi a`zolari o`zlariga yarashgan bir mahbub edilar.

14. Ibn Abbos roziyallohu anhumo dedilar: Rasululloh sallollohu alayhi vasallamning oldi taraflaridagi tishlaridan ikkisi nihoyatda yaltirab turardi. Qachon so`z qilsalar, tishlarining oralaridan nur kabi bir narsa chiqardi.

## **BU BOBDA MUHRI NUBUVVAT HAQIDA BAYON QILINADI**

15. Soib ibn Yazid roziyallohu anhu dedilar: Xolam meni Rasululloh sollallohu alayhi vasallam xizmatlariga olib bordilar va dedilar: Yo Rasulalloh, hamshiramning o`g`li bemor. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam mening boshimga qo`llarini surkab qo`ydilar va mening uchun barakat duosini o`qidilar, keyin tahorat qildilar. Men tahoratdan qolgan suvlaridan ichdim va orqa taraflariga o`tib turdim. Shu holatda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning ikki yelkalarining o`rtasida nubuvvat muhrini ko`rdim. Qarasam, u narsa pashshaxonaning tugmasi kabi ekan (Ba`zilar bu ma`noni kaklik tuxumiga o`xshagan bir narsa ekan, deganlar).

16. Jobir ibn Samra roziyallohu anhu dedilar: Men muhri nubuvvatni Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning ikki yelkalarining o`rtasida ko`rdim, u kabutarning tuxumi kabi bir ziyoda go`sht ekan. Rangi qizilga moyil ekan.

17. Rumaysa roziyallohu anho dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga shundoq yaqin turdimki, hatto agar xohlasam, ikki yelkalarining o`rtasidagi muhri nubuvvatni o`pa olar edim, Sa`d ibn Maoz roziyallohu anhu o`lgan kunlari dedilarki, bu zotning vafoti uchun Alloh Taoloning arshi xarakteratga keldi.

18. Ilbo` ibn Ahmar dedilarki, Amr ibn Ahtab Ansoriy roziyallohu anhu menga xikoya kildilar: "Menga Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bir kuni dedilar: ey Abu Zayd, menga yaqin kel va orqamni silab qo`y. Men orqalarini silab turib, barmoqlarim muhri nubuvvatga tegdi". Shunda men savol qildim, ey Abu Zayd, muhri nubuvvat nima? Abu Zayd dedilar: "To`plangan birmuncha mo`ylar, ya`ni o`sha o`sib ko`tarilgan go`sht atrofida va ustida mo`ylar bor edi". Sahobaning qo`llari o`sha tuklarga tushgani sababdan shunday dedilar.

19. Burayda roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Madinai munavvaraga tashrif qilganlarida, Salmon Forsiy roziyallohu anhu u kishiga bir dasturxon keltirdilar. Unda yangi pishgan xurmolar bor edi. Uni Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning oldilariga qo`ydilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Ey Salmon, bu nima? Salmon dedilar: Bu o`zlariga va sahobalariga sadaqadur. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Buni bu yerdan ol, biz sadaqa yemasimiz Salmon uni oldilar. Ertasiga yana shuncha xurmo keltirdilar. Uni ham huzurlariga qo`ydilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Bu nima, ey Salmon? Salmon dedilar: Yo Rasulalloh, bu o`zlari uchun hadyadur. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ashoblariga dedilar: Qo`l uzatinglar. Keyin Salmon Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning orqalaridagi muhri nubuvvatga nazar soldilar va Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga iymon keltirdilar. Salmon roziyallohu anhu o`zlari Bani Qurayza yahudlarining g`ulomi edilar. U kishini Rasululloh sollallohu alayhi vasallam sotib oldilar, ya`ni xo`jalaridan ozod etilishlariga sabab bo`ldilar va ozodliklariga ko`p dirhamlar sarflandi, va Salmon hojalari

uchun uch yuz xurmo daraxtini ko'chat o'tkazib berishlari ham shart qilingan edi. Ular meva qilguncha xabar olib tursinlar. Keyin Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o'z qo'llari bilan o'sha xurmo daraxtlari ko'chatlarini o'tqazdilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning mo'jizalaridan tamomi daraxtlar o'sha yil meva berdi. Lekin bir daraxt gul ham ochmadi. Tekshirilgach, ma'lum bo'ldiki, uni Umar roziyallohu anhu o'tqizgan ekanlar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam u ko'chatni olib tashlab, o'zlari boshqa o'tqizgan edilar, keyin meva berdi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning mo'jizalaridan tamomi daraxtlar bemavsum o'tqizilsa ham hammasi xosilga kirdi. Salmon Forsiy roziyallohu anhu qadim ulamolardan edilar. Yoshlari ikki yuz ellikka borgan edi. Bir rivoyatda uch yuz ellik deyiladi. Bu zot qadim kitoblarda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning payg'ambarlik alomatlarini o'qigan edilar. O'sha alomatlardan biri sadaqa qabul qilmasliklari va yana biri muhri-nubuvvatlari edi. Bu ikki alomatni ko'rib bilganlaridan keyin iymon keltirdilar. Bu zotning ozodliklari uchun berilgan naqd mablag' qirq uqya (1 uqya - 33.44 gr) tillo edi. O'zlarini Islomga musharraf bo'lganliklarining voqeasini o'zlari mufassal bayon qilganlar. Hadis kitoblarida zikr etilgan.

20. Abu Nazra dedilar: Men Abu Sa'id Xudriy roziyallohu anhudan Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muhri nubuvvatlari haqida savol qildim. Dedilarki, muhri nubuvvatlari orqalarida bir bo'lak ko'tarilgan go'sht edi.

21. Abdulloh ibn Sarjis roziyallohu anhu dedilar: Men bir kun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam xizmatlariga keldim. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam sahobalardan bir jamoat o'rtalarida o'tirgan ekanlar. Men orqalaridan shundoq aylandimki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam mening nima uchun aylanganligimni bilib, muborak yopinchiqlarini orqalaridan tushirdilar. Men muhri nubuvvat o'rnini ikki yelkalarining o'rtasida ko'rdim. U guyo bir mushtdek bo'lib, atrofida badanga toshadigan no'xatdek donalar kabi hollar bor ekan. Keyin men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning to'g'rilariga o'tdim va dedim: Yo Rasulalloh, Alloh Taolo o'zlarini mag'firat kilsin. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Senga ham mag'firat nasib etsin. O'tirganlar dedilar: Rasululloh sening uchun duoi mag'firat qildilarmi? Men dedim: Ha, mening uchun ham va sizlar uchun ham deb bu oyatni o'qidim (Va mag'firat talab qiling, o'zingiz uchun va mo'min erlar ham, mo'mina ayollar uchun ham. – Muhammad surasi:19-oyat).

## **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING SOCHLARI HAQIDA BAYON QILINADI**

22. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sochlari ikki quloqlarining yarmiga tushar edi.

23. Oisha roziyallohu anho dedilarki: Men va Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bir idishda g'usl qilar edik. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sochlari quloq yumshog'idan tushgan va yelkalariga yetmagan, ya'ni o'rta bir holda edi.

*I z o h: Bir idishda cho'milishdan er va xotin bir-birining avratini ko'rib turishi lozim kelmaydi, chunki Oisha roziyallohu anho o'zlari deganlarki, na men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning avratlarini ko'rdim va na u zot mening avratimni ko'rdilar.*

24. Ummu Honi' roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Makkai mukarramaga bir bor shu xay'atda keldilarki, sochlari to'rtga bo'linib o'rilib ko'yilganday ko'rilar edi. Ba'zi rivoyatda deyilganki, xar bir muborak quloqlari ikki o'rilgan soch o'rtasida xuddi qorong'u kechadagi yorug` yulduz kabi ko'rinar edi.

25. Ibn Abbos roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam avvalda sochlarini farq ochmay qo'yib qo'yardilar, chunki mushriklar farq ochardilar va kitobiylar farq ochmas edilar. Ilgari qaysi bir narsa haqida Allohdan amr kelmagan bo'lsa, kitobiylarga o'xshashlikni do'st tutar edilar. Keyin ularga muxolifat etib, sochlariga farq ochadigan bo'ldilar.

*I z o h. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam avvalda, ya'ni Islom dini tamoman nozil bo'lmay turib, kitobiy jamoatni o'zlariga hamdard va ko'makchi qilmoq uchun ularga xayrixoh bo'ldilar. Ko'rdilar-ki, ularga ham badbaxtlik g'olib kelib, ulfat ololmadilar. Mushriklar bilan ularning farqlari bo'lmay qoldi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ham ularga muxolifat etdilar va sochlariga farq ocha boshladilar. Haqiqatda pokizalik farq ochishda edi. Bunda isrof bo'lmas edi.*

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam xijratdan keyin muborak sochlarini avval Hudaybiyya yilida, so'ng Umratu-l-qazo yilida, keyin Hajjatu-l-vido' yilidagina tamom oldirganlar. Qachon sochlarini yaqin fursat ichida oldirgan bo'lsalar, quloqlarining yarmiga tushib turur edi. Buni arablar to quloq yumshog'iga yetguncha vafra (mo'l, ko'p) deydilar. Agar bundan ziyoda tushsa, limma (kokil) deydilar, agar bundan ham ziyoda uzayib ketsa, yelkalariga tegib tursa, uni jumma (uzun taralgan soch) deydilar. Oxiri uzayish shu bo'lur. Endi rivoyatlarda xar-xil sifatlar kelishi shu holatlarga qarab bo'lgan, ya'ni xar kim qaysi holda ko'rgan bo'lsa, u shu holatni rivoyat qilgan va hammalari rost so'zlagandirlar.

## **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING SOCHLARINI TARAGANLARI BAYON QILINADI**

*I z o h. Sochlarni taramoq mustahabdur. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam targ'ib qilganlar va o'zlari ham sochlarini tarar edilar. Imom Termiziy bu bobda ushbu masaladagi hadislarni keltirganlar.*

26. Oisha roziyallohu anho dedilar: Men hayz ko'rib turgan holatlarimda ham Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak sochlarini tarab qo'yar edim.

27. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam muborak sochlarini ko'p yog'lar edilar, va muborak soqollarini ko'p tarar edilar, va muborak boshlariga bir lattani qo'yib bog'lab olar edilarki, yog'ni ko'p iste'mol qilganliklaridan o'sha latta xuddi yog'chining libosiga o'xshab qolar edi.

*I z o h. Boshga yog' ko'p qo'yilsa, liboslarning yomon bo'lish ehtimoli bor, bu narsa Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning nazofat (tozalik)lariga muvofiq emasdir. Shuning uchun saqlanish maqsadida zohiriy bir lattadan foydalanar edilar.*

28. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam tahorat qilishda, soch tarashda va oyoq kiyim kiyishda o'ngdan boshlardilar, ya'ni xar bir muborak va

ziyat ishlarida o'ngdan boshlamoqni manzur ko'rar edilar. Chunonchi, libos kiymoq, oyoq kiyimlarini kiymoq, masjidga kirmoq, soch taramoq kabi ishlarda va hamma boshqa ishlarda ham. Kiyim yechish, xaloga kirish kabi nomuborak ishlarda esa chapdan boshlar edilar.

29. Abdulloh ibni Mug'fal roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam har kun va har soat soch tarab turishdan man' qildilar. Magar goho-goho taramoqqa ijozat bergandilar, chunki davom etmoq ayollarga xosdir.

30. Bir sahoba dedilarki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam goho-goho muborak sochlarini tarab turardilar.

*I z o h. Qozi Iyoz rahimahulloh dedilar: goho-gohodan murod, uch kundir. «Sunani Abu Dovud»dagi bir hadisda har kun taralishini man' etilgan. Ulamoi kirom rahimatumulloh dedilar: Bu hukm sochni extiyoji bo'lmagan bir suratdadir. Agar zarurat bo'lib qolsa, zarari yo'qdir.*

*I z o h. Bu hadisni rivoyat qiluvchi sahobaning nomlarini ba'zilar Hakim ibn Amr, va ba'zilar Abdulloh ibn Mug'fal deganlar. Sahobalarning nomlarini sarif (ochiq) bayon etmaslik ularning adlliklariga zarar qilmaslar, zero, hammalari adldilar.*

## **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING SOQOL VA SOCHLARIGA TUSHGAN OQLAR HAQIDA BAYON QILINADI**

31. Qatoda dedilar: Men Anas roziyallohu anhuga dedim: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam soch va soqollarini bo'yaganmilar?" Anas dedilar: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning soch va soqollari bo'yaladigan bir miqdorga yetmagan edi, faqat ikki chekkalaridagina biroz oq paydo bo'lgan edi, lekin Abu Bakr roziyallohu anhu xino va katm bilan soch va soqollarini bo'yar edilar".

*I z o h. Xino ma'lum bir daraxt bo'lib, ranggi to'q qizil bo'ladi, katm bir qism giyoh bo'lib, rangi qora bo'ladi. Har ikkisini aralashtirib bo'yalsa, qoraga moyil qizil bo'ladi. Agar ikkisi bilan bo'yalsa, durust. Tanho qora rang bilan bo'yamoq esa hadislarda mamnu'dur.*

32. Anas roziyallohu anhu dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak boshlarida va muborak soqollarida o'n turt donadan ko'p oq sanamadim.

33. Jobir roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning soch va soqollaridagi oqlar haqida savol qilinganda, dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam agar boshlarini yog'lasalar oqi ko'rinmas edi, agar yog'lamasalar, ozroq oq ko'rinar edi.

34. Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhumo dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning soch va soqollaridagi oqlar avvali va oxiri yigirma adad edi.

35. Ibn Abbos roziyallohu anhumo dedilar: Abu Bakr roziyallohu anhu so'radilar: "Yo Rasulalloh, o'zlari mijozlari mu'tadil va yoshlari kam bo'lib turib ham tez soch, soqollari oqarib qoldi. Nima uchun bunday bo'ldi?" Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat qildilar: "Mening soch va soqolimni «Hud» va «Voqi'a» va «Murasalot» va

«Ammā yatasāʻalun» va «Izash-shamsu kuvvirot» kabi suralar oqartib qoʻydi“, yaʼni ummatim ahvoliga ihtimomim va ular uchun bu suralardagi ogʻir hollardan qoʻrqanligim meni bu holga yetkazdi.

36. Abu Hujayfa roziyallohu anhu dedilar: Sahobalar xitob qildilar: “Yo Rasulalloh, oʻzlarida qarilik va zaiflik asarlarini koʻra boshladik. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam javob berdilar: “Meni «Hud» surasi kabi ogʻir mazmunlik suralar qaritib qoʻydi”.

37. Abu Timsata-t-Tayyimiyy roziyallohu anhu dedilar: Men oʻz oʻgʻlimni olib, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga keldim. Odamlar u kishini menga koʻrsatdilar. Men u kishini koʻriboq “Bu zot – Alloh taoloning paygʻambaridir” dedim. U zotning egnilarida yashil rangda ikki libos, yaʼni ridoʻ va izorlari bor edi, va Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning bir oz sochlariga oqlik gʻolib kelgan va oʻsha sochlari qizil rangda edi.

38. Jobir roziyallohu anhudan bir kishi savol qildi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak boshlariga oq soch paydo boʻlganmidi? Jobir roziyallohu anhu javob berdilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak boshlarida oq soch yoʻq edi. Magar farqlarining oʻzida bir necha adad sanoqlik oq sochlar bor edi. Qachon boshlariga yogʻ isteʼmol qilsalar, ular koʻrinmay qolardi.

39. Abu Rimsa roziyallohu anhu dedilar: Men oʻz oʻgʻlim bilan birga Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga keldim. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Bu oʻgʻlingmi? Men dedim: Xa yo Rasulalloh, bu mening oʻgʻlim. Oʻzlari guvoh boʻlib qoʻysinlar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat qildilarki, “Bu sening zararingga jinoyat qilmas va sen ham uning zarariga jinoyat qilmassan“, yaʼni Islomdan avvalgi zamonlarda bolaning gunohiga ota masʼul va otaning gunohiga bola masʼul boʻlar edi. Islom dinida bu soʻz yoʻqdir. Har kishi oʻz gunohiga oʻzi masʼul boʻladi. Abu Rimsa roziyallohu anhu aytadilarki, men bu muloqotimda koʻrdimki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning baʼzi sochlari qizil edi.

*I z o h. Xanafiyy ulamolar nazdida soch va soqolni buyamoq mustahab, lekin mashhur bayonlarda qora rang bilan buyamoq makruh va shofiʼiylar nazdida esa boʻyamoq sunnat va qora rang bilan boʻyamoq haromdir.*

40. Abu Hurayra roziyallohu anhudan savol qilindiki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam soch va soqollarini boʻyagandilarmi? Abu Hurayra roziyallohu anhu javob berdilarki: Ha, boʻyagandilar.

41. Bashir ibn Xasosayyaning xotinlari Jahzama roziyallohu anhumo dedilarki: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni koʻrdim, uylaridan chiqib turgan edilar. Gʻusl qilganlari uchun boshlarini artib turgan edilar va boshlarida xinoning asari bor edi.

42. Anas roziyallohu anhu dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak sochlarini boʻyalganini koʻrdim, yaʼni xino isteʼmol qilgan ekanlar.

## **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING SURMA ISTEʼMOL QILGANLARI BAYON QILINADI**

*I z o h. Koʻzga surma qoʻymoq mustahab va unda tibbiy manfaatlar ham bor. Surma*

*qo'yuvchi kishi uchun munosibi shuki, savob niyatida surma qo'ysin, shunda tibbiy nafi bilan birga sunnatga ergashgan savobi ham hosil bo'ladi.*

43. Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhumo dedilar: "Rasululloh sallallohu alayhi vasallam ko'z nurini o'tkir qiladigan, kipriklarni o'stiradigan ismid nomli surmani ko'zga qo'yishni buyurdilar", va yana Ibn Abbos dedilarki, "Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning bir surmadonlari bor edi. Undan har kecha ko'zlariga surma qo'yar edilar. Har ikkala ko'zlariga uch martadan qo'yardilar".

44. Ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uyquga borishlaridan avval ismid surmasidan har ko'zlariga uch bor qo'yar edilar.

45. Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Ismid surmasini albatta qo'yib yuringlar, u surma nazarni tez qiladi va kipriklarni ziyoda o'stiradi.

46. Ibn Abbos roziyallohu anhumo dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat qildilar: "Sizlarning surmalaringiz ichida hammadan yaxshisi ismid surmasidir, u ko'zni ziyoda nurli qiladi va kipriklarni o'stiradi.

*I z o h . Yuqoridagi rivoyatlardan ismid surmasini iste'mol etishning afzalligi ma'lum bo'ladi. Ismid topilmagan paytda, qaysi bir surmani iste'mol qilinsa ham sunnat ado topgan bo'ladi.*

*I z o h . Ushbu oxirgi hadisning roviylaridan birlarining nomlari Bashir ibn Mufazzaldir. Bu zot haqida ulamolar dedilarki, xar kun to'rt yuz raka'at nafl namoz va bir kun ro'za va bir kun iftori doimiy odatlari edi. Alloh rahmat qilsin.*

## **BU BOBDA RASULULLOH SALLOLLOXU ALAYHI VASALLAMNING LIBOSLARI BAYON QILINADI**

Ulamolar deganlarki, insonlar kiyadigan liboslar ba'zisi vojib, va ba'zisi mustahab va ba'zisi makruh va ba'zisi harom bo'ladi. Musulmon uchun munosibi, iste'moli savob bo'lgan liboslarga ehtimom etmog'idir, hamda iste'moli gunoh bo'lgan liboslardan tiyilmog'idir. Vojib bo'lgan libosning miqdori, uning bilan satri (berkitish) lozim bo'lgan badan yopilmog'i, mustahab bo'lgani esa uni kiymoqqa shariat targ'ib etganidir. Masalan, ikki xayit kunlarida yangi va yaxshi libos va juma kunida namoz uchun oq libos kiyish. Makruh bo'lgan libos shariat uni kiymaslikka targ'ib etganidir, masalan, boy odamga hamisha yirtiq va eski libos kiymoq makruh. Harom libos, uni kiyishni Islom dini qat'iyman' etganidir. Masalan, erkaklarga ipak libosini beuzr kiymoq haromdir.

47. Ummu Salama roziyallohu anho dedilar: Liboslar ichida Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ko'ylak kiyar edilar, liboslar ichida mahbubrog'i ham ko'ylak edi (chunki boshqa liboslardan ko'ra ko'ylakda ziyoda mukammal satr xosil bo'ladi).

48. Asmo roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning ko'ylaklarini yengi bilaklarigacha edi, ya'ni kaftlarini yopmas edi.

Bir rivoyatda kelganki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ko'ylak kiyar edilar. Ko'ylaklarining etagi ikki to'piqlaridan yuqori va ikki yengi barmoqlarining uchlari ila barobar bo'lar edi. Mana bu ikki rivoyat sharhida ba'zi ulamolar deganlarki, biri safardagi hol, ikkinchisi hozirdagi hollaridir, yo biri shimarilgan vaqti, ikkinchisi esa qo'yib berilgan vaqtdir, yo biri, ya'ni qisqaligi, sunnat bo'lib, uzunligi esa joizdir.

49. Qurra ibn Iyos roziyallohu anhu dedilar: Men Muzayna kabilasidan bo'lgan bir jamoa bilan birga Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga bay'at berish uchun kirdim. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning ko'ylaklarining tugmasi solinmagan yo tugmasi ochiq edi. Keyin men qo'limni yoqalariga soldim va tabarruk maqsadida muhri nubuvvatlarini ushladim.

50. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bir kun Usoma roziyallohu anhuga suyangan hollarida hujrai saodatdan bir kism yamaniy naqshlik libosga tavashshuh tariqasida o'ralib chiqdilar. Keyin sahobalarga imom bo'lib namozlarini o'qib berdilar. (Arablar bir chodrani o'ng qo'lning ostidan olib, chap yelkaga solib olishni tavashshuh deyдилar.)

*I z o h. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning bu tariqada bir odamga suyanib chiqishlari, ulamolarning bayon qilishlaricha, bemorlik vaqtlarida bo'lgan ekan.*

51. Abu Sa'id Xudriy roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qachon bir yangi libos kiyimoqchi bo'lsalar, avval uning otini olar, keyin der edilar: Ey Alloh, O'zingga shukur, bu libosni ato qilganing uchun Senga hamd aytaman. Ey Alloh, men Sendan bu libosning o'zidagi va unga ato etilgan yaxshilikni talab qilurman va Sen bu libosning o'zidan va unga ato etilgan yomonlikdan panoh berishingni iltijo qilaman.

52. Anas roziyallohu anhu dedilar: Liboslar ichida Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga nihoyatda mahbubi naqshalik, ya'ni qizil yo'llik yamaniy chodar edi.

*I z o h: Ushbu hadis bilan shu bobning birinchi hadisida ixtilof yo'qdir, chunki tikilgan liboslar ichida hammadan mahbubi ko'ylak bo'lsa, chodarlarda ichida hammadan mahbubi qizil yo'llik chodar edi.*

53. Abu Hujayfa roziyallohu anhu dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni muborak badanlarida qizil yo'llik yamaniy chodarlari bor holda ko'rdim, va hozir men guyo u kishining muborak ikki pochalarini yaltirab turganligini ko'rib turgandayman (ya'ni chodarlari tamom pochalarini yashirmagan, to'piqlaridan yuqorida edi).

54. Abu Rimsa roziyallohu anhu dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni ko'rdim. Egnilarida yashil rangli ikki liboslari bor edi. (Arablar yo'llik libosni burd derlar, agar yo'li bo'lmasa, burd demaydilar).

55. Qayla roziyallohu anho dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni ko'rdim, jismlarida za'farga bo'yalib, unda asari qolmagan eski ikki chodarlari bor edi.

56. Ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Libosning oqini ixtiyor etinglar, uni tiriklaringiz kiysinlar va unda o'liklaringizni kafanlanglar, chunki oq libos liboslaringizning afzalidir.

57. Samura roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Libosning oqini kiyinglar, chunki oqlari pokizaroq va yaxshiroq bo'ladi. O'liklaringizga undan kafan qilinglar.

58. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bir kun erta bilan uylaridan chiqdilar, badanlarida qora qildan to'qilgan chodarlari bor edi.

59. Mug'iyra roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bir jubba kiydilar, o'zi rumiy bo'lib, yenglari tor edi. (Jubba – kekxa kishilar kiyadigan bo'yi va yengi uzun to'n)

### **U BOBDA RASULULLOH SALLOLLOHU ALAYHI VASALLAMNING MAHSI VA KAVUSHLARI HAQIDAGI HADISLAR BAYON QILINADI**

60. Burayda roziyallohu anhu dedilar: Habash podshohi Najjoshiy Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga bir juft qora sodda mahsi hadya yubordi va Rasululloh sollallohu alayhi vasallam tahorat qilib uni kiyib oldilar. Keyin yana tahorat qilganlarida, unga mash tortdilar.

61. Sha'biy rivoyat qiladi: Mug'iyra roziyallohu anhu dedilar: Dihya roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga bir juft mahsi hadya berdilar va bir rivoyatda bir dona jubba ham hadya kildilar va Rasululloh sollallohu alayhi vasallam har ikkisini yirtilguncha kiydilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bu bir juft mahsi halol so'yilgan jonivor terisidan tikilganmi, yo boshqa teridanmi bilmadilar.

62. Ibn Abbos roziyallohu anhumo dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning na'layn muborakayn (ikki oyoq kiyim)larining har birida ikki tasma bor edi. (Bir tasma bosh barmoq bilan yonidagi barmoq o'rtasida turar edi, ikkinchisi o'rta barmoq bilan yonidagisining o'rtasida turar edi). O'sha ikki tasmaning uchi kelib qo'shilgan qadam yuzidagi ko'ndalang tasma ham bir juftdan edi.

63. Iso bin Tahmondan rivoyat qilinadi: Anas roziyallohu anhu bizlarga bir juft kavush chiqarib ko'rsatdilarki, yuzida tuki yo'q edi. Keyin Sobit Banoniy menga Anas roziyallohu anhudan rivoyat etdilarki, o'sha bir juft kavush Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning kavushlari ekan.

64. Ibn Umar roziyallohu anhuga Ubayd ibn Jurayj dedilar: siz tuki yo'q charmdan bo'lgan kavush kiyasiz va unda tahorat qilasiz, buning sababi nima? Ibn Umar roziyallohu anhu dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning shunday kavush kiyganlarini va unda tahorat qilganlarini ko'rganman. Shuning uchun shunday kavushni kiymoqni yaxshi ko'raman.

*I z o h. Zamonaviy risolatda musulmonlar yashash va madaniyat kabi narsalarga ziyoda ahamiyat bermas edilar. Tamomi fursatlarini din va oxirat ishlariga sarf etardilar, hatto charmni oshlaganda, tuki ketdimi yo ketmadimi, bunday narsalarga mashg'ul bo'lmasdilar. Shuning uchun bu zotning ko'zlariga Ibn Umar roziyallohu anhuning tuki tamom tozalangan charmdan kavush kiyganliklari taajjub ko'rindi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam tuki yo'q charm kavush iste'mol qilishlari esa uning joizligini bildirish*

*uchun bo'lgan.*

*Kavush bilan tahorat qilmoqning ma'nosi, tahorat qilib oyoqlari xo'llik holda kiyar edilar yoki kiyib turib, tahorat qilmoq, ya'ni oyoqni kavush kiyib turib yuvmoqning joizligini ta'lim qilar edilar, chunki arabiy kavushlar yuzi ochiq bo'ladi, suv oyoqning hamma tarafiga yetadi.*

65. Amr ibn Hurays roziyallohu anhu dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni ikki kavush kiygan holda namoz o'qib turganlarini ko'rdim. Kavushlarining orqa tarafiga charm solingan yo yamoq qilingan edi.

*I z o h. Bu hadisdan kavush bilan namoz o'qimoq joizligi ma'lum buladi. Albatta, poklik sharti bilan.*

66. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Ey, musulmonlar, sizlardan hech bir kishi bir oyog'ida kavush va bir oyog'i yalang yurmasin. Kavush kiysa, butun kiysin, bo'lmasa yalangoyoq yursin.

67. Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bir kishini chap qo'l bilan taom yemagin va bir poy kavush kiymagin deb man' qildilar.

*I z o h. Bu ikki hadisni «Shamoili sharifa» hadislari bilan zikr kilishdan musannifning maqsadlari shuki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam chap qo'llari bilan taom yemadilar va yakka poy kavush kiymadilar deyishdir. Shari'ati islomiyada bu ikki ish uzrsiz qilinsa, makruh sanaladi.*

68. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Qachon sizlardan bir kishi kavush kiymoqchi bo'lsa, avval o'ng oyog'iga kiysin va qachon kavush yechmoqchi bo'lsa, avval chap oyog'idan yechsin, ya'ni o'ng oyoq kiyishda avval bo'lsin, yechishda keyin bo'lsin.

69. Abu Hurayra roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning kavushlaridagi tasmalari ikki dona edi. Abu Bakr va Umar roziyallohu anhumoning kavushlaridagi tasmalari ham ikki dona edi. Hammadan avval kavush tasmasini bir donaga tushirgan zot Usmon roziyallohu anhu bo'ladilar.

*I z o h. Bu hadisdan kavush tasmalarini xos bir adadi bo'lmay, odatga qarab bo'lishi joiz ekanligi ma'lum bo'ladi.*

## **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING UZUKLARI VA UZUK TAQISHLARI HAQIDA BAYON QILINADI**

70. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning uzuklari kumushdan bo'lib, ko'zi xabash san'atida ishlangan edi. (Yoki xabash konlaridan kelgan tosh edi, yoki rangi xabashlardek qora edi, vallohu a'lam).

71. Ibn Umar roziyallohu anhumo dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning uzuklari bor edi. Atrofga yuborgan xatlariga o'sha uzuk bilan muhr bosar edilar. Va uni

taqmas edilar, (ya'ni avval taqmas edilar, keyin taqdilar) hayotlarining oxirigacha taqib o'tdilar.

72. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning uzuklari kumushdan bo'lib, ko'zi o'zidan edi.

*I z o h. Birinchi hadisda ko'zi xabashiy deyildi va bu hadisda ko'zi o'zidan deyildi. Ulamolardan har kim Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning uzuklari bir dona edi deguvchilardan bo'lsa, bu hadisni dalil etib, yuqoridagi xabashiy kalimasiga xabash san'atida ishlangan edi, deydilar. Uzuklari bir nechta edi deguvchilardan bo'lsa, avvalgi hadisni "ko'zi xabashiy tosh edi", deb tafsir qiladilar.*

73. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Ajam podshohiga xat yozmoqchi bo'lganlarida, odamlar Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga dedilar: Ajam podshohlari muhr bosilmagan xatni qabul etmaydilar. Keyin Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uzuk qildirdilar. Hozir men guyo o'sha uzukning muborak kaftlarida oqligini ko'rib turgandayman.

74. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak uzuklaridagi naqshi bunday edi: birinchi satrda Muhammad lafzi, ikkinchi satrda Rasul lafzi, uchinchi yuqoridagi satrda esa Alloh lafzi bor edi.

75. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Eron, Rum va Habash podshohlariga xat yozmoqchi bo'ldilar. Odamlar dedilar "ular muhri yo'q xatni qabul etmaydilar", keyin Ya'lo ibn Umayya nomli sahobaga amr qildilar. U kishi bir uzuk qilib keldilar, xalqasi kumushdan edi va unga "Muhammad Rasululloh" jumlasini naqsh qilib o'yilgan edi.

76. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qachon xaloga kirmoqchi bo'lsalar, muborak qo'llaridan uzuklarini chiqarib qo'yar edilar (chunki unda Alloh Taoloning nomi bor edi).

77. Abdulloh bin Umar roziyallohu anhumo dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak uzuklari hayotlarida o'z qo'llarida edi. Vafotlaridan keyin Abu Bakr roziyallohu anhu qo'llarida va u zotdan keyin Umar roziyallohu anhu qo'llarida bo'ldi. Usmon roziyallohu anhu qo'llariga o'tgandan keyin olti yil saqladilar. Keyin u uzuk «Be'ru Aris» nomli bir quduqqa tushib yuqoldi. Uning naqshi "Muhammad Rasululloh" edi.

*I z o h. Aris kalimasi amir vaznida masjidi Quboga yaqin bir yerdagi bir bog' yo bir quduqning nomi bo'lib, yahudlardan Aris nomli bir kishiga mansub bo'lgan. Usmon roziyallohu anhu xilofatlariga olti yil bo'lgan davrda o'sha quduqni madinaliklar uchun kovlatib qo'ygandilar. Bir kun o'sha quduq labida o'tirganlarida, bir narsaga muxr bosmoqchi bo'lib, muhr saqlaguvchi Mu'ayqib degan kishidan shu uzukni talab qildilar. Muhr qo'llaridan quduqqa tushib ketdi. Bu uzukni ba'zi vaqt barakot umidida taqib ham yurar edilar. Quduqqa tushgandan keyin uch kungacha axtardilar. Quduq suvini tamom tashqariga oldirdilar, lekin topilmadi. Ulamolalar dedilarki, shu uzuk yuqolgandan keyin Usmon xukumatlariga har turli fitna va fasod boshlandi.*

78. Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uzuklarini o'ng qo'llariga taqardilar.

*I z o h. Bu hadis va tubandagi asarlardan har ikki qo'lga taqmoqlikning joizligi va sunnat ekanligi ma'lum bo'ladi.*

79. Ibn Umar roziyallohu anhumo dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning uzuklari kumushdan bo'lib, ko'zini kaftlariga qilib olardilar. Unga "Muhammad Rasululloh" jumlasini o'ydirgan edilar. Boshqa odamlarni shu jumlani muhrlariga va uzuklariga o'ydirishdan man' qilgan edilar. Aris qudug'iga Mu'ayqib roziyallohu anhumo qo'llaridan tushib ketgan mana shu uzuk edi.

*I z o h. Mu'ayqib roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi vasallam zamonlarida muborak uzuklarini saqlaguvchi bir zot edilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qachon qo'llariga uzuk taqmagan bo'lsalar, albatta, Mu'ayqib qo'llarida saqlangan bo'lardi. Vafotlaridan keyin ham, Abu Bakr roziyallohu anhu vafotlarida, va u zotdan keyin Umar roziyallohu anhu vafotlarida, va u zotdan keyin Usmon vafotlarida ham uzukni saqlaruvchi Mu'ayqib edilar. Ittifoqo, bir karra uzukni Usmonga berib, yo u kishi olib turib edilar, uzuk qo'ldan chiqib, quduqqa tushib g'oyib bo'ldi.*

80. Muhammad Bokir roziyallohu anhu dedilar: imom Hasan va imom Husayn roziyallohu anhumo har ikkalalari uzuklarini chap qo'llariga taqar edilar.

*I z o h. Bu hadis mavqufdir (mavquf - to'xtatilgan). Chunki, imom Muhammad Bokir imom Hasan va imom Husayn roziyallohu anhumoni ko'rmaganlar. Lekin yana bir rivoyatda marfu'an kelganki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam va Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali, Hasan hamda Husayn roziyallohu anhumo hammalari uzuklarini chap qo'llariga taqar edilar.*

81. Ibni Umar roziyallohu anhumo dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam oltindan bir uzuk qildirdilar. Uni o'ng qo'llariga taqar edilar. Bu holni ko'rib ashobi kirom ham oltindan uzuklar qildirib, sunnatga ergashish niyatida taqa boshladilar. Keyin Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o'sha tilla uzukni tashladilar, va dedilarki, "men buni hargiz taqmayman", keyin sahobalar ham oltin uzuklarini tashladilar.

*I z o h. Tilla iste'moli Islom avvallarida joiz edi. Keyin erkaklarga harom kilindi. Uning haromligiga jumhur ulamolar ittifoq qilganlar.*

## **BU BOBDA RASULULLOH SALLOLLOHU ALAYHI VASALLAMNING QILICHLARI, ZIRRA VA QALQONLARI HAQIDAGI HADISLAR BAYON QILINADI**

Ulamolar deganlarki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning yetti dona qilichlari bor edi. Ba'zilar o'n bir dona edi, deganlar. Har birining alohida nomi bo'lib, hammadan mashhurrog'i "Zulfiqor" edi, uni o'zlaridan uzoq qilmas edilar va zirralari, ya'ni urushda kiyadigan temir xalqalardan to'qilgan kiyimlari yetti dona bo'lib, hammasining alohida-alohida nomi bor edi. Hammadan mashhurori «Zotul-fuzul» ("Fazilat sohibi") edi. Qalqonlari, ya'ni urushda boshqa imoma (salla) ostidan kiyadigan do'ppilari ham bor edi. Uning adadi yoki nomi haqida qo'limizda mavjud kitoblarda hech narsa yozilmagan.

82. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qilichlarining (Zul-fiqorning) dastasining duppisi kumushdan edi.

83. Maziya roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Makka fath etilgan kuni Makkaga kirganlarida, qilichlarining yuzida tilla va kumush ko'rindi.

*I z o h. Alloma Tur Pushtiy dedilarki: Bu hadisni qilichga tillo iste'mol qilishning durustligiga dalil qilib bo'lmaydi, chunki bu hadisning sanadi qobil e'timod emasdir. Kumush iste'moli yuqoridagi hadis kabi xadislarda mubohdir. Tilla iste'moli esa nojoizdir.*

84. Samura roziyallohu anhu dedilar: Men o'z qilichimni Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning qilichlariga o'xshatib qildirdim. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning qilichlari xanafiy edi, ya'ni Banu Xanafi arablariga qildirgan edi, ular bu san'atda komil edilar.

85. Zubayr roziyallohu anhu dedilar: Uhud g'azotida Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning badani muboraklarida ikki zirra bor edi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bir baland tosh tepasiga chiqib, o'zlarini sahobalarga yo kofirlarga ko'rsatishni xohladilar, lekin chiqa olmadilar. Keyin Talha roziyallohu anhuni pastga o'tirg'izib, o'zlari tosh tepasiga chiqib, tikka turdilar va hamma u zotni ko'rib kela boshladi. O'sha soatda men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning "Talha o'ziga vojib kildi", degan so'zlarini eshitdim. (Ya'ni jannatni yo shafomatimni o'ziga sobit qildi degan bo'ladilar).

*I z o h. Uxud urushi xijratning uchinchi yilida bo'lib, nixoyatda xatarli urush edi. Ustunlik dushman tarafida edi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak yuzlari va muqaddas boshlariga jarohat yetib, muborak tishlari shahid bo'lgan edi. Dushmanlar Muhammadni o'ldirdik, deya ovoza qilishdi. Bu ovozadan sahobalar sarosimaga tushib, har tarafga tarqalib ketdilar. Shuning uchun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o'zlarining borliklarini do'stlarga ham, dushmanlarga ham ma'lum qilish maqsadida bir baland toshga chiqib ko'rindilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni har ikki taraf ko'rdi. Musulmonlar atroflariga jam bo'ldilar.*

*O'sha kuni Talha roziyallohu anhu bahodirlik javharini ko'rsatdilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uchun vujudlarini qalqon kildilar. Dushman hamlasidan to'sib qoldilar. Muborak jismlariga saksondan ziyod zahm paydo bo'ldi. Lekin bir lahza ham Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni yolg'iz qoldirmadilar. Oqibat muborak qo'llari shol bo'lib qoldi. Sahobai kirom hammalari bul zotga tan berardilar hamda "Uhud g'azoti haqiqatda Talhaning kunidir" der edilar. Bu kun tamomila ul zot xisoblariga o'tgandir. Roziyallohu anhum ajma'in. Vahshurno ma'ahum. Omin.*

86. Soib bin Yazid roziyallohu anhu dedilar: Uhud g'azoti bo'lgan kunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak badanlarida ikki zirra bor edi. Har ikkisini ustma-ust kiyib olgan edilar.

*I z o h. Bu tariqa ziyoda qo'sh-qo'sh zirra kiyishdan Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning Xudoga tavakkullarining kamligi kelib chiqmaydi, balki, aksincha, Xudoga shu qadar yaqin bir zot shunchalik ehtiyotda bo'lgan ekanlar, boshqalar kofirlardan bundan-da ziyoda ehtiyotda bo'lsinlar, degan ummat uchun ta'limdir. Rabbil-olamiyn jalla jaloluhu O'zi marhamat qiladi: "Ya ayyuhallazina amanu xuzuu xizrokum fanfiruu*

*subatin av-infiruu jami'an" («Niso» surasi).*

*Ma'nosi: "Ey, musulmonlar, kofirlar muqobillarida o'z extiyotlaringizni ko'ringlar, ya'ni ularning hamla va xujumlaridin xabardor turing. Va mudofaalari uchun yetarli harbiy asboblaringizni xozirlab turinglar. Keyin ularga muqobala uchun alohida-alohida bo'lib yoki hammalaringiz bir jam' bo'lib chiqinglar".*

*Mana shu oyati karima ma'nolaridan ma'lum bo'ladiki, dushman muqobilida vaziyat taqozosiga ko'ra xozirlik ko'rish Allohning amriga itoat qilishdir. Bunday xukmlarga Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan ortiqroq yaxshi amal qiluvchi kim bor? U zotning zirra, qalqon, qilich va boshqa asboblarni iste'mol etishlari ilohiy hukmga amal qilishdir. Tavakkulga xilof emas, balki ayni tavakkuldir.*

*I z o h. Bu masala ustida musannifning kichik bir risolasi «Islom nazarinda Siloh»ni ko'rilsin. Inshoalloh foydadan holi bo'lmas.*

87. Anas ibn Molik roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Fath kuni Makkai mukarramaga kirganlarida, boshlarida qalqonlari bor edi. Qalqonlarini olib qo'yib, xotirjam turgan edilar, bir kishi kelib dedi: «Yo Rasulalloh, ibni Xatal Ka'ba g'ilofiga yopishib turibdi». Rasululloh sollallohu alayhi vasallam "Uni o'ldiringlar" deb xukm qildilar. Ibni Shixob Zuxriy dedilar, menga yana shu ma'lum bo'ldiki, o'sha kuni Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ehromda emasdilar.

*I z o h. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Makkaga fotihona kirgan kunlarida, tamomi ahli Makka xush va havasdin mahrum bo'ldilar. Qochishga joy, yurishga oyoq topmadilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam kamoli rahm-shafqatlaridan e'lon qildilarki, har kim Baytulloh sharifra kirib olsa, unga omonlik berilur va har kim o'z o'yiga kirib olsa, unga ham omonlik berilur. Har kim qurolini tashlasa, unga ham omonlik berilur. Lekin erkaklardan o'n bir kishiga va ayollardan olti ayolga bunaqa omonlik bermadilar, qonlari halol etildi. Shunday bo'lib turib ham o'sha erkaklardan yetti kishi va ayollardan ikki ayol musulmon bo'ldilar, ularni ozod etildi. To'rt erkak, to'rt ayol qoldilar, ular qatl qilindi.*

*Mana shu sakkiz kishining biri Ibn Xatal edi. Bu odam avval musulmon bo'lish uchun Madinai munavvaraga kirib, musulmon bo'lib, nomini Abdulloh qo'ygandi. Bir kuni Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uni zakot yig'ib kelish uchun bir qabilaga yuboradilar. U o'sha qabilada turgan vaqtida o'zining bir musulmon g'ulomini "taomni tez hozirlamading", deb urib o'ldirib qo'yadi. Keyin qasosdan qo'rqib, Madinaga qaytmay murtadlikka yuz tutgancha, Makkaga qochib keladi. Makkada turib, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni xajv qila boshlaydi. Ikki nafar nag'machi, ashulachi cho'rilarni sotib olib, ularga xajviy she'rlarini yod oldiradi. Cho'rilar Rasululloh sollallohu alayxi vasallamga yozgan hajviy she'rlarini nag'ma qilib, o'qib berar edilar, u badbaxt esa bundan quvonar edi. Shuning uchun Rasululloh sollallohu alayxi vasallam uning ham xunin xadar qildilar. Shu sababdan uni Baytulloh-al-harom ichida bo'lsa ham o'ldirildi.*

*I z o h. Bu hadis ustida fiqhga taalluqli ikki masala vujudga keladi. Birinchisi, Haram sharif ichida hadd va qasos joriy qilinadimi yoki yo'qmi? Ikkinchisi, Makkai mukarramaga miyqot horjiddin beixrom kirish mumkinmi yo yo'qmi?*

*Birinchi masala taxqiqga muxtoj bo'lganligidan o'z o'rnida ko'rilsin. Ikkinchi masala bo'lsa Xanafiy ulamolar nazdida miyqotdan beixrom o'tmoq joiz emas, ya'ni Makkaga beixrom kirmoq man' etilgandir, chunki, hadisi sharifda miyqotdan beixrom o'tmish mamnu'dir. Imom Shofi'iy nazdida ushbu hadisga muvofiq joizdir. Bu hadis ustida Xanafiyya ulamolari deydilarki, o'sha kun beixrom kirmoq Rasululloh sollallohu alayxi vasallamga xos edi. Boshqani ul kishiga qiyos etib bo'lmaydi.*

## **BU BOBDA RUSULULLOH SALLOLLOXU ALAYHI VASALLAMNING IMOMA, IZOR VA RIDOLARI HAQIDAGI HADISLAR BAYON QILINADI**

Imoma bizning tilimizda "salla" deyiladi, sallani do'ppiga yo boshning o'zira bog'lansa ham sunnat ado qilingan bo'ladi. Izor beldan pastga kiyiladigan libos, Alloma Munodiy deydilar: Imoma namoz va ko'rkam ko'rinmoq uchun sunnatdir. Imoma haqida ko'p hadislar kelgan. Ba'zilar nihoyatda zaif bo'lsa ham, roviylarning ko'pligidan e'tiborga olinadi. Lekin u hadislarining ko'pchiligini mavzu' demoqlik - taxqiqda ehtiyotsizlikdir.

Shayxul-hadis Mavlono Muhammad Zakariyo aytadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning imomai shariflarining uzunligining miqdori mashhur rivoyatlarda keltirilmagan. Imom Tabroniyning bir rivoyatida yetti gaz ekanligi sobit bo'lgan. Imom Navaviy deydilarki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning ikki imomalari bor edi. Biri katta, biri kichik. Kichigi Aliy Qorining so'zlaricha, yetti gazdir, kattasi o'n ikki gaz.

Imoma (ya'ni salla) bog'lash, asri saodatdan shu kungacha kelayotgan bir sunnat hisoblanadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan salla bog'lamoqqa hukmlar bordir. Aytganlarki, "Imoma bog'langlar, hilmlaringiz ziyoda bo'lur" («Fathul-boriy»dan). Va yana aytganlarki, "Imomalik yuringlar. Imoma islomning alomatidir va musulmon bilan kofirni ajratruvchidir" («Ayni»dan). Abdulloh Ibn Umar roziyallohu anhumodan bir kishi savol qildi: "Salla o'ramoq sunnatmi?" U kishi dedilar: "Ha. Salla o'ramoq sunnatdir".

88. Jobir roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam fathi Makka kuni Makkai mukarramaga boshlarida qora salla o'ragan holda kirdilar. (Bundan avval o'tgan hadisda Makkaga boshlariga qalqon kiyib kirdilar, deyilgan edi. Endi bu hadisda qora salla o'rab kirdilar, deyildi. Bu ikki hadisning jami shuki: sallani kiyib, ustidan qalqon kiygan edilar. Chunki boshning o'ziga temir do'ppini kiymoq azobdir. Salla ustidan kiyilsa, azob bo'lmaydi).

89. Ibn Umar roziyallohu anhumo dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qachon salla bog'lasalar, peshini orqalariga, ikki yelkalarining o'rtasiga tashlab qo'yar edilar.

*I z o h. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning odati shariflari – pesh yopish-qo'yishda bir necha yo'l tutar edilar. Ba'zi olimlar aytadilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam goho pesh qo'ymay ham imoma bog'lar edilar. Pesh qo'yganlarida ba'zida oldilariga, o'ng taraflariga qo'yar edilar, ba'zida esa orqalariga – ikki yelkalarining o'rtasiga qo'yar edilar. Ba'zida imomalarining ikki uchini jamlab, pesh qo'ygandek tashlab qo'yar edilar. Alloma Munodiy deydilar: Bu suratlarning hammasi ham sobitdur. Lekin afzali orqaga ikki yelka o'rtasiga qo'yishdir. Alloma Merak deganlarki, siyrat kitoblarida sahih rivoyatlar bilan sobit bo'lganki, Nabiy sollallohu alayhi vasallam peshlarini ba'zi vaqtlarda orqalariga, ikki yelkari o'rtasiga qo'yar edilar. Ba'zi vaqtlarda imomalarini pesh qo'ymay kiyar edilar («Xasoilu nabavviy»dan).*

90. Ibn Abbos roziyallohu anhumo dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam vafotlaridan ilgari bir kun xutba o`qidilar. Shunda muborak boshlarida qora salla bor edi. Yo yog`li bir parcha latta bor edi.

*I z o h. Bu xutbai sharifa o`lim dardi vaqtlarida o`qilgan edi. Bu xutbalarida madinalik sahobalar haqida muhim vasiyatlar qildilar. Bu xutbadan keyin na minbarga chiqqanlar va na xutba o`qiganlar. U vaqtda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak boshlari qattiq og`rib turgan edi. Shuning uchun boshlarini bog`lab olgan edilar. Odati sharifalari, boshlariga ko`p yog` surtganlari uchun latta yog` bo`lib qolar edi.*

91. Abu Burda deydilar: Bir kun Oisha roziyallohu anho bizlarning xuzurimizga bir yemoq solingan chodar va bir qalin izor olib chiqib qo`ydilar, va dedilarki: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak ruhlari bu ikki libos ichida qabz qilindi.

*I z o h. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning libos haqidagi muborak odatlari, payg`ambarlikning avvalgi davridan boshlab vafotlarigacha bir holda o`tdi. Hargiz o`zgarmadi. Xaybar urushidan keyin sahobalarning axvollari yaxshi bo`ldi. Fathi Makkadan keyin atrof-olamning podshohlaridan tuhfarlar va xadyalar kela boshladi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam xohlagan suratda o`zlariga zebu ziyinat va ahli xonalariga tilagan miqdorlarida yengil hayot asboblarini xozirlab bersalar nihoyatda mumkin va oson edi. Lekin dunyo rohatini hargiz xohlamadilar. Topgan va tutgan narsalarini muhtoj va yetimlarga tarqatib, o`zlari va xonadonlari dunyodan pok va bealoqa o`tdilar. Biz – ummatlikni da`vo qilguvchi bandalar dunyoga shu qadar berilib ketdikki, Alloh Taolo O`zi bu holimizning yomon oqibatidan bizni asrasin. Omin.*

92. Ubayd ibn Xolid roziyallohu anhu dedilar: Men Madinai munavvarada ketayotgan edim. Birdan orqa tarafimdan "Izoringni balandroq ko`tar, izor baland tursa, egasi taqvoga va o`zi najosatdan poklikka yaqinroq bo`ladi va o`zi ko`p kun yashar, tez yirtilmas", degan ovoz eshitildi. Boqsam, ovoz qilgan zot Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ekanlar. Men aytdim: Yo Rasulalloh, bu izor o`zi bir qora va yo`llik chodar bo`lsa, bir narsaga arzimas, buning bilan nima takabbur bo`ladi va bunday chodarni ham extiyot qilinadimi? Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat kildilarki: "Balandroq ko`tarishda bir xikmat bulmagan taqdirda, senda menga ergashish muhabbati ham yo`qmi?" Keyin men ko`rdim, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning izorlari boldirlarining yarmida to`xtagan ekan.

*I z o h. Sayyidi olam sollallohu alayhi vasallam hamisha izor bog`lar edilar. Ishton kiygan va kiymaganliklarida ixtilof bor. Alloma Bejuriyning tahqiqlaricha, kiymaganliklari sobitdir. Lekin ishtonlari bor ekanligi ma`lum. Vafotlaridan keyin qolgan ashyolar ichida bor edi. Ibn Qayyim deydilarki: ishton sotib oldilar. Albatta, kiygani olgandilar. Bundan boshqa bir necha hadisda kiyganliklari ham voriddir. Sahobai kiromlar ham kiyar edilar. Ular albatta, Rasulullohning ijozatlari bilan kiyganlar. Abu Amoma roziyallohu anhu dedilar: Men aytdim: "Yo Rasulalloh, kitobiylar lungi bog`lamaydilar, ishton kiyadilar". Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: "Sizlar ularga xilof qilinglar. Lungi ham bog`langlar, ishton ham kiyinglar". Abu Hurayra roziyallohu anhu bir uzun hadis silsilasida deganlarki, men aytdim: "Yo, Rasulalloh, o`zlari goho ishton ham kiyadilarmi?" Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: "Ha. Kiyaman. Menga badanimni yopmoqqa hukm bor. Xech bir narsa badanni ishtondek yopolmaydi". Lekin muhaddislar*

*bu hadisni zaif deganlar.*

*I z o h. Lungi yo ishton yohud shim kabi liboslarni balki ko'ylak va kamzul va jubba kabi narsalarni etaklarini oyoq to'piqlaridan pastga tushirmaslik uchun ko'p ta'kidlar borki, oshig'idan pastidagisi do'zaxda hisob qilinadi. Ulamolar dedilar: boldirning yarmida to'xtatmoq mustahabdir, to'piqqa tushirmoq joizdir. Undan pastga tushsa va bu kibr uchun bo'lsa, haromdur. Kibr uchun bo'lmasa, makruhdir. Bularning hammasi erlar uchun. Ammo ayollar uchun bir qarichdan bir gazgacha etaklarini uzun qilishga haqlari bordir. Balki ular nima bilan bo'lsa ham o'zlarini nihoyatda mukammal satrda saqlashlari talab etiladi.*

93. Xuzayfa ibn Yamoniy roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam mening boldirimni yo o'zlarining boldirlarini go'shtini tutib turib dedilarki: "Izor bu yerga to'xtasin, uning joyi shudir. Agar bunga qanoat qilinmasa, bundan bir oz tushsin. Agar bunga ham unalmasa, shuni bilsinki, lungining ikki tupiqqa qadar tushmoqqa haqqi yo'qdir".

### **BU BOBDA RASULULLOH SALLOLLOHU ALAYHI VASALLAMNING QANDAY YURISH, O'TIRISHLARI HAQIDAGI HADISLAR BAYON QILINADI**

Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning yurishlari o'tgan boshqa boblarda qisman bayon qilingan edi. Bu bobda endi mustaqil bayon etiladi.

94. Abu Hurayra roziyallohu anhu dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallam kabi chiroyli bir insonni hargiz ko'rmadim. Oftob guyo u zotning nurli chehralarida turib, dunyoga jilva qilib turgandek tuyular edi. Yurishda ham xech bir insonni u zotdan tez raftor va qadamlari barakalik ko'rmadim. Shunday yurar edilarki, yerning tanobi u zot uchun tortilib turgandek tuyular edi. Bizlar o'zimizni qiynab, barobar yursak deb, urinardik, ammo Rasululloh sollallohu alayhi vasallam yurishga extimom qilmagandek, beparvo qadam qo'yar edilar

95. Qayla roziyallohu anhu dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni masjidida ko'rdim, ikki sonlarini tikka qilib, ikki qo'llari bilan ularni quchoqlab o'tirgan ekanlar. Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni nihoyatda ojizlik bilan xomush o'tirishlarini ko'rib, qo'rqqanimdan badanimda larza paydo bo'ldi.

*I z o h. Bu sahobaning qo'rqishlari shuning uchun ediki, Rasululloh sallallohu alayhi vasallamga balki ummatlarining ustiga keladigan bir azobdan xabar berildimikan, chunki Rasululloh sollallohu alayhi vasallam hamisha ummat xaqida fikr qilar edilar. Faqat ularning g'amida bo'lar edilar. Dunyo nima bo'lsa bo'lsin, zarracha parvolariga kelmas edi. Allohumma-rzuqna shafo'atahu. Bu hadis yuqorida ham o'tgan edi.*

96. Abdulloh ibn Zayd roziyallohu anhu deydilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni masjidida orqalarini yerga berib, bir oyoqlarini ikkinchi oyoqlari ustiga qo'yib yotganlarini ko'rdim.

97. Abu Sa'yid Xudriy roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qachon masjidida o'tirsalar, ikki sonlarini tikka qilib, ikki qo'llari bilan ularni quchoqlab o'tirar edilar. Bu tariqa o'tirishlari bomdod namozni o'qiganlaridan keyin bo'ladigan

o'tirishlaridan boshqadir, chunki bomdoddan keyingi oftob chiqquncha o'tirishlari chordona bo'lardi.

### **BU BOBDA RASULULLOH SALLOLLOHU ALAYHI VASALLAMNING SUYANGAN NARSALARI VA SUYANISHLARI HAQIDAGI HADISLAR BAYON QILINADI**

98. Abu Bakra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: "Ey, sahobalar, men sizlarga katta gunohlarning kattarog'ini aytib beraymi?" Sahobalar dedilar: "Ha, Yo Rasulalloh" dedilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: "Gunohlarning hammadan ulug'rog'i avval Xudoga ibodatda boshqani sherik keltirishdir. Keyin ota-onaga oq bo'lishdir". U kishi bir narsaga suyangan holda edilar, keyin turib o'tirdilar-da, aytdilar: "Yolg'on guvohlik berish, (yoki yolg'on so'zlashdir)". Mana bu oxirgi jumlaning qayta-qayta takror etdilar.

99. Abu Xujayfa roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Men taomni bir narsaga suyangan holda yemasman.

*I z o h. Taom yeyishdagi sunnat shuki, ikki tizza ustiga o'tirib yeyiladi. Agar o'ng oyoq ustiga o'tirib, taom tanovul qilsa, bu tariqa hazm uchun manfaatlidir.*

100. Jobir bin Samura roziyallohu anhu dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni bir bolishga, ya'ni yostiqaqa suyanib o'tirganlarini ko'rdim.

101. Fazl ibn Abbos roziyallohu anhumo deydilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning vafot topgan bemorliklarida huzurlariga kirdim. Boshlariga sariq latta bog'lab olgan edilar. U kishiga salom berdim. Javob berib, dedilar: "Ey Fazl". Men dedim: "Labbayka yo Rasulalloh". Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: "Shu latta bilan boshimni mahkam bog'la". Men aytganlarini qildim. Keyin turib o'tirdilar. Muborak qo'llarini yelkamga qo'yib, tik turdilar. So'ng masjidga chiqdilar.

### **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING TAOM TANOVL QILISHLARI VA QANDAY NONGA ODAT QILGANLARI HAQIDA BAYON QILINADI**

102. Ka'b bin Molik roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam taomdan keyin barmoqlarini uch bor yalar edilar.

*I z o h. Taomdan keyin qo'lni yuvmasdan ilgari taom yegan qo'l barmoqlarini yalamoq mustahabdir. Bu hadisga binoan uch bor yalamoq mustahabdir.*

103. Ka'b roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uch barmoqlari bilan taom yer edilar, va har uchini barobar yalar edilar.

*I z o h. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning taom uchun aksari iste'mol qiladigan uch barmoqlari bosh barmoq, ishorat barmog'i hamda o'rta barmoq edi. Goho besh barmok bila yeganliklari ham vorid bo'lgan.*

104. Anas roziyallohu anhudan rivoyat: Bir kun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga xurmo keltirildi. Men u zotni ochlikdan zaiflik paydo bo'lganligi sababli orqaga suyangan hollarida xurmodan yeb turganlarini ko'rdim.

*I z o h. Yuqorida suyanib turib taom yemoqlik man' qilingan edi. Bu hadisda o'zlari suyangan holda tanovul qilibdilar. Uning sababi ochlikdan paydo bo'lgan zaiflik edi. Ba'zi uzrluk holda man' qilinran narsalar joiz bo'ladi.*

105. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning vafotlariga qadar xonadon ahli va ayollari arpa unidan bo'lgan nonga qorinlari to'ymadi.

*I z o h. Ba'zi hadislarda kelganki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning uylarida onalarimizga bir yillik nafaqalarini xozirlab berar edilar. Undan yuqoridari hadis bilan ta'oruz paydo bo'lib, uning javobiga ulamolarimiz dedilarki: o'sha hozirlangan nafaqani iste'mol qilinganda yil oxirigacha ikki kun nonga navbat kelmas edi. Goho non, goho boshqa narsa bo'lar edi, lekin ikki kun ustma-ust nonginaning o'zidan qorin to'yilmagandir. Ammo boshqa narsalardan to'yilgandir.*

106. Abu Amoma roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uylaridagi onalarimizdan arpa unidan bo'lgan non ham o'zi oz bo'lganligi va kifoya qilmaganligidan oshib qolmas edi.

107. Ibn Abbos roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o'zlari va onalarimiz -hammalari bir-ikki kecha och qolishardilar. Kechqurun yegani bir narsa topmas edilar. Ko'pincha tanovvul qiladigan narsalari arpa noni edi.

*I z o h. Savol paydo buladiki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uylarida bir narsa bzlmasa sahobalar ichlarida davlatmandlar ko'p edilar. Hammalari u zotdan jonlarini ham ayamasdilar. Ular bu holni bilib turib nima sababdan sabr qilgandilar? Javob shuki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bunday holning ajridan umidvor bo'lib, nihoyatda maxfiy saqlar edilar. Onalarimiz ham shunday edilar.*

108. Sahl bin Sa'd roziyallohu anhudan savol qilindiki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam yaxshi elangan un nonida yegandilarmi? (Ya'ni ok un nonini). Sahl javob berdilarki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hayotlarida to vafot kunlarigacha un noni ro'baro'lariga na keldi va na uni ko'rdilar. Savol kilindiki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam zamonlarida siz sahobalarda elaklaringiz bo'lar edimi? Javob berdilar: bizlarda elak bo'lmas edi. Savol qilindiki, arpani qanday qilib non qilar edingizlar? Javob berdilarki, bizlar arpani bir idishga olib shopurar va puflar edik. Shunda qipiqlari yoki kepaklaridan uchgani uchib ketar va qolgani qolar edi. Keyin uni hamir qilib, non qilib yer edik.

109. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam xontaxta ustida taom yemadilar. Va kichik uzangi ham iste'mol qilmadilar va o'zlari uchun yupqa non ham pishirilmadi. Bu hadis roviylaridan Yunus dedilar: Men Qatodadan so'radimki, u zot taomni nima narsa ustida tanovul qilar edi? Qatoda javob berdilarki, shu odatdagi dasturxonda yer edilar.

110. Masruq dedilar: Men Oisha roziyallohu anho huzurlariga hozir bo'ldim. U kishi mening uchun xodimlariga buyurib taom chaqirdilar, va dedilarki, men qachon bir taomni topib yesam va yig'lamoqni xohlasam, yig'larman. Men so'radim: Nega yig'laysiz? Dedilarki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning dunyodan rixlat

qilganlaridagi hollari xotiramga kelib, ko'nglim buziladi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam umrlarida bir kun ikki marta nondan ham va go'shtdan ham muborak qorinlari to'ygan emas edi.

111. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam vafot kunlariga qadar ham arpa nonini ikki kun to'yib yemadilar.

### **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING NON YOKI BURUNJ BILAN TANOVL QILADIGAN TAOMLARI HAQIDA BAYON QILINADI**

112. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat kildilar: Sirka qandayam yaxshi narsadir.

*I z o h. Sirka topilishi oson, o'zi xush zotga takallufdan holi, hammabop bir nonxurishdir, har vaqt har yerda arzon topiladi. Unda bor tibbiy foydalar shuki, zaharli taomlar zahrini daf etadi, balg'am va safroni yuqotadi. Hazmga yordam beradi, qorindagi qurtlarni o'ldiradi hamda qorinni tez ochiradi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uning hakida duo qilganlar. O'tgan nabiyarning ham odatlari shunday bo'lgan.*

113. Simok bin Harb dedilar: Men Nu'mon bin Bashir roziyallohu anhudan bunday deganlarini eshitdim:

Ey, musulmonlar, Sizlar istaganlaringizcha yemoq-ichmoq ne'matlariga qodir emasmisizlar, holbuki, men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni shunday bir holda ko'rganmanki, qorinlarini to'yg'izadigan darajada kam xurmodan ham bir miqdor topmas edilar.

114. Zahdam Jarmiy dedilar: bizlar Abu Muso al-Ash'ariy roziyallohu anhu qoshida edik. Huzurlariga tovuq go'shti keltirdilar. O'tirganlardan bir kishi o'zini tortdi. Abu Muso dedilar: Nega tortilyapsan? U kishi dedi: Men tovuqni yomon bir narsa yeb turganini ko'rib, tovuq go'shti yemaslikka qasam ichganman. Abu Muso dedilar: Yaqin kel va bundan ol va kasamingga kafforat ber, chunki men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning tovuq go'shtini tanovul qilganlarini ko'rganman.

*I z o h. Tovuuq go'shti tez hazm bo'ladigan go'sht bo'lib, dil va dimog' va a'zoi raisaga toqat beradi. Ovozni sof qiladi, rangni chiroyli qilib, aqlga ham quvvat beradi.*

115. Safina roziyallohu anho dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan barobar Huboro go'shtidan yeganman. Huboro so'ziga ulamolar har ma'nolar berganlar. Hamma qovllarning xulosasi shuki, bu qush o'zi vahshiy qush bo'lib, rangi xokiy, bo'yni yug'on, tumshug'i uchli va uzun, oyog'i uzun, nihoyatda tez uchadi, badani kaklik barobarida bir maxluq ekan. Arabiy nomi huboro, forsiy nomi hubra, shavot va shavol, turkiy nomi to'g'dariy yo to'rg'ay, xindi nomi esa chana ekan.

116. Umar bin al-Xattob roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Zaytun yog'ini yenglar va uning bilan yog'laninglar, chunki u yog' muborak daraxtdan paydo bo'ladi.

*I z o h. Bu daraxtning muborakligi Qur'oni karimda ham zikr qilingan. Barakali bo'lishini*

*talqini uchun ulamolar har xil so'zlarni aytganlar. Ba'zilar deganlarki, bu daraxt ko'pincha, Shom iqlimida bo'ladi. Shom zamini albatta muborakdir, chunki unda yetmish payg'ambar chiqqanlar. Ba'zilar deganlarki, bu daraxtda manfaat ko'pdir. Jumladan, Abu Na'im deganlar: bunda yetmish bemorlikka shifo bor, shularning biri—moxovlik. Bu daraxtning umri uzun bo'lib, qirq yilda meva beradi. O'zi ming yil yashaydi.*

117. Anas roziyallohu anhu dedilar; Bir kun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam taom uchun chaqirildilar. U zot qovoqni xush ko'rar edilar. Men buni bilganim uchun tovoqning har tarafidan uni axtarib topib, oldilariga qo'yar edim.

118. Jobir bin Toriq roziyallohu anhu dedilar: Bir kun men Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga kirdim. Qarasam, qovoqni kesib, mayda-mayda qilib turgan ekanlar. Men so'radim: buni nima qilinadi? U zot dedilar: Buni solib, taomimizni ko'payturamiz.

*I z o h. Bu qovoq po'sti ichi ham usti ham ko'kish bo'lib, sariq osh qovog'idan boshqadir. Yog' qovoqlar suratida bo'ladi. Arabistonda Dubbo-n-Nabiy (Payg'ambar qovog'i) nomi bilan mashhurdir. Bu qovoqning ham manfaati ko'pdir. Tibb kitoblarida nihoyatda ta'rif qilinadi. Aqlni tez, dimog'ni quvvatli qiladi.*

119. Anas roziyallohu anhu dedilar: Bir chevar sahoba Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni mehmon qildi. Men u ziyofatga hamroh bo'lib bordim. U zotning huzurlariga arpa unidan bo'lgan non va qovoq solingan va koq go'sht solingan sho'rva xozir qildilar. O'sha kun men Rasululloh, sollallohu alayhi vasallamni ko'rdimki, kosaning har tarafidan qovoqni axtarib, topib yer edilar. O'sha kundan boshlab, men qovoqni yaxshi ko'radigan bo'lib qoldim.

120. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shirinlik va asalni yaxshi ko'rardilar.

*I z o h. Hadisning zohiridan har bir shirinlikni yaxshi ko'rishlari ma'lum bo'ladi, lekin ba'zi ulamolar arpa holvasi murod qilingan deyдилar, u zamonda shirinlik yog' va boshqa narsalardan qilinadi edi, deganlarki: Hammadan avval Usmon roziyallohu anhu xolva qildirib, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga keldilar va sollallohu alayhi vasallam uni ko'p pisand qildilar. U holva un, asal va yog'dan tayyor qilingan bo'lib, u zamonda shakar iste'moli u qadar rivoj topmagan edi, shuning uchun shirin narsalar aksari asal, yog', xurmodan qilinardi.*

121. Ummu Salama roziyallohu anho dedilar: Men qovurg'a go'shtidan bo'lgan kabobni Rasululloh, sollallohu alayhi vasallam huzurlariga taqdim etdim. U zot u go'shtdan tanovul qildilar. Keyin yangi taxorat qilmay nomozga turib ketdilar.

122. Abdulloh ibn Xoris roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan barobar masjidida kabob go'sht tanovul qildik.

*I z o h. Bu xadisdan masjidida yemoq va ichmoq joizligi ma'lum bo'ladi. Basharti, non ushog'i va boshqa narsalar to'kilib iflos qilmasa, agar iflos qiladurgon bo'lsa, makrux bo'ladi. Ba'zilar deganlarki, balki Rasululloh, sollallohu alayhi vasallam e'tikofda o'tirgan vaqtlarida masjidida bu voqea bo'lgan.*

123. Mug'iyra bin Shu'ba roziyallohu anhu dedilar: Bir kecha men Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan mehmon bo'ldim. U kecha u zot huzurlariga qovurg'a go'sht kabobini keltirdilar. Janob qo'llariga pichoq olib, undan menga kesib berib turdilar. Shu holda Bilol kelib, namoz vaqti bo'lib koldi, deb xabar qildilar. U zot pichoqni tashlab dedilar: Bilolning ikki qo'li tuproqqa belansin. Unga nima bo'ldi, bu vaqtda xabar berib qoldi. U vaqtda Mug'iyraning mo'ylovlari o'sib qolgan edi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ul zotga dedilar: muylovingni misvokka qo'yib turib, kesib qo'yarman yo o'zing misvokka qo'yib kesib ol.

*I z o h l a r: 1. Mug'iyra Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga mehmon edilar. Janob o'zlari boshqa yerga chaqirilgan edilar. Bu zotni ham barobar olib ketdilar. Chunonchi, ulug'lar, muxiblar va xodimlari bilan bir yerga borsalar vaqt ta'ajjub emas, balki joizdir.*

*2. Bu xadisdan go'shtni pichoq bilan kesib yemoq joizligi ma'lum bo'ladi. Ba'zi hadislardan go'shtga pichoq ishlatmoq man' qilinganligi sobit bo'lgan. Bundan murod pichoq bilan yemoqdir. Ammo pichoq bilan kesib, qo'l bilan yeyilsa, zarari yo'qdir. Bilolga degan so'z duoibad emas edi, balki bir nav tanbeh edi. Chunki namoz vaqtida sig'ilish bor edi, bir oz sabr qilsalar bo'lardi.*

*3. Bu hadisdan muylovni kesish haqida extimom zarur ekanligi ma'lum bo'ladi. Ulamolar, uni tarashlanadimi yo kesiladimi, degan masalada ixtilof qilganlar. Ammo afzali tarashlangandek kesish.*

124. Abu Xurayra roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam xizmatlariga qo'l (old oyoq) go'shti keltirildi va uning go'shtlik yeri u zotga berildi. Bu narsa Janobga ko'p marg'ub edi. Shuning uchun undan tanovul qildilar va tishlab yedilar.

125. Abdulloh bin Mas'ud roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasalamga qo'l gushti ko'p marg'ub edi. Bir kun qo'l go'shtiga (ya'ni, yaxudlar taraflaridan) zahar solib berishdi. Undin bir luqma yeb edilar, o'sha zaharlangan qo'l go'shti o'zi dedi: Yo Rasulalloh, menda zahar bor, yemasinlar. Yoki Jabroil alayhis-salom kelib u zotni ogoh qildilar. U zot qolganini yemadilar. Zahar u zotga o'sha soatda zarar qilmadi, lekin umrining oxirlarida shu zahar asaridan vafot etdilar. Toki Alloh Taolo u zotga nubuvvat ustida shahodat rutbasini ham ziyoda etsin, va Ibni Mas'ud dedilar: sahobalar u qo'lni yahudlar zaharlagan edilar, deb gumon qilardilar.

126. Abu Ubayd roziyallohu anhu dedilar: Bir kun men Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uchun bir qozon taom pishirdim. So'ng u zotga qo'l gushti marg'ub bo'lganligi sababidan qo'l go'shtidan uzatdim. Keyin dedilar: Yana uzat. Men dedim: Yo, Rasulalloh, bir qo'yda nechta qo'l bo'ladi? U zot dedilar: Jonim qo'lida bo'lgan Zotga qasamki, agar tek turib, menga itoat qilganingda edi, har bir talab qilganimda bir qo'l berib turar eding.

*I z o h. Bu voqea ustida Rasululloh sollallohu alayhi vasallam taraflaridan bir mo''jiza vujudga kelmoqchi edi, sahobaning so'zlari sabab bo'lib, to'xtab qoldi. Alloh Taolo karam qilsa, mo''jizalar bayoni uchun inshoolloh, mustaqil bir kitob yozmoq irodasi banda dilimda bor. Muvaffaq bo'la olsak, o'shanda bayon qilarmiz.*

127. Oisha roziyallohu anho dedilar: Qo'l go'shti haqiqatda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga hammadan ziyoda mahbub go'sht emas edi. Balki go'sht o'zi goho-goho pishirilar edi, va qo'l go'shti boshqa go'shtlardan tezroq pishib, tayyor bo'lar edi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shu sababdan, tezroq taomdan forig' bo'lib, o'z ishlariga mashg'ul bo'lmoq uchun uni tanovul qilmoqqa rog'ib bo'lar edilar.

128. Abdulloh bin Ja'far roziyallohu anhumo dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning bunday deganlarini eshitdim: orqa go'shti go'shtlarning yaxshirog'idir. Bu hadisdan ma'lum bo'ladiki, u zot goho bu go'shtdan ham tanovul qilgan ekanlar.

129. Ummu Honi' roziyallohu anho dedilar: (Makka fath qilingan kunlarda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam mening uyimga kelib qoldilar, dedilarki: Uyingda yeyiladigan xech bir narsa bormi? Men aytdim: Yo Rasulalloh, qotgan non va sirkadan boshqa xech narsa yo'q. Ularni keltir, dedilar, qaysi uyda sirka bor bo'lsa, o'sha uyda nonxurush yo'q deb bo'lmas.

*I z o h. Allohu akbar. Payg'ambar hayoti sodda xayot edi. Na unda takalluf bor va na unda yo'qni yo'ndirish bor. Koshki zamonamiz musulmonlari - bizlar, o'z raxbarimiz va o'z peshvomizdan shunday oson va yengil hayot kechirishni ta'lim olsak, qolgan umrimizni u zotga ergashish bilan o'tkazsak.*

130. Anas roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Saridning fazilati boshqa taomlarga nisbatan qanday bo'lsa, Oisha roziyallohu anhoning fazilatlar ham boshqa ayollarga nisbatan shunday.

*I z o h. Go'shtlik sho'rvaga non to'g'ralsa, uni Sarid deyiladi, unda komil rizolik bor, lazzati va quvvati ortiq deganlar. Hatto qarilarni yosh qiladi, deyilgan.*

131. Abu Hurayra roziyallohu anhu dedilar: Bir bor Rasululloh sollallohu alayhi vasallam pishloq yeb, tahoratlarini yangi qildilar. Yana bir bor, qo'y kiftidan yeb, tahoratlarini yangi qilmay, namoz o'qidilar.

*I z o h. Ulamolar deganlarki, avvali Islomda o'tda pishirilgan narsa yeyilganda, tahorat sinar edi, keyin bu hukm mansux bo'ldi. Pishloq yeb tahorat qilgan zamonlari mazkur hukm bor davr edi. Keyin, go'sht yeb, tahorat qilmay namoz o'qigan zamonlari esa bu hukm mansux bo'lgan davrda bo'lgan.*

132. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam onamiz Safiyya roziyallohu anxonining to'ylarini xurmodan va talqondan qilib berdilar.

*I z o h. Safiyya onamiz Xorun alayhis-salom avlodlaridan edilar. Hijratning yettinchi yilida Xaybar g'azotida asir tushgan edilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam u zotni ozod qildilar va o'z nikohlariga oldilar, va safar ustida to'ylarini ham qilib berdilar. O'sha soatlarda nima mavjud bo'lgan bo'lsa, o'sha bilan to'y kilib berganlar.*

133. Salmo roziyallohu anxu (bu zot Abu Rofi' roziyallohu anhu Rasulullohu alayhi vasallamning xotinlarining xodimi, payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning xodimalari va oshpazlari Rasulullohning o'g'illari Ibrohimning doyalari) rivoyat qiladi: bu zotning qoshlariga imom Hasan va Abdulloh ibn Abbos va ibn Ja'far roziyallohu anhum

keldilar. Ey, Salmo, bizlar uchun Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga marg`ub va rag`bat bilan yeydigan bir taomlarini pishirib bering, dedilar. Salmo aytdilar: Ey o`g`ilcham, bugungi kunlarda u taomni orzu qilib o`tirma - u taom yuqligida, nochorlikda yeyiladigan taom edi. Imom Hasan dedilar: Ha, biz uni orzu qilurmiz. Keyin Salmo turdilar. Bir oz arpa olib, uni tegirmon qildilar. Keyin uni qozonga soldilar. Ustiga ozroq zaytun yog`idan quydilar va qoramurch, zira, quruq kashnich, zanjabinlarni tuyib soldilar. Pishgandan keyin olib kelib qo`ydilar, va dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga marg`ub taom mana shu edi, va shuni rag`bat bilan yer edilar.

134. Jobir bin Abdulloh roziyallohu anhu dedilar: Bir kun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bizning uyimizga marhamat qildilar. Biz u zot uchun qo`y so`ydik. Janob dedilar: guyo bularga bizning go`shtni yaxshi ko`rishimiz ma`lum ekan. Imom Termiziy aytdilar: Bu hadisda bir mustaqil voqea ham bor.

*I z o h. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning ularra aytgan so`zlari nihoyatda dildorlik va izhori xursandchilikdan edi. O`sha qissani inshoalloh, mo`jiza kitobida yozarmiz.*

135. Jobir roziyallohu anhu dedilar: Bir kun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uylaridan chiqib, bir ansoriy xotin uylariga kirdilar. Men ham u zotga hamrox edim. O`sha xotin Rasululloh sollallohu alayhi vasallam mexmondorchiliklari uchun qo`y so`ydilar. U zot undan tanovul qildilar, keyin bir xurmo tolasidan to`qilgan tovoqda yangi xurmo keltirdilar. Undan ham yedilar. Keyin peshin namozi uchun tahorat qildilar, namoz o`qidilar. Keyin yana o`sha xotin uylariga qaytib bordilar. U kishi avvalgi go`shtdan qolgan xissasini keltirib qo`ydilar. Sayyidi olam sollallohu alayhi vasallam undan ham tanovul qildilar. Keyin boshqa taxorat qilmay, asr namozini o`qidilar.

*I z o h. Bu hadisda ustma-ust yemoqning joizligi ma`lum bo`ladi. Bashartiki, badxazmlik xavfi bo`lmasa. Agar xavfi bo`lsa, tibb qoidasicha, zarar qiladi.*

136. Ummu Munzir roziyallohu anho dedilar: Bir kun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam mening uyimga marhamat kildilar. Ali roziyallohu anhu ham birga hamroh edilar. Uyimizda shoxlari bilan uzib osib qo`yilgan xom xurmo boshlari bor edi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o`sha bosh xurmoldan pishganlarinn terib olib yedilar. Ali ham barobar yedi. Shunda u zot sollallohu alayhi vasallam Aliga qarab, bas, endi yemagil, sen bemorlikdan yangi bosh ko`targansan, dedilar. Ali bas qildilar. Janob esa yana yedilar, keyin men bular uchun biroz silk (tok novdalaridagi usiq bargalar) va arpadan murakkab taom tayyorladim. Sayyidi olam sollallohu alayhi vasallam Aliga dedilar: Mana bu taomdan tanovul qil, senga nihoyatda muvofiq kelgay.

*I z o h. Bu hadisdan ma`lum bo`ladiki, sabablarning rioyasi tavakkulga muxolif emasdir.*

137. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam mening qoshimga kelib, "uyingda yemak uchun biror narsa bormi", deb so`rar edilar. Men «yo`q» deb javob bersam, "men bugun ro`zadorman", deb qo`yar edilar. Bir kun kelib so`radilar. Men dedim: Yo Rasulalloh, bizga bir yerdan xadya kelgan. U zot so`radilar: Nima hadya? Men dedim: Xurmo, yog` va pishloqdan bo`lgan holva. U zot dedilar: Men bugun tongda nafl ro`za niyat qilgan edim. Keyin ul holvadin tanovul qildilar.

*Foyda:* Bu hadisdan tushunarli buladiki; nafl ruza uchun kunduz niyat kilsa ham bulur. Imom A'zam va imom Sho-fi'i, Raximaxumallohu mazxablari shuldur: imom Molik mazxablarvda nafl ruza uchun ham kechkurun niyat darkordir. Ikkinchi, nafl ruza buzilsa ham bulur, lekin Xaanafiy maz-xabida tsazosi vojibdur.

138. Yusuf bin Abdulloh bin Salom roziyallohu anhu dedilar: Bir kun men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni ko'rdim, u zot bir burda non, arpa nonidan qo'llariga oldilar. Ustiga bir dona xurmo qo'yib dedilar, buning nonxurushi budir. Keyin auni tanovul qildilar.

139. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga qozon tagida yo tovoq tagida qolgan taom nihoyatda marg'ub edi.

*I z o h. Bu hadis va yuqoridagi hadisning Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning Dunyo maishatiga extimomlarining nihoyatda kam bo'lganligi va tavoze' xokisorliklarining bamisol ekanligi ma'lum bo'ladi. Sollallohu alayhi vasallam.*

### **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING TAOM TEPASIDA TAHORAT OLISHLARI HAQIDA BAYON QILINADI**

140. Ibn Abbas roziyallohu anhumo dedilar: Bir kun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam hojatxonadan chiqdilar. Huzurlariga taom hozir qilindi va tahorat uchun suv keltiraylikmi, deb so'raldi. U zot marhamat qildidarki, "Haqiqatda men namoz uchun turmoqchi bo'lsam, o'sha vaqtdagina tahorat olmoqqa buyurilganman.

141. Salmon Forsiy roziyallohu anhu dedilar: Men Tavrotida "taomning barakasi, orqasidan qo'l yuvishdadir" deb o'qidim. Bu masalani Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga aytdim. U zot marhamat kildilar: Taomning barokatlik bo'lishi undan avval va undan keyin qo'l yuvishdadir.

*I z o h. Vudu'dan murod avvalgi hadisda istiloxi namoz tahoratidir. Ikkinchi hadisda, qo'l va og'iz yuvmoqning o'zidir. Avvalgi hadisdan namoz tahoratining taom ustida zarur emasligi, faqat qo'l va og'izni yuvib qo'yilsa, kifoya ekanligi ma'lum bo'ladi. Ikkinchi hadisdan taomdan avval va keyin qo'l yuvmoqning matlubligi, mustahabligi tushuniladi.*

*Ulamolar aytganlarki, taomdan avval qo'l yuvilganda bo'ladigan barakat shuki, qo'l yuvib yeyilgan taom ziyoda bo'ladi, hammaga kifoyali bo'ladi, yeguvchilarning qorinlari to'yib, taomdan keyingi bo'ladigan barokat shuki, nima maqsad va nima g'araz uchun bu taom yeyilib turilgan bo'lsa, o'sha maqsad inshoollo, hosil bo'ladi. Taomning o'zi yaxshi hazm bo'ladi. Badanga qo'shilib, g'ayrat paydo bo'ladi. Ibodatlarga va yaxshi axloqlarga sabab bo'ladi.*

### **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING TAOMDAN AVVAL VA KEYIN O'QIYDIGAN ZIKR VA DUOLARILARI HAQIDA BAYON QILINADI**

Ya'ni taomning avvali va oxirida Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan sobit bulgan lafzlar va duolarni zikr etilur.

142. Abu Ayyub Ansoriy roziyallohu anhu dedilar: Bir kun bizlar Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlarida edik. U zot huzurlariga taom xozir qilindi. Men o'sha kungi taom kabi avvalida, ya'ni yemak boshlaganimizda nihoyatda, buyuk barakatli va oxirida, nihoyatda kam barakatli taomni ko'rmagan edim. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga "bu nechun?" deb savol qildik. U zot dedilar: "Bizlar yeyishni boshlaganimizda Allohning nomini zikr qildik, va "bismillah" dedik, keyin kelgan odam "bismillah" demay, yeya boshladi. Bas shayton u bilan birga yeyishga o'tirdi. Shuning uchun taomdan barokat qochdi.

*I z o h. Shayton ham bir maxluqdir, yemak va ichmak sifatlari bilan sifatlanadi. Bu haqiqat. Tushuntirishga hojat yo'qdir. Taom yeguvchi tanho bismilloh deb ham qo'ysa bo'ladi, lekin bismillahir-rahmonir-rahim afzaldir. Ulamolar deganlarki: bismillohni baland ovoz bilan aytilsin, toki demaganlar desinlar. "Bismillah" demak sunnati ayniyadir, kifoya emasdir.*

143. Oisha roziyallohu anhodan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Qachon sizlardan biringiz taom avvalida BISMILLOHNI unutib qo'ysa, xotiriga tushgan zamon BISMILLOHI AVVALAHU VA OXIRAHU desin. Ya'ni, avvalida ham va oxirida ham xudo nomini tilga oldim.

144. Umar bin Abi Salama Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga kirdi. U zot qoshlarida taom mavjud edi. Dedilar: Yaqin kel, ey o'g'ilcham, va BISMILLOH degin va o'ng qo'ling bilan yegin. Hamda o'z oldingdan yegin.

*I z o h. Umar bin Abi Salama Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning o'gay o'g'illaridirlar. Bu hadisdagi odoblar hammasi sunnatdur. Taom yeganda avval BISMILLOHIR RAHMONIR RAHIM deyilsin va keyin o'ng qo'l bilan tanovul qilinsin, va o'z oldidan olsin. Ba'zi ulamolarning qavllaricha, o'ng qo'l bilan yemoq vojibdir.*

145. Abu Sa'id Xudriy roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qachon taomlaridan forig' bo'lsalar, bu duoni o'qir edilar. «ALHAMDU LILLOHI ALLAZIY AT'AMANA VA SOQONA VA JA'ALANA MINAL-MUSLIMIN» (Tarjimasi: Hamd ul xudogaki, bizlarga taom berdi va suv berdi va bizlarni musulmonlardan qildi).

146. Abu Umoma roziyallohu anhumo dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qachon xuzurlaridan dasturxon ko'tarilsa, bu duoni o'qir edilar: «ALHAMDU LILLOHI HAMDAN KASIRON TOYYIBAN MUBORAKAN FIYHI, G'AYRA MUVADDA'AN VALO MUSTAG'NAN ANHU RABBANO» (Tarjimasi: Hamma hamd Alloh Taologa xosdur. U shunday hamdki, nihoyasi yo'qdir, pokdur, barokatlidir. Shunday hamdki, na uni qo'yib bo'lur va na undan bexojat bo'linur. Ey, rabbimiz, shukrimizni qabul ayla).

147. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bir taomni (olti nafar sahoba bilan tanovul qilib turib edilar. Nogahon bir badaviy kelib qoldi. Qolgan taomning hammasini ikki luqma qilib, tugatib qo'ydi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Agar bu odam BISMILLOH deb boshlaganda edi, bu taom hammalaringizga kifoya qilur edi. (Ya'ni, avval BISMILLOH deyilgan edi, oxirida bir kishining BISMILLOH demay boshlashidan shayton taomga sherik bo'ldi, keyin undan barokat uchdi.)

148. Anas roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Alloh Taolo bandaning mana bu ishidan nihoyatda xush bo'lgay: u bir luqma taom yeydi va uning uchun Allohga hamd aytadi, yo bir qultum suv ichadi va uning uchun Allohga hamd aytadi. ALLOHUMMA LAKA-L-HAMDU LA NUXSI SANO'AN ALAYK.

### **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING SUV ICHADIGAN PIYOLALARI HAQIDA BAYON QILINADI**

149. Sobit Bunoniy dedilar: Anas roziyallohu anhu bir kun bizlarga bir yo'g'on va temir bilan qadoq qilingan yog'och piyolani olib chiqib ko'rsatib dedilar: bu piyola Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning suv ichadigan piyolalari edi.

*I z o h. Ulamolar dedilar: bu piyola Anasning o'g'illari Nazor o'lganlarida meroslarining qatorida bor edi. U sakkiz yuz ming tangaga sotildi. Imom Buxoriy o'sha piyolada suv ichgan ekanlar.*

150. Anas roziyallohu anhu dedilar: Men bu piyola bilan Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga ichimlik narsalarning hammasini, ya'ni, suvni, nabizni, asalni va sutni ichirdim.

*I z o h. Arablar xurmo, kishmish va boshqa narsalarni suvga ivitib qo'yilsa, nabiz deydilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uchun ham ba'zi kechalarda xurmo va boshqa narsalarni ivitib qo'yilar edi. Tong otgach, uni ichar edilar.*

### **BU BOBDA JANOBI RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAM QAYSI MEVALARNI TANOVUL QILGANLIKLARI HAQIDA BAYON QILINADI**

151. Abdulloh bin Ja'far roziyallohu anhumo dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bodringni yangi xo'l xurmo bilan qo'shib yer edilar.

*I z o h. Bodring mijozi sovuqdir, xurmo mijozi issiq. Agar har ikkisini qo'shib yeyilsa, mo'tadil va foydali bir taom yeyilgan bo'ladi. Bodring qovuq dardiga manfaat bo'ladi. Yangi xurmo jinsiy quvvatni oshiradi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bir qo'llariga bodring va bir qo'llariga yangi xurmoni ushlab turib, bir bor bundan, ikkinchi bor undan tanovul qilar edilar.*

152. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qovun bilan yangi xurmoni qo'shib yer edilar.

153. Abu Hurayra roziyallohu anhu dedilar: Odamlar qachon daraxtlari meva qilsa va avvalini ko'rsalar, uni Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga tuxfa qilar edilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bu tuxfani qo'llariga olib turib, duo qilar edilar: "Ey, Alloh, bizning mevalarimizga barokat ato qil, va bizning shaxrimizga barokat ato qil, va bizning sog'imizga va muddayimizga barokat ato qil. Ey Alloh, Ibrohim sening xos bandang va xaliling va nabiying edilar. Men ham sening bandang va nabiyingdurman. Ibrohim Makka uchun Senga duo qildilar va men Madina haqida Senga duo qilurman, ul zot Makka uchun talab qilgan narsani bir barobarin va yana bir barobarin ato qil". Keyin kaysi bir yosh bolani ko'rsalar, uni chaqirib, o'sha yangi mevani uning qo'lga berardilar.

Chunki insonlarning ulugʻlari bir narsa hammaga muyassar boʻladigan darajada serob boʻlmasa, uni tanovuliga dillari moyil boʻlmaydi.

154. Rubayy' roziyallohu anho dedilar: Bir kun mening amakim Maoz bin Afro'a roziyallohu anhu bir tovoqqa yangi xurmo solib, ustiga mayda tukli yangi bodringlardan qo'yib, mening qo'limdan Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga yubordilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bodringni yaxshi ko'rar edilar. Men o'sha tovoqni olib, huzurlariga xozir bo'ldim. Ittifoqo, o'sha vaqtda u zotning qoshlarida Baxrayndan kelgan xirojdan bir muncha taqinchoqlar bor ekan. Undan bir kaft to'ldirib, menga marhamat kildilar.

*I z o h. Bu hadisni rivoyat qiluvchi zot, islomning buyuk dushmani Abu Jahlni o'ldirgan ikki yosh sahobadan birlarining qizlaridir. U mal'unni bu qizning otalari Mu'avviz bilan amakilari Ma'oz ikkalalari o'ldirganlar.*

*I z o h. Ulamolar deganlarki, xurmo bilan bodringni qo'shib yeyilsa, ozg'in odam semiradi, chunonchi onamiz Oisha roziyallohu anho dedilar: "Meni Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga qovushmoq uchun topshirar vaqtlarida onam ozg'inligim haqida o'ylab, debdilarki, qizim bir oz semirsa va badaniga badan qo'shilsa yaxshi bulardi, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam xizmatlariga yarab qolur edi. Bu xayolni qilib, orqasidan menga yangi xurmo bilan bodring yedira boshlabdilar. Alhamdu lilloh undan mening badanimga badan qo'shilib, o'zim bir oz semirib ham qoldim".*

## **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING ICHADIGAN NARSALARI VA ICHISHLARI HAQINDA BAYON QILINADI**

155. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga ichimliklar ichida hammadan mahbubrog'i o'zi shirin va sovuq bo'lgan narsa edi.

*I z o h. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam taom haqida nihyatda betakalluf bo'lsalar ham ichimlik xaqida sovuq va shirin suvni yaxshi ko'rar edilar. Shuning uchun Madinadan necha mil uzoq saqyodan u zot uchun xos suv keltirilar edi. Bu yerdagi sovuq shirin sharobdan murod, ivitib qo'yilgan xurmo yo mayiz bo'lsa ham bo'lar, yo asal sharbati bo'lsa ham bo'lar, yo to'g'ri shirin muzdek suv bo'lsa ham bo'lar. Ichiladigan suvda sovuqlik va shirinlik sifati jam bo'lsa, sixatni muxofaza qiladi. Dil va jigarga nihoyatda foyda qiladi.*

156. Ibn Abbas roziyallohu anhumo dedilar: Bir kun men va Xolid ibn Valid ikkimiz Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan Ummul mu'minin Maymuna roziyallohu anho xonalariga kirdik. (Bu volidamiz bu ul ikki zotning holalari bo'ladilar). Onamiz bir idishda sut olib keldilar. Sayyidi olam sollallohu alayhi vasallam undan ichdilar. Men o'ng taraflarida edim. Xolid chap taraflarida edi. U zot dedilar: Ey, Abdulloh, xozir ichmoq sening haqingdir, chunki o'ngda o'tiribsan, lekin Xolidga o'z haqingni kechib bersang, ixtiyoring bor. Men aytdim: Yo Rasulalloh, o'zlaridan nasib bo'lgan sarqit davlatini xech kimga bermasman. Keyin u zot dedilar: Har kimga Alloh Taolo bir qism taom nasib qilsa, keyin hamd aytsin: "Yo Alloh, bu bergan rizqingni bizlar uchun muborak qilgin va bundan ham yaxshirog'ini ato qilgin" va har kimga Alloh Taolo sut ne'matini nasib qilsa, desin: "Yo Alloh, bu sut ne'matini bizlar uchun muborak qilgin va bu ne'matdan bizlarga

ko'proq bergil". Keyin Janob dedilar: "Dunyoda xech bir ne'mat ham taom, ham sharob bo'la olmaydi. Magar sut shunday ne'matki, inson uchun ham taomdir, ham sharobdir.

157. Ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam zam-zam sharifdan tikka turgan hollarida ichdilar.

158. Abdulloh bin Umar roziyallohu anhumo dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni men ko'rganmanki, tikka turib ham va o'tirib ham ichar edilar.

*I z o h. Ulamolar dedilar: Zam-zam sharifni tikka turib ichmoqlik afzaldir. Tikka turib ichmak xilof uvlodur.*

159. Nazzol bin Sabra dedilar: Ali roziyallohu anhu bir kun Kufa masjidining maydonida, ya'ni o'z doril-xukmlarida edilar. Bir ko'zachada suv xizmatlariga keltirildi. O'sha suvdan bir kaft oldilar. Uning bilan ikki qo'llarini yuvdilar, va og'iz burunlarini chaydilar. Yuzlariga va ikki bilaklariga, boshlariga masx tortdilar. Keyin tikka turgan hollarida suvdan ichdilar. Va dedilar: Bu tahorati bor odamning tahoratidir. Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning shunday qilganlarini ko'rganman.

*I z o h. Ulamolar deganlar: Bu rivoyatdagi masxdan murod, yengil yuvmoqdir. Bu rivoyatda oyoq zikri bo'lmasa ham, boshqa bir rivoyatda kelgandir. Bundan maqsad, yangidan tahorat olishdir. Bu hadisda taxorat qilib bo'lgandan keyin qolgan suvdan tikka turib ichmoqning joizligi ma'lum bo'ladi. Fiqh kitoblarida zam-zamni va tahoratdan oshib qolgan suvlarni tikka turib ichishning joizligi aniq qilib yozilgandir. Balki, alloma Ibn Obidiyn taxorat suvini turib ichish bemorliklar uchun mujarrab shifo ekanligini ba'zi akobirdan naql etganlar. Ali Qoriy sharxi-shamoyilda mustahab deganlar.*

160. Anas bin Molik roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning odati shariflari qachon suv ichsalar, idish qo'llarida turib, uch bor dam olar edilar, va derdilarki: Bu tariqa ichmakdan suv badanga yaxshi boradi va lazzatli bo'ladi va tashnalikni mukammal daf qiladi. Ulamolar deganlarki: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qachon suv kosasini qo'llariga olsalar, bir ichib, kosani uzoq qilib turib, «ALHAMDULILLAH» der edilar. Shul tariqada uch bo'lib ichar edilar. Har daf'a avvalida BISMILLOH va oxirida ALHAMDULILLAH der edilar.

161. Ibn Abbos roziyallohu anhumo dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam suv ichsalar, ikki bor dam olur edilar. Ya'ni, ba'zi vaqt shunday bo'lardiki, aksari vaqt uch dam bilan ichar edilar. Bir dam bilan ichmas edilar.

162. Kabsha roziyallohu anhu dedilar; Bir kun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam mening uyimga tashrif qildilar. Uyda bir meshda suv bor edi, osig'liq turgan edi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o'sha mesh og'zidan tikka turib, suv ichdilar. Keyin men turib, meshning og'zini kesib olib qo'ydim.

*I z o h. Ulamolar meshning og'zini kesib olganliklariga ikki sabab bayon qilganlar: biri, tabarruk qasdida, ikkinchisi, boshqaning og'zi tegib, beadablik bo'lmasin andishasi bilan.*

## **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING XUSHBO'Y ISTE'MOL QILISHLARI HAQIDA BAYON QILINADI**

163. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bir necha yaxshi isli narsalardan jam qilingan xushbo'yliklari bor edi, yoki xushbuyliklarni solib qo'yadigan bir idishlari bor edi. Qachon xushbuylik ishlatmoqchi bo'lsalar, undan iste'mol qilar edilar.

164. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam odat shariflari bir kishi xushbuylik xadya qilsa, rad qilmas edilar.

165. Ibn Umar roziyallohu anhumodan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Uch narsa qaytarilmasin: birinchi, suyanadigan yo boshga qo'yiladigan bolish kabi narsalarni. Ikkinchidan, xushbo'y aralashtirilgan yog'ni, uchinchi, sutni.

166. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Erlarga munosib xushbuy shunday narsaki, isi o'tkir va ma'lum bo'lib, o'zi maxfiy bo'lsin, masalan, gulob kabi narsalar. Ayollarga munosib xushbo'y shuki, rangi ma'lum, isi maxfiy bo'lsin, masalan, za'faron va xino kabi narsalar.

167. Abu Usmon Naxdiy dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan rivoyat: Qachon sizlardan bir kishiga rayxon berilsa, uni qaytarmasin, chunki rayhon jannatdan chiqqandir.

*I z o h. Rayxondan murod shul, hammaga ma'lum rayxondir, yoki mutloq xushbo'ylikdir.*

*I z o h. Abu Usmon Naxdiy Yamanning Bani Naxd degan bir qabilasiga mansub bo'lib, nomlari Abdurahmondur. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam xayotlarida musulmon bo'lgandilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan ko'rishmagandilar. Yuqoridagi hadisni sahobalarning birlaridan rivoyat etgandilar. Shuning uchun bu hadisni murassal deyiladi.*

## **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING XULQ BILAN SO'Z QILISHLARI HAQINDA BAYON QILINADI**

168. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning so'zlari sizlarning so'zlaringiz kabi paydar-pay va tez-tez bo'lmas edi. Balki, sof-sof, har jumalari bir-biridin alohida va ravshan bo'lardi. Majlislarida bor odam so'zlarini tushunib, yod ham qilib olar edi.

169. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ba'zi vaqtlarda uch bor bir so'zni takror qilar edilar. Ya'ni, mazmuni mushkul bo'lgan so'zni xalq yaxshi tushunsin deb, uch marta qaytarib aytardilar.

170. Imom Hasan ibn Ali roziyallohu anhumo dedilar: Men uz tog'am Xind bin Abi Hola roziyallohu anhudan savol qildim: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qanday so'zlar edilar? Menga bayon qiling. Tog'am dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam doim oxirat g'amiga mashg'ul edilar. Hamisha ummat fikrida bo'lardilar. Shuning uchun u zotda orom va rohat degan narsa bo'lmas edi. Aksari, xomush yurar edilar. Hojati yo'q so'zlarni gapirmas edilar, va so'zlarini xudo nomi bilan boshlab, xudo nomi bilan tamom qilar edilar. So'zlasalar, butun og'izlari bilan so'zlar edilar. Lablarining uchi bilan so'zlab

qo'ya qolmas edilar. So'zlarining lafzlari oz, ma'nolari ko'p bo'lar edi. So'zlari bir-biridan ajralgan bo'lar edi. Na unda xojatdan ziyoda alfoz va na kamchilik bo'lar edi. O'zlari tez mijoz va boshqani xor qiladurgan zot emas edilar. Ne'mat qanchalik haqir bo'lsin, uni xurmat qilar edilar. Uni yomon demas edilar. Misol uchun, bir taomni na mazammam va na madh qilar edilar. Dunyo yo dunyoviy narsalar uchun hargiz g'azablari kelmas edi. Ya'ni, dunyoni xech bir narsa sanamas edilar, balki, qachon bir kishi haqdan tajovuz qilsa, u holda g'azablarini xech bir narsa bosolmas edi. Undan intiqom olmay qo'ymas edilar. O'z jonlari uchun bir kishidan xafa ham bo'lmas edilar va intiqom ham olmas edilar. Qachon bir tarafga ishora qilmoqchi bo'lsalar, barmoqlari bilan emas, balki, butun kaftlari bilan ishora qilar edilar. Qachon bir narsadan taajjub qilsalar, kaftlarining orqasini ko'rsatar edilar. Qachon so'z qilsalar, goho-goho kaftlarini qimirlatar edilar. Goho o'ng kaftlarini chap (bosh barmoqlarining ichiga urar edilar va qachon g'azablari kelsa, yuzlarini o'girar va beilifotlik ko'rsatar edilar yo afv etar edilar. Qachon xush bo'lsalar, xayodan muborak ko'zlarin yumgan kabi ko'rinur edilar. Aksari, kulishlari beovoz, tabassum edi. Kulsalar muborak tishlarining donalari dur kabi oq va jilvalik ko'rinar edi. Sollallohu alayhi vasallam.

### **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING KULISHLARI HAQIDA BAYON QILINADI**

171. Jobir roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak soqlari bir oz ingichka edi va kulishlari tabassumning o'zi edi, va men qachon nazar qilsam, der edimki: u zot surma qo'ygandilar. Holbuki, surma qo'ymagan bo'lar edilar.

172. Abdulloh ibn Horis roziyallohu anhu dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan ziyoda tabassum qiladigan bir zotni ko'rmadim. Ya'ni, kulishlaridan tabassumlari ziyoda edi, yoki o'zlari naqadar g'amda bo'lsalar ham, sahobalarga tabassum bilan muloqot etar edilar.

173. Abu Zar roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Men hammadan avval jannatga kiradigan va odamniki, hammadan oxirida jaxannamdin chiqadigan odamni yaxshi bilurman. Kiyomat kuni bir odamni Alloh huzuriga xozir qilinadi va deyiladiki, bu odamning kichik-kichik gunohlarini o'ziga ko'rsatilsin va katta-katta gunoxlari maxfiy saqlansin. Keyin unga deyiladi, sen falon kunda, falon-falon gunoxlarni qilgansan. Ul bechora hammasiga iqror bo'ladi, inkor eta olmaydi. Chunki ul maqomda hech narsani inkor qilib uddasidan chiqib bo'lmas. Katta-katta gunoxlardan so'ralib qolsa, holi nechuk bo'lishini o'ylab, dilida nihoyatda qo'rqib turadi. Shunday holda turganda Alloh tarafidan amr keladiki, buning bu qilgan yomonliklarining muqobiliga bir-bir yaxshilik berilsin. Bu xukmni eshitgan zamon u bechora deydi: "Hali mening bir muncha gunoxlarim bor, ularni men bu yerda ko'rmay turibman". Abu Zar dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni ko'rdim. Bu so'zni deb shunday kuldilarki, oxiri muborak tishlari ham ko'rindi.

174. Jarir ibn Abdulloh roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam men musulmon bo'lgan kundan boshlab, meni uylariga kirishdan man' etmadilar va meni qachon ko'rsalar, albatta, tabassum qilar edilar, chunki Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bu zotni ko'rsalar, xushnud bo'lar edilar. Bu zot to'qqizinchi hijriyda musulmon bo'ulgan edilar. Bu zot haqlarida Umar roziyallohu anhu "Jarir ummati islomiyaning Yusufidir", deganlar.

175. Abdulloh bin Mas'ud roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Men hammadan keyin duzaxdan chiqadigan odamni yaxshi taniyman. U do'zaxdan dumbasi bilan sudralib chiqadi. Unga deyiladiki, bor jannatga kirgin, u jannatga kirmoq uchun boradi. Lekin kuradiki, odamlar hammalari o'z joylarini egallab, joylanib bo'libdilar. Qaytib borib, arz qiladi: Yo, rabbiy, odamlar o'z joylarini olib bo'libdilar. Unga deyiladi, dunyoda o'zing o'tgan zamon xotiringda bormi? Keyin Alloh taolo, ey bandam, orzu qil va nimani talab qilmoqchi bo'lsang, qil. U orzu qiladi, keyin unga deyiladi, endi senga orzu qilgan narsalaringni va o'zing ko'rgan dunyoning o'n barobarini berilur. Bu so'zni eshitib, bechora deydiki; Ey, Xudo, podshohlar podshohi bo'lib turib, meni mashara kilasanmi? Ibni Mas'ud dedilar, Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni ko'rdim. Bu so'zni aytib turib, shunday kuldilarki, muborak tishlari ravshan ko'rindi.

176. Ali bin Rabi'a roziyallohu anhu dedilar: Men Ali roziyallohu anhu huzurlarida edim. U zotga minmoq uchun markab xozir qilindi. Uzangiga oyoqlarini qo'ygan zamon BISMILLOH dedilar, va markabga mingan soatlarida dedilar: ALHAMDULILLOH. Keyin dedilar: Subxona-l-laziy saxxara lano xazo va mo kunno laxu muqriniyna va inno ila Rabbino lamunqalibun. (Tarjimasi; Pokdur ul zotki, bizlarga bu jonivorni bo'ysundirdi va bizlarda buni minmak uchun toqat yo'q edi. Biz albatta, Parvardigorimiz xuzuriga qaytib borurmiz). Keyin uch bor dedilar: ALHAMDULILLOH. Va uch bor dedilar: ALLOHU AKBAR, SUBXANAKA INNIY ZOLAMTU FAG'FIRLIY FAINNAHU LAA YaG'FIRUZ-ZUNUBA ILLA ANTA. Keyin Ali roziyallohu anhu kuldilar: Men dedim: Yo amiral mu'minin na uchun kulurlar? U kishi dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni men degan narsalarni deganlarini ko'rganman, keyin kulgan edilar, men dedim: Yo, Rasulalloh, nima uchun kuldilar? Janob dedilar: , Qachonki bandasi: "Ey Parvardigorim, mening gunoxlarimni mag'firat qil" deb aytsa va bu so'zni aytayotgan vaqtida uning gunoxlarini Allohdan boshqa mag'firat qilguvchi hech bir zot yo'q, degan e'tiqodda bo'lsa, darhaqiqat Parvardigoring xushnud bo'lur.

177. Omir bin Sa'd dedilar: Sa'd roziyallohu anhu dedilar: Men Janob Rasululloh sallolloxu alayhi vasallamni Handaq g'azoti bo'lgan kunda ko'rdim. Shunday kuldilarki, muborak tishlari tamom ko'rildi. Men dedim: nima uchun kulib edilar? Sa'd dedilar: Bir odam bor edi, o'zi kofirlardan bo'lib, qo'lida separ bor edi va Sa'd o'q otishga mohir edi. U kofir Sa'd o'qidan o'zini saqlab qolmoq uchun o'ngga va so'lga o'zini olar va yuzini separi bilan yashirur edi. Sa'd o'qdonidan bir o'q chiqarib, poylab turdi. Vaqtiki, u kofir boshini separidan alohida qilgan edi, o'sha soat unga qarab o'q uzdi. O'q borib, uning peshonasiga tegdi. Filhol ag'darilib yiqildi va oyog'ini ko'tarib yubordi. Bu holni ko'rib, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday kuldilarki, muborak tishlari tamom ko'rildi. Man Sa'dga dedim: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam nimaga kuldilar? Sa'd dedi: Sa'dning u kofirga qilgan hunaridan.

## **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING HAZILLARI HAQIDA BAYON QILINADI**

178. Anas roziyallohu anhudan rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ul zotni bir kun: «Ey, ikki qulog'lik» deb chaqiribdilar.

179. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam biz bilan hazil-mutoiba qilar edilar. Hatto bir kun mening bir kichik ukamga boqib dedilar: Ey, Abu Umayr, nima kildi Nug'ayr?

*I z o h. Anas dedilar: Mening ukamning kichkina bir qushchasi bor edi. Uni boqib, u bilan o'ynab, yupanar edi. Ittifoqo, u qushcha o'lib qoldi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uning o'lganligini bilib turib, bolaga dildorlik qilib, qushchaga nima bo'ldi, dedilar. Bu kamoli iltifotlari edi. Ulamolar deganlarki, bu muxtasar, oz iltifotlik bir hadisdan fukoholar yuz adad masala aytganlar. Jonlar fido bo'lsin, shunday bir mahbubgaki, bir hazil jumlaridini yuzlar diniy masala vujudga kelur. Sollallohu alayhi vasallam. «Hayotul xayvon» sohibi Nug'ayrni bulbul deganlar.*

180. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat: sahobalar dedilar: Yo, Rasulalloh, Siz bizlar bilan hazil qilasiz, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Ha. Men hazil qilaman, lekin haqdan boshqa bir so'zni aytmayman.

181. Anas roziyallohu anhu dedilar: Bir kishi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga kelib, minish uchun bir jonivor talab qildi. U zot sollallohu alayhi vasallam dedilar: Men seni urg'ochi tuyaning bolasiga mindirmoqchiman. U odam dedi: Men urg'ochi tuya bolasini nima qilaman? Janob dedilar: Bu hamma tuyalarni urg'ochi tuya tug'may, nima tug'adi?

182. Anas roziyallohu anhu dedilar: Sahroliklardan bir odam bor edi Nomi Zohir edi. Saxrodan Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga xadya keltirar edi, va qachon o'z axliga qaytib bormofchi bo'lsa, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam unga kerakli narsalarni hozir kildirib berar edilar. Bir kun dedilar: Zoxir bizning saxromizdir. Biz uning shaharliklarimiz, va u zot uni yaxshi ko'rar edilar va u odam shakli xunuk, kilig'i maxbub edi. Bir kun Rasululloh, sollallohu alayhi vasallam uning yoniga keldilar, va ul kishi bozorda o'z molini xalqqa sotib turgan edi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam orqa tarafdin kelib, uni quchoqladilar va u kishi bu zotni kurmay: "Bu kim, meni qo'yib yubor", der edi. Keyin orqasiga qarab, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni tanib qoldi. So'ng nima qilsalar turib berdi. Keyin sollallohu alayhi vasallam: "Kim bu qulni mendan sotib olur?" deb ovoz qilaverdilar. Ul kishi dedi: Yo Rasulalloh, bu mollari o'tmas mol ekan, endi bilurlar. Buni hech kim olmaydi". Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: "Bu mol xalqqa utmasa ham, Alloh huzurida o'tur", yoki "sen Alloh huzurida qimmatli moldirsan" dedilar.

183. Imom Hasan Basriy dedilar: Bir qari xotin Rasululloh sollallohu alayhi vasallam xuzurlariga kelib, savol qildi: Yo Rasulalloh, duo qilsinlarki, meni jannatga doxil qilsin. U zot marhamat qildilar. Ey, faloniy, jannatga kampir kirmas. Bu so'zni eshitgan zamon ul kampir yig'lab qaytib ketdi. Janob dedilar: sizlar unga xabar beringlarki, jannatga bu xotin kampirlik suratida kirmas, chunki Alloh Taolo Qur'on karimda derki, biz jannat ayollarini boshqatdan yangi shaklda yaraturmiz, va ularning hammalarini qiz yaraturmiz, va erlariga muxabbatli, yaxshi ko'rinadigan va hammalarining yoshlari barobar bo'lur.

## **BU BOBDA RASULULLOH SALLOLLOHU ALAYHI VASALLAMNING SHE'R HAQIDA AYTGAN SO'ZLARI USTIDA BAYON QILINADI**

184. Shurayx Kufiy dedilar: Oisha roziyallohu anhodan savol kilindiki, Yo Rasulalloh,

sollallohu alayhi vasallam she'rdan misol yo dalil keltirardilarmi? Oisha dedilar: Ha. Ibni Ravoxa she'ridan misol keltirar edilar, va bu so'zlarni dalili o'rnida o'qir edilar (tarjimasi): Keltirur senga xabarlarini ul odamiyki, sen anga xabar keltirmak uchun hadya va yul harji bermagan eding.

185. Abu Hurayra roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat qildilarki, shoir tilidan so'zlangan so'zning nihoyatda rosti va to'g'risi Labidning bu so'zidir: Dunyo xabardor bo'lsinki, Allohndan boshqa har bir narsa botil va bekordur, e'timodga loyiq emasdur. Va Umayya ibn Salt musulmon bulishga yaqin qolib edi, lekin Alloh xohlamadi.

186. Jundab bin Sufyon roziyallohu anhu dedilar: G'azotlarning birida Rasululloh sollallohu alayhi vasallam muborak oyoqlarining bir barmog'iga tosh tegdi. Undan muborak barmoqlari qonadi. Shu holda bir shoir sahobaning bu bir misrasini o'qidilar (tarjimasi): Ey, barmoq, sen qonga belangan barmoqdursan va nimaga yuliqqan bo'lsang, Alloh yo'lida yo'liqding.

187. Baro' bin Ozib roziyallohu anhudan rivoyat: Bir kishi u zotga dedi: Ey, Abu Umora, sizlar Xunayn kunida Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni tashlab qochdingizlarmi? Baro' dedilar: yo'q, qochmadik. Balki xudo nomiga qasamyod etib dermanki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam maydonidin yuz o'girib qochmadilar. Lekin avvalgi jamoadan shoshilganlar qocha boshladilar. Chunki, Bani Xavozin merganlari ularni o'qlar bilan qarshi oldilar. Ular qochib turganlarida, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam xachirlariga mingan hollarida va ammazodalari Abu Sufyon uning yuganidan tutgan holda bu lafzlarni o'qir edilar (tarjimasi): Men nabiiydurman so'zimda yolg'on yo'qdur. Men Abdul Mutallibning o'g'lidurman.

*I z o h. Bu urushda qochgan askarlar Bani Salim qabilasi bilan Makkada yangi musulmon bulgan yoshlar edilar. Sahobalarning akobirlari albatta, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam yonlarida hozir edilar.*

188. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Umrai qazoda Makkai mukarramaga kirdilar, va Abdulloh bin Ravoha roziyallohu anhu oldilarida bu she'rni o'qidilar (tarjimasi): Ey, kofirlar avlodlari, qochinglar, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga yo'l beringlar. Bu kun bu Janobni agar sizlar o'tgan sanada to'sgan kabi to'ssalar, bizlar shundoq ururmizki, boshlaringni tanalaringdan judo qilurmiz, va do'stni do'stidan xabar olgali qo'ymasmiz. Umar roziyallohu anhu bu she'rni eshitib dedilar: Ey, ibn Ravoxa, Rasululloh huzurlarida va Haramallohda bunday she'rlarni o'qiyapsanmi? Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Ey, Umar, buni o'z holiga qo'yib ber, bunday she'rlar kofirlarga o'q yog'dirgandan ziyoda ta'sir qilur.

189. Jobir bin Samura roziyallohu anhu dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan yuzdan ziyoda suhbatda bo'ldim. Hammasida ashobi kirom roziyallohu anhum o'z oralarida she'rlar o'qishar edilar, va johiliyat davrida bo'lib o'tgan hikoyalarni qilishar edilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam u majlislarda xomush so'z qilmay o'tirar edilar. Balki ba'zi vaqtlarda ularga qo'shib, kulishar edilar.

*I z o h. Bu hadisi muborakdan ma'lum bo'ladiki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam nihoyatda mahjub tabiatli bir zot edilar. Majlislarda bo'lgan zotlar ozodlik birla suhbatda*

*bo'lar edilar. Dunyoviy so'zlar ham bo'lar edi. Kulinadigan bir so'z kelib qolsa, barobar tabassum qilar edilar. Shuning uchun xech kim suxbatlariga to'ymas edi.*

190. Sharid roziyallohu anhu dedilar: Bir kuni men Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan bir markabga mingashgan edim. O'sha holda u zotga Umayya ismli shoirning she'rlaridan yuz bayt o'qib berdim. Har bir baytni o'qib berganimda, u zot yana shundan o'qi der edilar. Shunday qilib, Janobga yuz baytni eshittirdim. U zot dedilar: Bu Umayya yaqin musulmon bo'lay deb qolgan ekan. Chunki she'rlari xikmatli bo'lib, tavxiddan va qiyomatdan ko'p so'zlar edi.

191. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Hasson roziyallohu anhu uchun masjidga minbar qo'ydirib berar edilar. Toki ul zot minbarga chiqib, rost turib, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam madhlarida faxriya she'rlar o'qir edilar yoki u zot taraflaridan mudofaa qilar edilar, va kofirlar tarafidan bo'lmish ta'nalariga javob berar edilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam der edilarki: Alloh Taolo Xassonga ruxul Quds vositasi birla madad berur. Madomiki, ul Rasululloh tarafidin mudofaa va dinga madadda bo'lar ekan, bu hol unda bardavom bo'lgay.

## **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING KECHQURUNDA QILGAN HIKOYALARI HAQIDA BAYON QILINADI**

192. Oisha roziyallohu anho dedilar: Bir kecha Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o'z uylarida xotinlariga bir qissa bayon qildilar. Ayollaridan birlari dedilar: bu qissa xayratda va taajjubda tamom Xurofaning voqealariga o'xshar ekan. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Bilasizlarmi, Xurofa nima? Xurofa Bani Uzra jamoasidan bo'lgan bir kishi edi. Johiliyat zamonasida uni jinlar asir qilib olib ketgan edilar. U jinlar bilan bir necha muddat birga turdi, keyin ular o'zlari uni olib kelib, qo'yib ketdilar. Keyin u kishi jinlar orasida ko'rgan qiziq voqealarni so'zlab berar edi. Keyin odamlar uning so'zini eshitganlarida, bu so'z «Xurofa so'zi» der edilar. Shundan keyin, arablar orasida har bir qiziq so'zni Xurofa so'zi deyiladigan bo'ldi.

### **UMMU ZAR' HIKOYASI**

193. Oisha roziyallohu anho dedilar: Kunlarning birida o'n bir nafar xotin bir yerga jam bo'ldilar va hammalari o'z erlarining ahvolini to'laligicha bayon qilishni va hech bir so'zni yashirmaslikka ahd qildilar. Bu xotinlar hammalari Yaman xotinlari yo Hijoz xotinlari edilar. Nomlari aniq ma'lum emasdir.

Birinchilari dedi: Mening erim ishdan chiqqan, oriq tuyaning go'shtidir. Yana o'zi chiqishi qiyin bir tog'ning ustidadir. Tog' yo'li oson emaski, unga chiqilsa. Go'sht ham semiz mol go'shti emasdirki, uni ixtiyor qilinsa, va olib tushilsa, ya'ni, butun foydasiz bekor bir narsadur.

Ikkinchilari dedi: Men erim rozilarini bayon qilmasman. Qo'rqurmanki, agar uning ayblarini berkitmay so'zlab qolsam, "zohiriy" va "botiniy" ayblarining hech birini qo'ymay so'zlab tashlarman, ya'ni mening erimda bor ayblarni sanab bo'lmas, qaysi birini ham so'zlab o'tiray.

Uchinchilari dedi: Mening erim badxulq, bedavo uzundki, undan shikoyat qilsam, yo

o'ziga bir so'z qilib qolsam, taloq qilinurman. Agar so'z qilmay ketaversam, butun umrim muallaqa holda keturman, ya'ni, erliklar qatorlarida ham emasman, bevalar qatorida ham emasman.

To'rtinchilari dedi: Mening erim Tahoma iqlimining kechquruniga o'xshaydi. Na issiq va na sovuq. Na undan qurqilur va na undin zerikilur. Ya'ni, nihoyatda mijozi mo'tadildir. Issiqda salqindir va sovuqda issiqdir. Afv marhamati ko'pdir. Hech bir holda odamga malol kelmas.

*I z o h. Tahoma deb, Makkai mukarramani va atroflarini aytiladi.*

Beshinchilari dedi: Mening erim uyga kirsam, qoplon bo'lib kirur, uydan chiqsa sher bo'lib chiqur. Uydagi o'ziga ma'lum narsalar xasida taftish qilib o'tirmas, ya'ni ko'chadan kelsa, qoplon kabi o'z ahlini sog'inib keladi va ko'chaga chiqsa yo'lbarsdek olijanob yuradi. O'zi u qadar himmatlik, karim insondirki, bo'lar-bo'lmas narsalar ustida oilasi bilan janjal qilib, pastlik qilib o'tirmaydi.

Oltinchilari dedi: Mening erim taom yesa, dasturxonda bor narsani hammasin yeb tugatadi va suv ichsa, idish ostida qolgan suvni ham ichib xalos qilur, va yotsa, o'zi tanho bir ko'rpaga o'ralib yotadi. Yonida yotgan odamni qo'yniga qo'lini uzatib ham ko'rmas, dardini bilsin, yo sog', yo bemor ekanligini faxmlasin, ya'ni, taomga to'yimas va suvga qonmas va hamxonasi holini sezmas, bir bemuruvvat insondir.

Yettinchilari dedi: Mening erim o'zi nomard, so'zdan ojiz. Hamisha bemor bir insonki, dunyoda bor bemorlikdan namuna unda bor. U qadar beaxloqki, suz qilsang, boshingni yoradi, yo badaningni zaxm qiladi, yo xoxlasa har ikkisini birga qilur.

Sakkizinchilari dedi: Mening erim badani quyon kabi muloyim va isi za'faron kabi hammani xushbo'y qilib turadi, ya'ni uning vujudi nihoyatda mahbubdir. Nozik badan va xushbo'yligidan jismoniy va ruxoniy lazzat har ikkisi unda mavjuddir.

To'qqizinchilari dedi: Mening erim, uyi baland, mexmoni ko'p, qomati raso va davlat xonasi jamoat xonaga yaqin bir zotdir, ya'ni sharaflik, saholatlik va shijoatlik bir dodxodirki, hamma insonga maxbub va marji'dir.

O'ninchilari dedi: Mening erim, molikdir. Bilasizlarmi, molik kim? Ta'rif qilingan zotlarning hammalaridan ziyoda, yaxshidir. Chunki har-har yerga cho'kib yotadigan tuyalari ko'pdir. Tuyalari o'tlagani kam borishadi. Qachon surnayning ovozini eshitsalar bilurlarki, ularni so'yilur, ya'ni molik davlatmand va karamlik bir insondir. Hamisha mollarini o'z oldida boqadi, yaylovga kam yuboradi. Mollari ham uning mijozini yaxshi biladilar. Qachon surnay chalinsa, bilurlarki, shu soatda mehmon taomi uchun zabx etilurlar.

O'n birinchilari dedi: Mening erim Abu Zar'dur. Bilasizlarmi, Abu Zar' kim? U shunday mexribon erki, ikki kulog'imni qimmatini yuqori taqinchoqlardan ham qilgandir, va ikki bilagimni ko'p yedirib, charvidan to'ldirgandir. Meni shunday xush va xurram saqlaganki, undan men kibr va g'ururga berilib, o'zimni unuta boshladim. Bu er meni olganda, men bir nechta echki bilan kun o'tkazadigan nihoyatda bir g'arib xonadonda edim Meni shunday bir davlatmand xonadonga olib keldiki, ularda otlar, tuyalar, qo'sh ho'kizlar va

dehqonlar bor edi. Otlari kishnar, tuyalari bo'kirar, ho'kiz, sigirlari xirmon xaydar, xodimlari donlarni somonlardan alohida qilib tozalar edilar. Men bo'lsam u er qoshida erka edim, har qanday so'z aytsam ham, so'zing yomon demas edi. Yotsam tong otguncha yotar edim, hech kim meni uyg'ota olmas edi. Yemak va ichmakda shunday mo'l-ko'lchilik ediki, men yeb-ichib turib ketardim, taom va sharob shunday qolar edi. Bu sifat erimning sifati edi.

Uning bir onasi ham bor edi. Bilasizlarmi, u qanday xotun edi. U nihoyatda olijanob xotin ediki, idishlari hammasi katta-katta va narsalari to'la-to'la turar edi. Uyi nihoyatda keng va unda hamisha mehmonlar bo'lar edi. Abu Zar'ning o'g'li ham bor edi. Bilasizlarmi, o'g'li kim? Shunday yigitki, badani nozik va ozg'in, yonboshi go'yo po'stlog'i archilgan xurmo novdasiga yoki g'ilofidan chiqarilgan qilichga o'xshar va yosh echkinging qo'li uni to'yg'izadi (ya'ni, nihoyatda betakalluf, bahodirmijoz yigitdir).

Abu Zar'ning qizi ham bor. U qizni nima desam bo'ladi. Otasiga itoatli va onasiga farmonbardor, sixat va jamoli, aqlu-kamoli shunday ediki, xotinlik kishiga tushib qolsa, kundoshi kuyib o'tadi. Abu Zar'ning cho'risi ham bor. Uni qanday ta'rif qilay? U cho'ri dindorligidan uydagi so'zlarni boshqa yerlarga tarqatmaydi va aminligidan uyidagi taomni ham beijozat harj qilmaydi, va tozaligidan uyni nihoyatda sof va pokiza saqlaydi. Axlaxona qilib qo'ymaydi. Ummu Zar' dedi: bizning Abu Zar' bilan muhabbatimiz va o'rtadagi aloqamiz men yuqorida aytgandek edi. Ittifoqo, bir kun Abu Zar' ko'chaga chiqdi. Bahor fasli edi. Sut, yog' meshkachalarda olinib turgan vaqt edi. Ketib turib, oldida ikki o'g'li ham bor bir xotinni ko'rib koldi. Qoplondak irg'ishib, onalarining beli atrofida ikki anor bilan uynashib turibdilar. Bu holni ko'rgach, meni taloq qilib o'z nikohiga o'sha xotinni oldi. Uni devona qilgan xotinning xusnlik sho'x o'g'illarini ko'rib, shoyad menga ham shunday o'g'illarni tug'ib bersa, deb umid qilgan edi. Men ham keyin bir olijanob, saxiy erga tegdimki, uning uchqur zotdor bir oti bor edi. Uni minar edi. Xat degan bir maqomda ishlangan nayza taqardi. O'sha er meni olgach, kech kirmay turib, kelib mollarini haydatib, mening xuzurimga keltirdi, va har qaytgan namunadan bir juftdan menga berib, dedi: Ey, Ummu Zar', ol, yegin va axllaringga ham bergin. Lekin men bu ikkinchi erning menga bergan narsalarin hammasini to'plasam, qimmatini va bahosi Abu Zar'ning menga bergan bir kichkina idishining qimmatiga ham barobar kelmaydi.

Oisha roziyallohu anho dedilar: Bu xikoyani tamom eshitib bo'lgach, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam menga dedilar: Ey, Oisha, men ham senga Abu Zar' Ummu Zar'ga mehribon bo'lgan kabi mexribondirman. Lekin biz ajralmasmiz.

*I z o h. Bu hadis muborakdan Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning axloqi jambilalarining va xonadon hayotlarining naqadar ulug'ligi ma'lum bo'ladi. Sollallohu alayhi vasallam.*

## **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING UYQULARI HAQIDA BAYON QILINADI**

194. Baro' roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning odati sharifalari qachon uyquga bormoq uchun yonboshlasalar, o'ng kaftlarini o'ng yuzlarining ostiga qo'yar edilar. Keyin bu duoni o'qir edilar: «Ey parvardigorim, bandalaringni xisob uchun qabrlaridan turg'izadigan kuni meni azobingdan saqlagil».

195. Xuzayfa roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qachon o`rinlariga yotsalar, bu duoni o`qir edilar: "Yo Alloh, sening noming ila o`lurman, (ya`ni uyquga borurman) va sening noming ila tirilurman, (ya`ni uyg`onurman)" va qachon uyqudan tursalar, bu duoni o`qir edilar: "Bizni o`ldirgandan keyin yana tiriltirgan Allohga hamd bo`lsin, va qiyomat kuni Uning huzuriga to`planish bo`lur".

196. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam har kecha qachon o`z o`rinlariga yotsalar, ikki kaftlarini bir qilib turib, unga dam solar edilar, unga «QUL HUVALLOHU AHAD», «QUL A`UZU BIROBBIL-FALAQ», «QUL A`UZU BIROBBIN-NAS» suralarini o`qib, har ikki kaftlariga dam solgach, badanlarining qo`l yetadigan qismlarining hammasiga surkar edilar. Boshlaridan, yuzlaridan va oldi taraflaridan boshlardilar. Shu tariqa uch bor qilar edilar.

197. Ibn Abbas roziyallohu anhumodan rivoyat: Bir kun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uyquga borib, xurрак tortdilar va odat sharifalari qachon uyquga borsalar, xurрак tortar edilar. O`sha holda Bilol roziyallohu anhu kelib, namoz vaqti bo`lib qolganligini ma`lum qildilar. U zot sollallohu alayhi vasallam o`rinlaridan turdilar, va namozlarini jamoat bilan o`qidilar. Lekin yangi tahorat qilmadilar, chunki Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning o`zlari uyquga borsalar-dr, muborak dillari uyg`oq turar edi.

198. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qachon uyqu uchun o`rinlariga yotsalar, bu duoni o`qir edilar. «Hamd bo`lsin Alloh taologaki, bizlarga taom berdi va serob qildi va har bir hojatimiz uchun o`zi mutasaddi bo`ldi va bizlarga yotadigan joy berdi. Dunyoda bir qancha insonlar borki, xabar oladigan va joy beradigan kishilari yo`qdir».

199. Abu Qatoda roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning odat sharifalari qachon safarda bo`lib, kechqurun bir yerga tushsalar, o`ng yonboshlari bilan yotar edilar, va qachon subhi sodiqdan avvalroq bir yerga tushsalar, yotganlarida uyqu ziyoda kelib, og`irlashib, namoz uchun sustlik paydo bo`lmasligi uchun o`ng bilaklarini tikka qo`yib, kaftlariga boshlarini qo`yib yotar edilar. Garchi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uchun bunga zarurat yo`q bo`lsa-da, haqiqatan bu ummatlarga ta`lim edi.

## **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING IBODATLARI HAQIDA BAYON QILINADI**

200. Mug`iyra ibn Shu`ba roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam nafl namozda shu qadar uzun qiyom qilar edilarki, muborak ikki qadamlari shishib ketar edi. Savol qilindi: Alloh taolo u zotning avvalu oxir tamom gunohlarini mag`firat qilgan bo`lsa-yu, bu qadar mashaqqatni o`zlariga ixtiyor qiladilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Men Parvardigorimning shukrlik bandalaridan bo`lmaymi?

201. Asvad ibn Yazid dedilar: Men Oisha roziyallohu anhodan Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning kechqurundagi namozlari haqida savol qildim. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam xufton namozini o`qiganlaridan keyin, kechening avvalgi yarmida orom olar edilar. Undan keyin turib, tahajjud namoziga mashg`ul bo`lar, kechening oxirida vitr namozini o`qir, undan keyin joylariga kelib yotar

edilar. Agar ko'ngillari xoxlasa, axliyalari bilan shar'î suhbat qilar ham edilar. Keyin bomdod azonini eshitsalar, irg'ib turar edilar. Agar g'usl lozim bo'lgan bo'lsa, g'usl qilar, bo'lmasa tahorat qilib, namozga chiqib ketar edilar.

*I z o h. Fan va tibbda ham suhbat uchun nihoyatda munosib vaqt kechaning oxiridir, chunki bir uxlab turgandan keyin har ikki tarafning nashoti yangi bo'ladi. Kechaning avvalida odam taom yeb, og'irlashgan bo'ladi, u holda suhbat ham zarar qiladi, agar ochlik holda suhbat qilinsa ham zarar qiladi. Bular tib maslahatiga bog'liq masalalardir.*

*Shariatda o'z jufti-haloli bilan suhbat har vaqtda joizdir, chunki Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan kechaning avvalida va kunduzning turli vaqtlarida suhbat qilganliklari sobit bo'lgan. Ba'zi rivoyatlarda deyilganki, ayni namoz vaqtida suhbat qilingan bo'lsa, vujudga kelgan farzand ota-onasiga nofarmon bo'larkan.*

202. Ibn Abbos roziyallohu anhumo dedilar: Men bolalik vaqtimda bir kecha holam Maymuna roziyallohu anho huzurlarida yotib qoldim. Men yostiqlarning eniga va Rasululloh sollallohu alayhi vasallam va ahliyalari yostiqlarning uzunida bosh qo'yib yotdilar. Mening boshim va ularning yuzlari qiblaga bo'ldi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uxladilar, yarim kecha bo'lganda, uyg'ondilar. Ko'zlaridan uyquni qochirmoq uchun qo'llarini yuzlariga tortdilar va ishqadilar. Keyin surai Oli Imronning oxirgi oyatlari «INNAFIY XOLQIS-SAMOVOTI VAL-ARZ» oyatlarini tilovat qildilar. So'ng turib, osig'lik bir meshikchani olib, undagi suv bilan tahorat qildilar, nihoyatda chiroyli tahorat qildilar. Keyin namozga turdilar. Men ham tahorat qilib kelib chap taraflarida turib, iktido qildim. Keyin Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o'ng qo'llarini mening boshimga qo'ydilar, va o'ng qulog'imni buradilar (Chunki muqtadi imomning o'ng tarafida turishi lozim edi). Keyin ikki raka'at o'qidilar, yana ikki raka'at o'qidilar, ikki raka'atdan olti marta o'qidilar.

Bu hadisning roviysi Ma'n dedilar: Ikki raka'atdan olti bor o'qidilar. Guyo o'n ikki raka'at bo'libdi. Keyin vitrni o'qidilar va yonboshladilar. Keyin muazzin namoz uchun chaqirib keldilar. Keyin u zot turib, ikki raka'at sunnatni muxtasar qiroat bilan o'qib chiqib, jamoat bilan bomdod farzini ado qildilar.

*I z o h. Ali Qoriy dedilarki, imom Abu Hanifa roziyallohu anhu tahajjud namozini o'n ikki raka'at dedilar. Nabiysi karim sollallohu alayhi vasallamdan tahajjud haqida muxtalif - raka'atlar rivoyat qilingan. Muqarrar va muayyan bir miqdorga cheklanmagan, demak, undan ziyoda yo kami ham joiz bo'ladi.*

203. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qachon uyqu g'alaba qilib, yo uxlab qolib, tungi namozlarini, ya'ni tahajjudlarini o'qiyolmay qolsalar, kunduz choshit vaqtida o'n ikki raka'at o'qir edilar.

*I z o h. Bu tahajjudning qazosi u zotning xos o'zlariga farz bo'lganligidan, yoki ummatga fazilatini ta'lim berish uchun bo'lgandir.*

204. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Qachon sizlardan birlaringiz kechqurun tahajjud uchun tursa, avval ikki raka'at yengil namoz o'qib olsin, keyin tahajjud o'qisin.

*I z o h. Buning sababi, birdan uzun namoz boshlasa, tabiat cho'chib qolish mumkin,*

*charchab qolishning ehtimoli ham bor. Ba'zilar deganlarki, bu namoz shukri vudu'dir (ya'ni tahorat shukri). Shukri vudu'ni muxtasar o'qimoq afzaldir, shuning uchun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam yengil o'qimoqqa buyurdilar, o'zlari ham yengil o'qir edilar.*

*Xofiz ibn Hajar «Sahih Buxoriy» sharxida deydilar: hadisda kelganki, inson uxlaganda, shayton uning sochiga jodugarlar kabi uch tugun bog'lab qo'yadi. Uning ta'sirida, qachon uyg'onsa, hozir vaqt erta ekan, deb turgisi kelmaydi. Agar inson o'rnidan turib, Alloh nomini yod qilsa, yo biror duo va zikr o'qisa, o'sha zaxoti bir tugun yechiladi. Turib taxorat qilsa, ikkinchi tugun yechiladi. Namozga shuru' qilsa, uchinchi tugun ham yechilib ketadi. Endi bu hadisdan ma'lum bo'ladiki, uchinchi tugun namoz bilangina yechilar ekan, shuning uchun ikki raka'at yengil bir namoz o'qib olinsa, tamom tugunlar yechilib ketib, shaytonning jodusi bekor ketgan bo'ladi. Qolgan tahajjud namozlari hammasi shayton ta'siridan pok bo'lgan holda ado qilinadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ALHAMDULILLOH shayton ta'siridan Xudo panohidagi zot bo'lsalar ham ummatlariga ta'lim uchun shunday o'qir edilar.*

205. Zayd ibn Xolid roziyallohu anhu dedilar: Men bir kun Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning namozlarini nihoyatda extimom bilan ko'rmoqchi bo'ldim. Men u zotning makon yo xaymalarining ostonasiga boshimni qo'yib yotdim. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam avval muxtasar ikki raka'at namoz o'qidilar. Undan so'ng uzun-uzun ikki raka'at namoz o'qidilar. Keyin ikki raka'at avvalgilaridan yengilroq o'qidilar. Keyin yana ikki raka'at undan muxtasarroq o'qidilar. Keyin yana ikki raka'at undan ham muxtasarroq o'qidilar. Keyin yana ikki raka'at undan ham yengilroq o'qidilar. Keyin vitr o'qidilar. Mana bu namoz majmui o'n uch raka'at bo'ldi.

*I z o h. Ba'zilar vitr namozini bir raka'at deydilar. Ularning nazdida olti bor ikki raka'atlik nafl bo'lib, bir raka'at vitr bilan hammasi o'n uch raka'at bo'ladi. Vitrni uch raka'at deguvchilarning nazdida hammasi o'n besh raka'at bo'ladi. Bu tariqadagi xisobda avvalgi shukri vudu' sanalmagan. Bir rivoyatda nafl namozlarining majmui uzun va qisqalari bo'lib, o'n raka'at deb kelgan. Unda ham shukri vudu'dan boshqa naflar o'n uch raka'at bo'ldi, deyilgan. U suratda esa vitr uch raka'at bo'lmay, imkoni yo'q.*

206. Abu Salama ibn Abdurahmon roziyallohu anhudan rivoyatki, Oisha roziyallohu anhodan Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning Ramazoni muborakdagi tahajjud namozlari necha raka'at bo'lgani haqida so'radilar. Onamiz marhamat qildilarki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ramazonda ham boshqa oylarda ham o'n bir raka'atdan ziyoda tahajjud o'qimas edilar (Sakkiz raka'at tahajjud va uch raka'at vitr). Avval to'rt raka'at o'qir edilarki, uning husni va uzunligidan so'ramagil (ya'ni nihoyatda uzun va g'oyatda boxushu' bo'lar edi). Keyin yana to'rt raka'at o'qir edilarki, uning ham xusni va uzunligidan so'ramagil. Keyin uch raka'at o'qir edilar. Men dedim: Yo Rasulalloh, vitr o'qimay turib uxlaysizmi? Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat qildilar: Ey, Oisha, mening ikki ko'zim uxlasa ham, qalbim hargiz uxlamaydi.

*I z o h. Ba'zi insonlar yuqoridagi hadisdan tarovih namozini sakkiz raka'at deb tushunadilar. Holbuki, bu rivoyatdan tahajjudning o'zini ham sakkiz raka'at qilib o'qishlik tushunilmaydi. Bu hadisning tarovix namoziga xech taalluqi yo'qdir. Chunki "solatul-layl" ma'nosi, tungi namoz, deganidir. Lekin qarina bilan tahajjud namozi ekanligi ma'lum bo'ladi. So'rovchining maqsudi ham tahajjud namozining ramazoni muborakdagi adadini*

*bilish edi. Shuning uchun Oisha roziyallohu anho ramazonda boshqa oylardan ziyoda va kam bo'lishini nafi etdilar. Xulosa shuki, hadisi shariflarda tahajjudni "solatul-layl" deyiladi va tarovihni esa "qiyomi ramazon" deyiladi. Bu ikki namoz bir-biridan tamoman alohidadir.*

207. Oisha roziyallohu anho dedilar: Nabiyi karim sollallohu alayhi vasallam kechqurun o'n bir raka'at namoz o'qir edilar. Undan bir raka'ati vitr bo'lar edi. Qachon bu namozdan forig' bo'lsalar, o'ng yonboshlari bilan yotar edilar.

*I z o h. Bu hadis yuqoridagi hadisga muxolif ko'rinsa-da, haqiqatda, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ba'zi vaqtda unday va ba'zi vaqtda bunday o'qir edilar.*

*I z o h. Bu hadisda vitr namozini bir raka'at ekanligi rivoyat qilingandir. Bu borada taxqiq shuki, vitr namozi ustida bir necha ixtiloflar bor. Birinchi ixtilof - uning hukmida. Xanafiy mazhabida vitr namozi vojib sanaladi. Ba'zi boshqa imomlar nazdida esa mustahab. Ikkinchi ixtilof - uning raka'atlarining adadida. Xanafiylar vitrni uch raka'at, bir salom bilan o'qiladi deydilar. Boshqa ba'zi imomlar uni bir raka'at deydilar, va ba'zilari vitr bir raka'at bo'lsa ham undan ilgari ikki raka'at bir salom bilan o'qilishi vojib deydilar. Hadislarda bu namoz haqida turli rivoyatlar kelganligi sababidan imomlar o'rtasida tarjih turlicha bo'lgan.*

Xanafiylar o'z mazhablarining haqligini bir necha hadisdan dalil keltirib, isbot qiladilar.

1) Oisha roziyallohu anho Abdulloh ibn Abu Qays roziyallohu anhuning savollari ustida Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning kechqurundagi namozlarini bu tariqa bayon qilganlar: to'rt raka'at va uch raka'at, olti raka'at va uch raka'at, sakkiz raka'at va uch raka'at, o'n raka'at va uch raka'at. Mana bu rivoyatda, oxirgi uch raka'at degan kalimani to'rt bor alohida keltirishlaridan ham ma'lum bo'ladiki, bu namozning adadi uch raka'atdan ziyoda ham kam ham bo'lmaydi. Aks holda, Oisha roziyallohu anho har bor uch raka'at kalimasini ifoda qilmay, yetti raka'at, to'qqiz raka'at, o'n bir raka'at, o'n uch raka'at deb qo'ya qolar edilar.

2) Ali Qoriy rahimahullohning so'zlaricha, xanafiylarning dalillari shuki, vitr namozining uch raka'at o'qilishini joiz va mustahsin ekanligiga sahobai kiromlar roziyallohu anhum qaror qilgandilar, va uch raka'atdan kam bo'lishida ba'zilari joiz va ba'zilari nojoiz deb, ixtilof qilgandilar. Sahobalarning ittifoq qilgan masalalariga amal qilmoq ziyoda matlubdir.

3) Hasan Basriy rahimahullohga dedilar: Vitr namozining uch raka'at ekanligiga butun musulmonlar ittifoq qilganlar. Bu zotga bir kishi dedi: Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhumo uch raka'at vitrning ikki raka'atiga salom berib, qolgan bir raka'atini alohida o'qir edilar. Unga Hasan Basriy otalari Umar roziyallohu anhu uch raka'atni bir salom bilan o'qir edilar, va otalari u kishidan olimroq edilar, deb javob berganlar.

4) Hadisi shariflarda tanho bir raka'atlik namoz o'qish man' qilingan. Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhudan bir kishi savol qilib dediki, Sa'd roziyallohu anhu vitrni bir raka'at o'qiydilar. Abdulloh ibn Mas'ud dedilar: bir raka'atlik namoz yo'q. Bulardan boshqa ham hanafiylarda dalillar ko'p.

208. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam kechqurun to'qqiz raka'at namoz o'qir edilar.

*I z o h. Bu hadisdan hanafiylar olti raka'at tahajjud va uch raka'at vitr edi, deytilar.*

209. Xuzayfa roziyallohu anhu dedilar: Men bir kecha Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan birga namoz o'qidim. Janob namozga kirishgach, avval bu duoni o'qidilar (tarjimasi): "Alloh Taolo hammadan buyuk zotdir. Podshoxligi nixoyatda ulug'dir, hammaga g'olibdir. Kattalik va haqiqiy ulug'lik Uning sifatidir". Keyin surai fotixani o'qigandan keyin zam suraga surai Baqarani o'qidilar. Keyin ruku' qildilar. Bu ruku'lari qiyomlariga o'xshagan edi (Ya'ni, uzunlikda qiyom bilan barobar edi, yoki o'sha qiyomga munosib ruku' edi), va ruku'larining avvalidan to oxirigacha SUBHONA RABBIY AL-'AZIM deb turdilar. Keyin ruku'dan boshlarini ko'tardilar va tikka turdilar. Ya'ni, qovma qildilar. Bu qovmalari ham ruku'lariga o'xshagan edi. Qovmalarida avvaldan oxirigacha LIRABBIL-HAMDU deb turdilar. Keyin sajda qildilar. Sajdalari ham qiyomlari kabi edi, va sajdarida avvalidan oxirigacha SUBHONA RABBIYAL-'ALO deb turdilar. Keyin sajdadan boshlarini ko'tardilar. Ikki sajdalarining o'rtasi ham sajdalari kabi edi. Bu o'tirishda tamom RABBIG'FIRLIY deb turdilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bu namozlarida surai BAQARA, surai OLI IMRON, surai NISO, surai MOIDA yoki surai AN'OMni to'rt raka'atga o'qidilar.

Bu hadis roviylaridan imom Shu'ba oxirgi ikki surani qaysi birini tilovat qilganlarida shak qiladilar.

*I z o h. Ba'zi rivoyatlarda yuqoridagi avvalgi uch surani bir raka'atda o'qiganliklari ham sobitdir.*

210. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bir kecha tahajjudlarida avvaldan oxirigacha birgina oyati sharifani qaytarib-qaytarib o'qib turdilar.

*I z o h. Mazkur oyat sharifa ushbu dir: IN TU'AZZIBHUM FAINNAHUM IBODUKA VA IN TAG'FIRLAHUM FAINNAKA ANTA-L-'AZIYZU-L-HAKIYM (Surai Moida).*

*Tarjimasi: (Ey xudo, agar Sen bularning hammalarini azoblasang, o'z bandalaringdir, va agar Sen bularni mag'firat qilsang, hammaga g'olib va ulug', xikmatli zotdirsan. Ya'ni, xech kim Sening iroda va hukmingga daxl berolmas. Har narsa qilsang yarashur, chunki sen Molikdirsan, ular bandalaringdir).*

211. Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhu dedilar: Bir kecha men Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan namoz o'qidim. Janob qiyomda shu qadar uzoq turdilarki, men chidab tura olmay, bir yomon ishni qilmoqchi bo'ldim (lekin qilmadim). Bir kishi savol qildi: nima qilmoqchi edilar? Abdulloh ibn Mas'ud dedilar: o'zim o'tirib olib, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni o'zlarini tanxo qo'ymoqchi bo'lib edim.

212. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam (oxirgi vaqtlarida) nafl namozlarini o'tirib o'qir edilar. O'tirgan hollarida Qur'oni sharifni odatlariga mutobiq uzun o'qib borar edilar. Qachonki bir raka'atning xissasidan o'ttiz yo qirq oyat miqdori qolsa, uni turib o'qir edilar. Keyin ruku' va sajda qilar, keyin ikkinchi raka'at yana shunday qilar edilar.

*I z o h. Jumhur ulamolar islom va to'rt mazxab imomlarining nazdida o'tirib namoz o'qiguvchiga ruku'ga yaqin yetganda turib ruku' va sujud qilmoq joizdir va turib namoz o'qiguvchiga charchab qolsa, o'tirib namoz o'qimoq ham nafl namozida joiz.*

213. Abdulloh ibn Shaqiq roziyallohu anhu dedilar: Men Oisha roziyallohu anhodan Rasuli akram sollallohu alayhi vasallamning nafl namozlarining kayfiyatlaridan savol qildim. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam kechani uzun hissasida nafl namozlarini turib o'qir edilar va ba'zi kechani uzun xissasida o'tirib o'qir edilar. Lekin odati sharifalari shu ediki, qachon turib Qur'on o'qisalar, ruku' va sajdalarini ham turib qilar edilar, va qachon o'tirib Qur'on o'qisalar, ruku' va sajdalarini o'tirib qilar edilar.

*I z o h. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o'tirib namoz o'kisalar ham, turib o'qilgan namoz savobini mukammal olgaylar. Chunki Janobning asl maqsadlari ummatga shu tariqa o'qimoqning joizligini ta'lim berishdir.*

214. Xafsa roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam nafl namozlarini o'tirib ham o'qir edilar, va unda bir surani o'qisalar, shunday tartil bilan o'qir edilarki, u sura o'zidan uzun suradan ham uzun bo'lib ketardi.

*I z o h. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning namozlari ham, qiroatlari ham boshqa bir olam bo'lar edi. Ohista-ohista va tajvid va tartil bilan, ma'nolarida tadabbur va takammullar qilib o'qir edi. Shunday o'qilgan suratdagina Kur'oni karim haqqi ado etilgan bo'ladi va uni o'quvchi foyda va bahra oladi.*

215. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam vafotlaridan muqaddam aksar nafl namozlarini o'tirib o'qiydigan bo'ldilar.

216. Ibn Umar roziyallohu anhumo dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan peshindan avval ikki raka'at va peshindan keyin ikki raka'at masjidga va mag'ribdan keyin ikki raka'at va xuftondan keyin ikki raka'at uylarida o'qidim.

*I z o h. Bu hadisda namozning sunnatlari bayon qilingan. Sunnati muakkada hanafiylar qoshida ham shunday, lekin peshinning sunnati ularda to'rt raka'atdir. Nabiyi karim sollallohu alayhi vasallamdan ko'p hadislar vorid bo'lganki, ularda har kim bir kechada va kunduzda o'n ikki raka'at namozga mudovamat qilsa, Alloh taolo uning uchun jannatda bir uy bino qilur, deyilgan. Bu o'n ikki raka'atning tafsili Oisha va Ummu Xabiba roziyallohu anhumo rivoyatlarida yuqoridagi Ibn Umar rivoyatlaridagidek kelgan. Magar, ular rivoyatlarida peshin namozining avvalgi sunnati to'rt raka'at deb ko'rsatilgan. Yana bir xadisda kelganki, peshindan avval to'rt raka'atni bir salom bilan o'qilsa, uning uchun osmonning darvozalari ochilur. (Ya'ni tez qabul qilinur). Imom Buxoriy va imom Muslim raximaxumallohning bir rivoyatlarida Rasululloh sollallohu alayhi vasallam peshindan avvalgi to'rt raka'atni hargiz tark qilmas edilar, deyilgan. Imom Axmad, Abu Davud va boshqalar Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qiladilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam peshin namozi uchun masjidga chiqar vaqtlarida uyda to'rt raka'atni o'qib, keyin chiqar edilar. Bundan ma'lum bo'ladiki, Janob sollallohu alayhi vasallam ko'pincha sunnatlarni uyda o'qib, keyin masjidga chiqar edilar, va g'oliban masjidga ikki raka'at*

*tahiyatul-masjid o'qir edilar. Ehtimol, Ibn Umar roziyallohu anhumo shuni ko'rgan bo'lishlari mumkin.*

217. Xafsa roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam subhi sodiq tulu' qilib, muazzin azon aytishi bilan, ikki raka'at yengil namoz o'qir edilar.

*I z o h. Bu namoz bomdod namozining sunnatidir. Buni Nabiyi karim sollallohu alayhi vasallam yengil o'qir edilar, va zam surasi uchun surai «Kofirun» bilan surai «Ixlos»ni o'qir edilar.*

218. Osim ibn Zamra dedilar: bizlar Ali roziyallohu anhudan Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning kunduzda o'qiydigan namozlarining kayfiyatidan savol qildik. Ali roziyallohu anhu dedilar: "Sizlar u kayfiyatda o'qiy olmaysizlar". Biz dedik: "Siz bayon qiling, har kim o'qiyolsa o'qir". Keyin Ali dedilar: "Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam subh vaqtida oftob osmonning sharq tarafida, go'yo asr vaqtida g'arb tarafida ko'tarilgan balandlikda ko'tarilganda, ikki raka'at namoz o'qir edilar. Qachonki sharq tarafida, go'yo peshin vaqtida g'arb tarafida ko'tarilgan balandlikda ko'tarilsa, to'rt raka'at namoz o'qir edilar. Peshin namozidan avval to'rt raka'at o'qir edilar. Peshin namozidan keyin ikki raka'at o'qir edilar. Asrdan avval to'rt raka'at o'qir edilar. Bu to'rt raka'atni har ikki raka'atidan keyin muqarrabin maloikalar va anbiyo va ularga tobe' bo'lgan mo'minlar va musulmonlarga salom berar edilar.

*I z o h. Bu rivoyatdagi avvalgi ikki raka'at ishroq namozidir. Keyingi to'rt raka'at chosht namozidir. Peshin namozidan avvalgi sunnati to'rt raka'at ekanligi sobit bo'ldi. Peshin namozidan avvalgi to'rt raka'ati va keyingi ikki raka'ati sunnati muakkadadir.*

219. Muoz roziyallohu anhu dedilar: Men Oisha roziyallohu anhodan Rasululloh sollallohu alayhi vasallam chosht namozini o'qir edilarmi, deb savol qildim. Oisha dedilar: Ha, to'rt raka'at o'qir edilar. Xoxlasalar, ziyoda ham o'qir edilar.

220. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam chosht namozini olti raka'at o'qir edilar.

221. Abduraxmon Tobi'iy dedilar: Menga Ummu Xoniy roziyallohu anhodan boshqa hech kim Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning chosht namozlaridan xabar bermadi. U zot aytdilarki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Makkai mukarrama fath qilingan kunda mening uyimga kirdilar, g'usl qildilar. Keyin sakkiz raka'at namoz o'qidilar. Men bu namozdan yengilroq namoz o'qiganlarini ko'rmagan edim. Lekin ruku' va sujudlarini tamom qilar edilar.

222. Abdulloh ibn Shaqiq dedilar: Men Oisha roziyallohu anhoga dedim: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam chosht namozini o'qir edilarmi? Oisha roziyallohu anho dedilar: Yo'q. Magar safardan kelsalar o'qir edilar.

*I z o h. Yuqorida Muoz roziyallohu anhunging rivoyatlarida Oisha roziyallohu anho Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning chosht namozini o'qiganliklarini isbot etdilar. Abdulloh ibn Shaqiq rivoyatlarida esa safardan kelganlaridagina o'qib, boshqa vaqt o'qimaganliklari bayon etildi. Buning tadbiri shuki, chosht namozini masjidida o'qishlari safardan kelganlaridagina bo'lar edi. Ammo uylarida hamisha o'qir edilar.*

223. Abu Sa'íd Xudriy roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ba'zi vaqt chosht namoziga shunday ehtimom qilar edilarki, biz endi bu namozni hargiz tark qilmasalar kerak, der edik. Ba'zi vaqt esa shunday tashlab qo'yar edilarki, biz endi bu namozni hargiz o'qimasalar kerak, der edik.

*I z o h. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ba'zi ishlarni ummatlariga yengillik bo'lsin, deb qasddan tark qilar edilar. Bu voqea ham shu jumladandir.*

224. Abu Ayyub al-Ansoriy roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam hamisha zavol (qiyom) vaqtida to'rt raka'at namoz o'qir edilar. Men savol qildim: Yo, Rasulalloh, o'zlari zavol vaqtida bu to'rt raka'atni xech qo'ymaydilar. U zot marhamat qildilar: "Osmonlarning eshiklari zavol vaqtida tamom ochilgay to peshin namozi o'qilib bo'lmasdan yopilmas. Men shu soatda mendan biror yaxshi amal osmonga chiqishini do'st tutaman". Men savol kildim: "Bu to'rt raka'atning hammasida zam sura qilinadimi?" Janob dedilar: "Ha, qilinadi". Men dedim: "Bunda ikki raka'atda salom ham beriladimi?" Janob dedilar: "Yo'q. To'rt raka'atning hammasini bir salom bilan o'qiladi".

*I z o h. Bu namozni sufiylar solatuz-zuvol deydilar. Ular nazdida mustahab namozlaridan biri shudir. Lekin muhaddislar qoshida bu namoz peshin namozining sunnatidir. Chunki zavoldin keyin peshin sunnatidan boshqa bir namozga Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning mudovamatlari sobit emas.*

225. Abdulloh ibn Sa'd roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan savol qildim, nafl namozlarini masjidida o'qimoq afzalmi yo uyda o'qimoq afzalmi? Janob dedilar: "Sen mening uyim masjidga naqadar yaqinligini ko'rib turibsan. Shunday bo'lsa ham, men farzdan boshqa namozlarni uyda o'qilishini yaxshi ko'raman". (Ya'ni, yolg'iz o'qiladigan namozlarni uyda o'qimoq afzaldir).

226. Abdulloh ibn Shaqiq dedilar: Men Oisha roziyallohu anhodan Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning ro'zalari haqida savol qildim. Oisha dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ba'zi oylarda shunday ro'za tutar edilarki, biz endi bu oyda og'iz ochmasalar kerak, der edik. Ba'zi oylarda shunday og'iz ochiq yurar edilarki, biz endi bu oyda ro'za tutmasalar kerak, der edik. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Madinaga kelganlaridan keyin hech bir oyni butun ro'za bilan o'tkazmadilar. Magar tanho Ramazon oyini to'liq tutar edilar.

227. Anas roziyallohu anhudan bir kishi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning ro'zalari haqida savol qildi. Javobiga dedilarki: Janob sollallohu alayhi vasallam ba'zi oylarda shunday ko'p ro'za tutar edilarki, bizlar bu oy biror kun ham og'iz ochishga irodalari yo'q, deb gumon qilar edik. Ba'zi oylarda shunday ochiq yurar edilarki, bizlar bu oy ro'zaga irodalari yo'q, deb gumon qilar edik. Odati sharifalari shunday ham ediki, agar kechqurun u zotni oromda yotganlarini ko'rmoqchi bo'lsak, shu holda ko'ra olar edim. Agar namozga mashg'ul bir holda ko'rmoqchi bulsak, u holda ham ko'ra olar edik. (Ya'ni, odati muborakalari va butun kechani ibodat bilan o'tkazmas va na butun kechani oromda o'tkazmas edi. Balki ibodat ham qilar edilar va jon, badan haqlarini ham ado qilar edilar).

228. Ummu Salama roziyallohu anho dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning Sha'bon va Ramazondan boshqa, ikki oy ro'zasini paydar-pay tutganliklarini ko'rmadim.

*I z o h. Bu hadisdan ma'lum bo'ladiki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bu ikki oy ro'zasini mukammal ham tutgan ekanlar. Bu voqea Ummul-muminiyn Ummu Salama roziyallohu anhoga ma'lum bo'libdi. Yoki Sha'bon ro'zasi yarmidan ziyoda tutilgan bo'lsa, mubolag'a yo'li mukammal deganlar.*

229. Oisha roziyallohu anho dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning xech bir oy ro'zasini Sha'bon kabi ko'p tutganlarini ko'rmadim. Sha'bonda shunday ro'za tutar edilarki, ozgina kun tutolmay qolar edilar. Balki ba'zi vaqtlarda butun Sha'bonni ro'za bilan o'tkizar edilar.

230. Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam har oying avvalidan uch kunida ro'za tutar edilar. Juma kuni ro'za bo'lar edilar. Magar ba'zi jumalarda og'iz ochiq bo'lar edilar.

231. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aksari dushanba va payshanba kunlarining ro'zasiga extimom qilar edilar.

232. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat qildilarki, bandalarning qilgan amallari har dushanba kuni va har payshanba kuni Alloh Taolo dargohiga ko'ndalang qilinadi. Men amallarimning ro'zalik holimda arz etilishini do'st tutaman, toki maqbuliyatga ziyoda yaqin bo'lsin.

*I z o h. Imom Muslim rahimahullohning bir rivoyatlarida amallarning har kun erta va kech ikki bor arz etilishi sobit bo'lgan. Yuqoridagi hadisdan har hafta ikki kun arz etilishi ma'lum bo'ladi. Bular haqida tadbiiq shuki, amallar mufassal bir kayfiyatda har kun kecha va kunduz Allohga arz etiladi, va har hafta ikki bor dushanba va payshanba kunlarida biroz tafsil bilan ham arz etiladi. Bundan boshqa har Sha'bon oyida va Qadr kechasida ham yig'ilgan holatda arz etiladi, toki Bani Odam toifasining sharaf va fazilati farishtalarga ma'lum bo'lsin.*

233. Oisha roziyallohu anho dedilar: Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ba'zi oyda shanba, yakshanba va dushanba kunlarida ro'za tutar edilar. Ba'zi oyda seshanba, chorshanba kunlarida ro'za tutar edilar.

234. Maoz roziyallohu anhu dedilar: Men Oisha roziyallohu anhodan so'radim: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam har oyda uch kun ro'za tutar edilarmi?" Dedilar: "Ha". Men dedim: "Qaysi kunlari tutar edilar?" Dedilar: "Qaysi kunlar bo'lishida parvo qilmas edilar". (Ya'ni, to'g'ri kelgan kunlarda tutaverar edilar).

235. Oisha roziyallohu anho dedilar: Oshura kuni, (ya'ni, muharramning o'ninchi kuni), Quraysh jamoasi ro'za tutar edi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ham hijratdan ilgari o'sha kuni nafl ro'za tutar edilar. Madinai munavvarara hijrat qilib kelganlaridan keyin ham tuta boshladilar. Ummatga ham tutishlarini vojib ekanligini e'lon etdilar. Keyin Ramazon muborak ro'zasi farz qilingach, Oshura ro'zasining vojibliigi mansux

qilindi, va mustahabligi boqiy qoldi. Endi kim xoxlasa tutib, kim xoxlamasa tutmaydigan bo'ldi.

236. Alqama roziyallohu anhu dedilar: Men Oisha roziyallohu anhodan savol qildim: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan kunlardan biron birini biron bir ibodat uchun xos qilib olar edilarmi?" Dedilar: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning amallari doimiy bo'lar edi. Qaysi bir ibodatga berilsalar, unga extimom bilan davom etar edilar. Sizlardan kim ham u zotning toqatlari yetgan ibodatga toqati yetadi?"

*I z o h. Bu hadisdagi davomdan murod, g'olibi vaqtdir.*

237. Oisha roziyallohu anho dedilar: Bir kun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam mening huzurimga kirib keldilar. Mening xuzurimda bir ayol o'tirgan edi. Janob so'radilar: "Bu ayol kim?" Men dedim: "Bu o'sha kechalar uxlamay, nafl namozlar o'qiydigan va ibodatlar bilan mashg'ul bo'ladigan ayol". Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: "Nafl ibodatlarni shunchalik miqdorda qilsinki, uni qilmoq mumkin va toqat ichida bo'lsin. Allohga qasamki, Alloh Taolo bandasi ibodatdan charchamasa va malol kelmasa, savob berishdan hargiz charchamaydi va malol olmaydi". Oisha dedilar: "Ibodatlar ichida Janobi Rasulullohga hammadan ziyoda maxbub ibodat – qilguvchi unda davomiy bo'lgan ibodat edi".

238. Abu Solih dedilar: Men Oisha va Ummu Salama roziyallohu anhumodan so'radim: "Qaysi bir ibodat Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga ziyoda maxbub edi?" Ular har ikkilari dedilar: "Qaysi bir ibodat oz bo'lsin yo ko'p bo'lsin, qilguvchi unda davomiy bo'lsa, o'sha ibodat Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga maxbub edi".

*I z o h. Bu rivoyatlardan aniq-ravshan ma'lum bo'ladiki, ro'za bo'lsin, namoz bo'lsin, qaysi bir nafl ibodat bo'lsin, uni qilguvchi odam uni extimom bilan qilsin va unda bardavom bo'lsin. Xox oz bo'lsin, xox ko'p bo'lsin, qilolmas ekanman deb, butun tashlab ko'ymasin. Chunki farz ibodatlardagi kamchiliklarni naflar bilan to'ldiriladi. Qaysi bir naflga amal qilsa, tark qilinmasin.*

239. Avf ibn Molik roziyallohu anhu dedilar: Bir kecha men Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan birga bo'ldim. Janob avval misvok iste'mol qildilar. Keyin taxorat qildilar. Men ham Janobga iqtido kilib, namozga shuru' qildim. Janob surai FOTIHAdan keyin zam suraga surai BAQARAni boshladilar. Qachon bir raxmat oyatini o'qisalar, to'xtab olib, uni Allohdan so'rar edilar. Qachon bir azob oyatini o'qisalar, to'xtab turib, undan panoh tilar edilar. Keyin ruku' qildilar. Ruku'larida qiyomda turgan miqdorlaricha turdilar va bu duoni o'qidilar: SUBHONA ZI-L JABARUTI VA-L MALAKUTI VA-L KIBRIYOI VA-L 'AZAMATI. (Tarjimasi: Hukumat va saltanat soxibi bo'lmish Zot pokdir, va ulug'lik va buyuklik soxibidir). Keyin sajda qildilar va sajdada ham ruku'da turgan miqdorda turdilar va unda ham yuqoridagi duoni o'qib turdilar. Keyin ikkinchi raka'atga turdilar. Unda surai OLI IMRONni zam qildilar. Bu raka'atda ham avvalgi raka'atda qilingan tarzda davom etdilar. Bu namoz o'zi to'rt raka'atlik namoz edi. Uchinchi raka'atda surai NISONi va to'rtinchi raka'atda surai MOIDAni o'sha kayfiyatda o'qidilar.

*I z o h. Imom Termiziy rahimahulloh bu bobda avvalda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning ibodatlarini nihoyatda oson va yengillarini bayon etib kelib, oxirida muborak hadis bilan Janobning ibodatdagi shavq va toqatlarini hammadan ziyoda bo'lib,*

*insoniy toqat tashqarisida ekanligini isbot etdilar. Toki itbo'lariga xirsi baland bo'lib, muvaffaq bo'la olgan ximmatlik ummatlar qila olsalar, bu hadis ifodasicha ham amal qilsinlar.*

## **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING QIROATLARI HAQIDA BAYON QILINADI**

Ya'ni, Janobi Rasulullohning Qur'oni karim tilovatlari qanday edi, shu xususda zikr etiladi.

240. Ya'lo roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Ummu Salama roziyallohu anhodan Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qiroatlari haqida savol qilindi. Onamiz roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qiroatlari harf-harf ochiq va ravshan bo'lar edi.

Sharxlovchilar aytadilar: Onamiz o'zlari Sarvari koinot sollallohu alayhi vasallam o'qiganlaridek o'qib berdilar. Ya'ni harfan-harfan zaboniy tushuntirib berdilar.

241. Qatoda dedilar: Men Anas roziyallohu anhudan "Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning qiroatlari qanday edi?" deb savol kildim. Anas roziyallohu anhu dedilar: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning qiroatlari madlik bo'lar edi (mad – bir harfni cho'zibroq o'qish) (Ya'ni, mad qilmoq zarur bo'lgan maqomlarda mad qilar edilar. Lekin mad qilishda tajvid qoidasiga muvofiq mad qilinadi. Ziyoda va kam qilinmas edi. Chunki har narsaning o'z miqdori bor. Undan ziyod va kam qilish mazammatlanadir).

242. Ummu Salama roziyallohu anho dedilar: Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qiroat qilganlarida har oyatni uzib, alohida qilib o'qir edilar. Birini ikkinchisiga qo'shib, aralashtirib o'qimas edilar. Masalan, ALHAMDU LILLAXI RABBIL 'ALAMIYN deb to'xtar edilar. Keyin AR-RAXMONIR-RAHIYM deb yana to'xtar edilar. Keyin MALIKI YAMID-DIYN deb to'xtar edilar.

243. Abdulloh ibn Abu Qays dedilar: Men Oisha roziyallohu anhodan savol qildim: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Qur'oni karimni ichlarida beovoz o'qir edilmidi yo ovoz bilan o'qir edilmidi?" Onamiz dedilarki: "Har ikki tariqada o'qir edilar". Men dedim: "ALHAMDU LILLOHki dinimizda kengchilik paydo qilibdilar" (ya'ni Islomda tahajjud va boshqa namozlar qiroatini ovoz chiqarib o'qilsin yoki maxfiy o'qilsin, vaqtga va nashotga qarab, qanday o'qilsa-da durustdir. Bu Islom go'zalliklaridan biri).

244. Ummu Xoniy roziyallohu anho dedilar: Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Masjid-al-Haromda kechqurun tilovat qilar edilar. Men ovozi muboraklarini uyimda, tom tepasida eshitardim. Chunki bu zotning uylari Harami Makkaga nihoyatda yaqin edi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Qur'oni karimni nihoyatda sof va dona-dona qilib ovoz bilan o'qir edilar.

245. Abdulloh bin Mug'afal roziyallohu anhu dedilar: Men Makkai mukarrama fatx qilingan kuni Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni tuyalarining ustida: INNO FATAHNO LAKA FATXAN MUBIYNAN, LIYAG'FIRA LAKA-ALLOHU MO TAQADDAMA MIN ZANBIKA VA MO TAAXXARA jumllalarini o'qib turganlarini eshitdim. Janob qiroatlarida

tarji' qilar edilar. (Ya'ni, tuyaning harakatidan ovozlari uzilib, qayta-qayta degandek eshitilar edi. «O» demoqchi bo'lsalar, «O-o-o» bo'lib, ovoz chiqar edi).

246. Qatoda roziyallohu anhu dedilar: Alloh taolo bir Nabiyni nihoyatda xush surat va nihoyatda xushovoz qilib yuborgandir. Nabiyi karim sollallohu alayhi vasallamni hammadan chiroylik va hammadan xushovoz qilib yuborgandir. Janob Qur'oni karimni nihoyatda yoqimli tilovat qilar edilar. Lekin ashulachilar kabi nag'ma qilib o'qimas edilar.

247. Ibn Abbos roziyallohu anhumo dedilar: Janobi Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam Qur'on tilovat qilsalar, ovozlari shu qadar baland bo'lar ediki, uyda o'qisalar saxndagi odamlarga eshitilardi.

*I z o h. Bu bobda kelgan hadislar mazmunlaridan shu xulosa olinadiki, Qur'oni karim tilovat qiluvchilar o'z holatlari va maqomlari va zavqlariga muvofiq o'qisinlar. Ovoz chiqarib o'qish matlub bo'lsa, ovoz chiqarib, xufiya matlub bo'lsa xufiya o'qisinlar. G'arazlari Allohning rizosi va dinning yuksalishi bo'lsin. Riyo va sum'a kabi narsalar aralashmasin.*

## **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING YIG'LAGANLIKLARI VA ZORILARI HAQIDA BAYON QILINADI**

Insonning yig'lashi bir necha sababdan bo'ladi. Goho bir kishiga rahmi kelib yig'lar, goho qo'rqib yig'lar, goho sog'inib yig'lar, goho xursandlikdan yig'lar, goho og'riqdan yig'lar, goho xafalikdan yig'lar, goho mazlumlikdan yig'lar, goho tavba qilib yig'lar, goho munofiqlikdan yolg'on yig'lar. Rasuli akram sollallohu alayhi vasallamning yig'ilari aksari biror o'lgan musulmon holiga achinib, rahmlari kelib, shafqatdan bo'lar edi, yoki Alloh Taolodan qo'rqib va Uning muhabbatidan yig'lar edilar.

248. Abdulloh ibn Shixxir roziyallohu anhu dedilar: Bir kun men Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga keldim. Janob namozga mashg'ul ekanlar. Ichlaridan yig'laganliklaridan go'yo mis qozon qaynab turgan kabi ovoz kelar edi.

249. Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhu dedilar: Bir kun menga Rasululloh sollallohu alayxi vasallam "Qur'on o'qib eshittir" dedilar. Men dedim: "Yo Rasulalloh, men o'zlariga o'qib eshittiraymi, holbuki, Qur'oni karim o'zlariga nozil bo'lgandir". Janob dedilar: "Men Qur'onni boshqadan eshitishni do'st tutaman". Abdulloh ibn Mas'ud dedilar: "Keyin men surai NISO'ni boshladim. O'qib borib, bu oyat sharifaga yetdim: (Tarjimasi) Qachonki, biz har ummat ustiga bir guvohni xozir qilsak va sizni ular ustiga guvoh qilib keltirsak, kofirlarning hollari qanday bo'ladi?" Shu oyatga yetganda ko'rdimki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning ikki muborak ko'zlaridan yosh oqib turardi.

250. Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhumo dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam zamoni muboraklarida bir marta kun tutildi. Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam turib, masjidga bordilar va namoz boshladilar. Shu qadar uzun qiyom qildilarki, ruku' qilmas ekanlar deb gumon qilindi. Keyin ruku'ga bordilar. Shu qadar uzun ruku' qildilarki, bosh ko'tarmas ekanlar, deb gumon qilindi. Keyin ruku'dan qomaga turdilar. Unda ham shu qadar uzun turdilarki, sajdaga bormas ekanlar, deb gumon qilindi. Keyin sajdaga bordilar. Shu qadar uzun sajda qildilarki, sajdadan bosh ko'tarmas ekanlar deb gumon qilindi. Keyin jalsaga turdilar. Unda ham shu qadar uzun turdilar. Keyin yana

shundok uzun sajda qildilar. So'ng ikkinchi raka'atni ham shunday uzun o'qidilar. Ikkinchi raka'atning ikkinchi sajdasida ox tortib, dam olar edilar, va yig'lar edilar, va Allohga nolalar qilib, dargoxiga arz qilar edilar: "Parvardigor, sen menga va'da qilgan edingki, sening hayotingda men ummatlaringga azob yubormasman", va va'da qilgan eding-ki, mudom ummatlaring istig'forgia mashg'ul tursalar, ularga azob yubormasman". Endi biz hammamiz istig'forgia berildik". Keyin Janob sollallohu alayhi vasallam namozdan forig' bo'ldilar, kun ochilib, ravshan bo'lib ketdi. Keyin Janob va'z qildilar. Xudoga hamdu sano aytgandan keyin dedilar: «Oftob bilan oy Alloh Taoloning oyatlaridandir. Bir kishining o'lishi yoki tirilishi uchun tutilmaydi, qachon bu ikkisi tutilsa, sizlar Xudoga mutavajjix bo'linglar va namoz va istig'forgia mashg'ul bo'linglar».

251. Ibn Abbas roziyallohu anhumo dedilar: Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning bir qizlari (qizlarining qizlari) xasta bo'lib, o'lishga yaqin borganda quchoqlariga oldilar, yana oldilariga qo'ydilar. Keyin u bola vafot qildi. Bu holni ko'rib, cho'rilari Ummu Ayman roziyallohu anho ovoz bilan yig'lab yubordilar. Janob dedilar: Sen Rasululloh xuzurinda ham ovoz bilan yig'laysanmi? Ummu Ayman dedilar: O'zlarining yig'lab turganlarini kurmay turibmanmi? Janob dedilar: Mening yig'lashim mamnu' yig'i emas, bu Alloh Taolo mo'min bandasining kungliga paydo qilgan rahmatdir. Keyin dedilar: Mo'min banda har qanday holda yaxshilikda bo'ladi. Hatto uning o'z jonini badanidan chiqarilur holda ham Xoliqiga shukr va sano aytadi.

*I z o h. Ulamolar deydilar, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning xech bir qizlari yoshligida vafot qilmagan. Bu qizlari Zaynab roziyallohu anhoning qizlaridir. Lekin bu zot ham o'sha bemorlikda o'lib ketmay, shifo topib ketgandilar. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam vafotlaridan keyin dunyoda uzoq yashadilar. Hatto Ali roziyallohu anhu u zotni o'z nikohlariga oldilar, va shaxid bo'lgan zamonlarida ham nikohlarida bor edilar. Endi yuqoridagi "vafot qildi va Ummu Ayman yig'ladilar" degan so'z ma'nosi, vafot qilishiga yaqin bordilar.*

252. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o'zlarining emishgan birodarlari Usmon ibn Maz'un roziyallohu anhu vafot qilganlarida yuzlaridan o'pdilar. O'sha holda ikki ko'zlaridan yoshlari oqib yig'lab turardilar.

253. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasuli akram sollallohu alayhi vasallamning qizlari Ummu Gulsum roziyallohu anhoning janozalariga xozir bo'ldik, va qabristonga ham bordik. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o'zlari qizlarining qabrlari ustida o'tirgan edilar. Ko'rdimki, u zotning ikki ko'zlaridan yoshlari oqib turibdi, dedilar: "Oralaringizda bu kecha xotiniga yaqinlashmagan kishi bormi?" Abu Talxa roziyallohu anho dedilar: "Men, yo Rasulalloh". "Sen bu qabrga tushgin". Keyin u zot qabrga tushdilar.

*I z o h. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qizlari Ruqiya roziyallohu anho vafotlaridan keyin ikkinchi qizlari Ummu Gulsum roziyallohu anhani Usmon roziyallohu anhoga nikoh qilib bergan edilar. Bu zot vafotlarida erlari Usmon qabrga qo'ymoq uchun yaqin keldilar. Lekin Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bu kecha jimo' qilmagan kishi dafn qilsin deganlarida o'zlarini tortdilar. Chunki o'sha kecha xotinlari o'lib tursalar ham, bir cho'ri bilan shar'i suxbat qilib edilar. Bu hol sollallohu alayhi vasallamga ma'lum bo'lib edi. Shuning uchun Usmon roziyallohu anhuga yengil bir 'itob maqomida shunday dedilar.*

## **BU BOBDA RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING TO'SHAB YOTADIGAN YOTOQLARI HAQIDA BAYON QILINADI**

254. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning yotadigan va ustida uxlaydigan to'shaklari charmdan (ya'ni ichiga xurmo daraxtining po'stloqlari solingan teridan) edi.

255. Imom Muhammad Bokir raximahulloh dedilar: Oisha roziyallohu anhodan bir kishi savol qildi: "O'zlarining uylarida Sarvari koinot sollallohu alayhi vasallamning to'shaklari qanaqa edi?" Javob berdilarki, "to'shaklari ichiga xurmo daraxtining po'stlog'i to'ldirilgan charm edi". Hafsa roziyallohu anhodan bir kishi so'radi: "Sizning uyingizda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning to'shaklari qanaqa edi?" Dedilar: "Jundan bo'lgan bir qo'pol chodar edi, biz uni ikki buklab, Janobning ostlariga to'shab berar edik. Ustida Janob orom olar edilar. Bir kecha men dedim: Shu chodarni agar to'rt buklab bersam, taglari muloyim bo'lar edi. Keyin men uni to'rt buklab to'shab berdim. Tong otganda Janob sollallohu alayhi vasallam aytdilar: Bu kecha mening ostimga nima to'shab berdinglar? Men dedim: O'zlarining har kungi to'shaklarini to'rt buklab berdik, o'zlariga muloyimroq bo'lsin dedik. Janob dedilar: Bu to'shakni avvalgi holiga qo'yib to'shanglar, to'rt buklamanglar, uning muloyimligi mening tahajjud namozi uchun tezroq turishimga mone' bo'ldi.

## **RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING TAVOZE'LARI HAQIDA VOQEALAR**

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam tavoze'larining voqealari mingdan ziyodadir, hammasini bayon qilib bo'lmaydi. Uning uchun musannif raximahulloh tarafidan bu kitobida bir necha hadis tabarrukan zikr qilingan.

256. Umar ibn al-Xattob roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Ey, musulmonlar, sizlar meni madh va ta'rif etishda nasorolar Iso alayhissalomni madh va ta'rif etgani kabi haddan oshmanglar va mubolag'a qilmanglar. Haqiqat shuki, men Alloh Taoloning bandasiman. Sizlar ham meni Alloh Taoloning bandasi va Rasuli deb yod qilinglar. (Ya'ni, yod qilganda undan shirk yo g'uluv tushuniladigan lafzlar iste'mol qilinmasin).

257. Anas roziyallohu anhu dedilar: Bir ayol Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga keldi va dedi: Yo Rasulalloh, mening xos o'zlariga bir xojatim bor, shuni arz qilmoqchiman. Janob dedilar: Madina ko'chalaridan qaysi bir ko'chani xohlasang, shunda o'tir, men birga o'tirib arzingni eshitay.

258. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam xastalarning holini so'ramoq uchun yotgan yerlariga borar edilar. Dildorliklar qilar edilar va janozalarga xozir bo'lar edilar. Va eshakka ham minar edilar va qul ziyofat qilib chaqirsa ham qabul qilib borar edilar. Bani Qurayza yahudlari bilan urush bo'lgan kunlarda shunday bir eshakka mingan edilarki, uning yugani yo tizgini xurmo daraxtining pustlog'idan ishlangan ip edi va uning egar to'qimi ham xurmo daraxtining po'stlog'idan ishlangan edi.

259. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning arpa unidan bo'lgan non va turib qolib islanib qolgan yog'dan iborat bir ziyofatga chaqirsalar ham, qabul etib borar edilar. Janobning urushda kiyadigan bir zurralari bir yaxudiy qoshida garov edi. Vafot qiladigan zamonlarigacha shu zurrani garovdan bo'shatib oladigan bir narsa topa olmadilar, vafotlaridan keyin Abu Bakr roziyallohu anhu ajratib oldilar.

260. Anas roziyallohu anhu dedilarki: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bir tuyaga minib, xaj qildilar, uning to'qimlari eski edi va uning ustida bir chodir bor ediki, qimmatini to'rt tangaga ham baholanmas edi. Janob shu holda bu duoni o'qir edilar (Tarjimasi): "Ey, Alloh, mening bu hajimni riyo va sum'adan pok bir haj qilgin!" (Riyo va sum'a deb odamlar ko'rsin va odamlar eshitsin deb ibodat qilishni aytiladi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hech bir ibodatlarida riyo va so'm'a bo'la olmas edi. Bu duoni ummatni ogoh etmoq va ularga ta'zim maqsadida degandilar).

261. Anas roziyallohu anhu dedilarki: Sahobai kiromlar ichida uning Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan maxbubroq kishisi bo'lgan biron kishi yo'q edi. Barchalariga Janob hammadan ziyod maxbub edilar. Shunday bo'lib turib ham xech birlari Janob kelganlarida o'rinlaridan turmas edilar, chunki Janob o'zlarining ta'zimi uchun bir kishining turishini yomon ko'rar edilar.

*I z o h. Bu xususda ulamolar ixtilof kilganlar. Xulosasi shuki, turiladigan odam ahvoliga qaraladi. Haqiqatda turishga munosib bo'lib, undan kibri ziyoda bo'lmaydigan bo'lsa, turilsa joiz, bunday bo'lmagan suratda nojoizdir. VALLOHU A'LAM.*

262. Hasan ibn Ali roziyallohu anhumo dedilar: Men tog'am Xind ibn Abi Xola roziyallohu anhudan savol qildim. U zot Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak sifatlarini ko'p bayon qilar edilar. Men u zotning shamoili sharifalaridan biroz bayon qilib berishlarini so'radim. Tog'am dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam zoti maqdaslari nihoyatda ulug', oliy sifatleri g'oyatda yuksak bir zot edilar. Muborak chehralari un to'rt kechalik to'lgan oy kabi duraxshon edi, deb yuqorida birinchi bobda bayon bo'lgan uzun hadisni tamom o'qidilar.

Hasan roziyallohu anhu dedilar: Men bu hadisni bir muddatga qadar ukam Xusaynga bayon qilmay turdim. Keyin bayon qilib edim, ma'lum bo'ldiki, u mendan avval tog'amdan bu hadisni so'rab eshitib olgan ekan. Balki otamizdan ham bobomiz sollallohu alayhi vasallamning uyiga kirishlari va tashqariga chiqishlari va tarzu tariqalarini so'rab olibdi. Xech bir narsani qo'ymabdi. Ukam Xusayn deydi: Men otamdan Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning uyiga kirishlari haqida savol qildim. Otam dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qachon uylariga kirsalar, uydagi vaqtlarini uchga taqsim qilar edilar. Bir xissasini Allohning ibodatiga va shunga taalluqli ishlarga bag'ishlar edilar, bir xissasini uydagilar haqlarini ado qilmoq va ular bilan o'tirib, so'zlashib, axvollarini bilmoq kabi ishlarga bag'ishlar edidar, bir xissasini esa o'zlarining zaruriyatlariga va xususiy ishlariga ajratar edilar. Keyin shu o'zlariga xos bo'lgan xissani ikkiga bo'lib, o'zlari bilan odamlar o'rtasiga taqsim qilar edilar. O'sha xissada xoslarni sabab qilib turib, avomga naf tegizar edilar. (Ya'ni, xoslar kirib suxbatlaridan istifoda qilar edilar, va ular vositalari bilan ommaga naf yetar edi).

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o'z majlislariga xozir bo'lganlardan xech bir narsani

ayamas edilar. Diniy va dunyoviy manfaatlarni ulardan darig` tutmas edilar va Janobning odati karimalaridan biri shu ediki, kelguvchilardan ahli ilm va axli amallarni kirishga ijozat berishda boshqalarga tarjix berar edilar. Hamda vaqt berishda ularning dini fazlu sharaflariga muvofiq taqsim qilar edilar. Kelguvchilarning ba`zilarini birgina xojati bo`lar, ba`zilarining ikki hojati bo`lar, ba`zilarida bir necha xojati bo`lar edi. Janob hammalarining hojatlarini ravo qilar edilar, va ularni ularning o`zlariga ham va ummatga manfaati bo`ladigan ishlarga mashg`ul qilar edilar. Jumladan, diniy muxim ishlar bo`lsa, Janobdan savol qilardilar va Janob ularga munosib bo`lgan ishlarni bildirardilar. Derdilarki, sizlardan bu majlisda xozir bo`lgan zotlar hozir bo`lmaganlarga bu yerda bo`lib o`tgan foydali so`zlarni yetkazsinlar. Hojatini menga yetkaza olmaganlarning xojatlarini sizlar menga yetkazinglar, chunki kimki podshoxga o`zi uni yetkaza olmayotgan bir odamning xojatini yetkazsa, Alloh Taolo qiyomat kuni u odamni sobit qadam qiladi. Shuning uchun sizlar hamisha xayr ish uchun vosita bo`linglar.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qoshlarida bundan boshqa so`zlar qilinmas edi. Majlisda foydasi va manfaati bo`lmagan so`zni xech kimdan qabul ham qilmas edilar. Sahobalar qachon majlisi nabaviyga kirsalar, diniy ishlarining isloxiga tolib bo`lib kirar edilar, va to biror manfaat xosil qilmay chiqib ketmas edilar. Majlisi muborakdan chiqqanlar xalq uchun raxnamo va xalqni xayr ishlarga dalolat etguvchi bo`lib chiqar edilar.

Ukam Xusayn deydilar: Men otamdan bobomiz sollallohu alayhi vasallamning tashqariga chiqishlari haqida savol qildim. Otam dedilar: Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o`zlariga zarurati bo`lmagan so`zlardan muborak tillarini saqlar edilar. Kelguvchilarga dilbarlik qilib, o`zlariga rom qilar edilar, va ularni o`zlaridan qochirmas edilar. Har qavmning buyugi va aziziga xurmat-izzat ko`rgizar edilar, va uni o`zlariga sardor qilar edilar. Odamlarni Alloh Taoloning azobidan qurqitar edilar, va o`zlari odamlardan extiyotda bo`lar edilar. Lekin odamlarni lutfu marxamatlaridan yaxshi mijoz yo yaxshi xulqlaridan maxrum etmas edilar, va ashoblarning ahvolidan boxabar qilar edilar va odamlar oralarida nima hollar bor, odamlardan so`rab turar edilar. Yaxshi narsani yaxshi der edilar va uning o`zini va qilguvchisini madx va ta`rif etar edilar, va yomon narsani yomon der edilar va qilguvchisini mazammam va o`zidan man` etar edilar. Barcha ishlari mo``tadil bo`lib, har biriga muxolif bo`lmas edi. Hamisha so`zlari fe`llariga va fe`llari so`zlariga muvofiq bo`lar edi. Ashoblarning nasihat va irshodlaridan beparvo bo`lmas edilar. Chunki beparvo bo`lsalar, ular ham beparvo bo`ladilar. Rohat, ishratga berilib ketadilar deb, qo`rqar edilar. Har bir holat uchun yetarli tayyorliklari bo`lar edi. Har bir xodisaning ilojini qilishdan avval ko`rib qo`yar edilar. Haq bir ishni bajarganda kamchilik qilmas edilar, va xaddan tajovuz ham qilmas edilar. Suhbatlariga yaqin bo`lguvchilar sahobalarning nixoyatda mumtozlari bo`lar edilar. Janob sollallohu alayhi vasallam qoshlarida ularning afzalliklari ommai xalq uchun ziyoda xayrixoxlari bo`lar edilar, va martabalari balandlari odamlar bilan murosasi va yordami yaxshi bo`lar edilar. Hasan roziyallohu anhu dedilar: Men otamdan bobomiz majlisleri haqida savol qildim. Otam dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning o`tirish va turishlari hamisha Alloh Taoloning zikri bilan bo`lar edi. Bir laxza ham Allohning zikridan alohida bo`lmas edilar, qachon bir qavm to`plangan bir majlisga borsalar, qaysi joy holi, bo`sh bo`lsa, o`sha joyga o`tirar edilar, va boshqalarni ham shunday qilmoqqa buyurar edilar. Janob hamma hamnishinlarining haqqini ado qilar edilar. Kulmoq, so`zlashmoq, iltifot qilmoqda hammalari bahra olar edilar. Xech bir hamnishinlari Janobga o`zidan boshqani muxtaram bilmas edi. Balki hammadan muxtaram va yaqinman der edilar. Har kim Janob

majlislarida bo'lsa, yo suzlashib qolsa, Janob majlisda ham, so'zda ham undan ziyoda sabrlik bo'lar edilar. To u zot o'zi turib ketmasa, Janob turmas edilar. Har kim Janobdan bir xojat tilasa, yo o'sha tilagini olib ketar edi yo biror shirin so'zlarini va uzrlarini eshitib ketar edi. Xulqlari va yaxshi mijozlari har qanday bir insonni sig'dira olar edi. Hammaga barobar ota edilar. Hamma qoshlarida haqda barobar edi. Majlislari hamisha hilm, hayo, imonat va sabr majlisi bo'lar edi. Majlislarda ovozlari baland ko'tarilmas, hurmatlar poymol etilmas, unda bo'lib o'tgan xatolar tashqariga tarqatilmay edi. Majlisdagilar hammalari barobar bo'lar edilar. Balki taqvosini borlar afzal xisob qilinar edilar. Hammalari tavozi'lik bo'lar edilar. Ular majlisda kattalarga xurmat va kichiklarga rahmu shafqat qilar edilar. Xojati bor odamni o'zlaridan haqliroq bilib, Janobga yaqin qo'yar edilar. Musofir, g'arib kelib qolsa, hurmatlab, haqqini ado qilar edilar. G'arib navozliklarini isbot etar edilar.

*I z o h. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Xudoga maxbub bo'lgan yaxshi xulqlarning barchasi uchun timsol mujassam edilar. Tamomi kamolat bilan ziynatlangan edilar. Alloh Taolo hammamizga har bir xulqda Janobga ergashmoq baxtini nasib etsin. Omiyn.*

263. Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: "Agar menga qo'yning pochasin xadya qilinsa ham qabul etaman va uni pishirib, meni chaqirilsa ham boraman". (Ya'ni, hadya naqadar odamlar nazarida haqir bo'lsin va ziyofat naqadar sodda va betakalluf bo'lsin, men uchun maqbuldir. Men Alloh Taoloning har qanday ne'matini ne'mat bilaman va chaqiruvchi va xadya berguvchining dilini ovlayman).

264. Jobir roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh salloloxu alayhi vasallam mening bemorlik holimda so'ragani uyimga keldilar. Na xachirga mingan edilar va na ajami otga. Balki muborak oyoqlari bilan piyoda keldilar.

265. Yusuf ibn Abdulloh ibn Salom roziyallohu roziyallohu anhumo dedilar: Mening nomimni Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Yusuf qo'ygandilar, va meni quchoqlariga o'tirg'izib, boshimga muborak qo'llarini yetkazgandilar. (Ya'ni, shafqat bilan boshimni silagandilar).

266. Amra roziyallohu anho dedilar: "Oisha roziyallohu anhodan savol qilindi, Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam o'z uylarida nima ishlar bilan mashg'ul bo'lar edilar?" Onamiz javob berdilar: "Janob sollallohu alayhi vasallam insonlarning biri edilar. Liboslarini o'zlari qarar edilar. Jonivorlarning sutini o'zlari sog'ar edilar, va o'z xizmatlarini o'zlari qilar edilar".

*I z o h. Liboslarini boqishdan murod Janobning muborak vujudlariga bit kabi narsalar paydo bo'lishi uchun emas, balki, boshqadan kirganmikin deb, yo ummatga ta'lim uchun boqar edilar.*

## **RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING AXLOQ VA ODATI SHARIFALARI HAQIDAGI HAQIQATLAR**

Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning axloq jamila va odat sharifalari tamomi olamga mashhurdir. Do'st ham, dushman ham e'tirof etadi. Hammadan ziyoda ta'rif Qur'oni karimning «Nun» surasida Yaratuvchi Xoliq tarafidan bilan Qiyomatgacha islom

mehroblarida tilovat etiladi. Haq jalla va 'alo marhamat kiladi: "VA INNAKA LA'ALO XULUQIN AZIYM". Ya'ni, ey Muhammad, shubhasiz, siz albatta, nihoyatda buyuk bir xulq sohibidirsiz.

Hadis kitoblaridagi mazmunlarning ziyoda xislati shu muborak xulqu aziz ta'rifidir. Sollallohu alo sohibihi vasallam.

267. Xorija ibn Zayd ibn Sobit roziyallohu anhu dedilar: Bir jamoa Zayd ibn Sobit roziyallohu anhu huzurlariga kelib, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ahvoli shariflaridan bizlarga bayon berishini so'radilar. Zayd dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallam axvollaridan sizlarga nimani bayon qilay? Men Janobga hamsoya edim. Qachon vaxiy nozil bo'lsa, menga odam yuborar edilar. Men borib, yozib berar edim. Janobning odatlari biz saxobalar qachon dunyodan so'z qilsak, dunyodan so'z qilar edilar va qachon oxiratdan so'z qilsak, oxiratdan so'z qilar edilar. Qachon taomdan so'z qilsak, taomdan so'z qilar edilar. Mana shu bayon qilgan narsalarim Rasululloh sallollohu alayhi vasallam axvollaridir. (Ya'ni, xulqlarining oliyligidan ashoblari bilan har qanday suhbatda hamroh bo'lar edilar. Lekin Janob bayonlari va shirkatlari tamomi befoyda narsalardan pok bo'lib, qaysi bobda so'zlasalar, hamnishinlari uchun foyda va manfaatning o'zi bo'lar edi).

*I z o h. Zayd roziyallohu anhu payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning vahiy kotiblaridan birlari edilar. Bu zotdan boshqa yana sakkiz sahoba bu davlatga musharraf edilar. Usmon, Ali, Ubba, Mu'oviya, Xolid ibn Sa'id, Xanzala, Alo Xazramiy, Abon ibn Sa'id roziyallohu anhum ajma'iy.*

268. Amr ibn al-Os roziyallohu dedilar: Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam odati sharifalari goho majlislarida bor zotlarning ichida xolis, sof dilni ulfatlantirmoq qasdida qavmning eng yomoniga yuzlarini qilib xususiy so'zlashar edilar. Undan avval odam o'zini xos hamsuhbatlardan xayol qilar edi. Chunonchi, menga ham yuzlanib, xususiy suratda guftagu qilar edilar. Men Janob xuzurlarida qavmning yaxshisi men bo'lsam kerak deb xayol qildim. Shu xayol ustida bir kuni men Janobga savol qildim. "Yo Rasululloh, men afzalmanmi yo Abu Bakrmi?" Janob dedilar: "Abu Bakr afzal". Keyin dedim: "Men afzalmanmi, yo Umarmi?" Janob dedilar: "Umar afzal". Keyin men dedim: "Men afzalmanmi yo Usmonmi?" Janob dedilar: "Usmon afzal". Men Janobdan ochiq-ravshan so'roq qilgan edim, Janob tamomi sarohat bilan haqiqatni so'zladilar. Mening xotirim uchun madorat uchun meni afzal demadilar. Rostning o'zini so'zladilar. Keyin men dedim: Men bunday savollar qilmog'im munosib emas edi. Koshki bu savolni qilmagan bo'lsam. Arzi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamda rost muomala va rost so'zdan boshqa narsa yo'q edi. Dunyoda bu sifatdan ham ulug' sifat bo'la olurmi?

269. Anas roziyallohu anhu dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga o'n yil xizmat qildim. Janob bu uzun muddatda menga biror marta «uf» demadilar. (Ya'ni, ranjigan odam deydigan so'zni qilmadilar va men bir narsani qilib qo'ygan bo'lsam, «nima uchun bunday qilding?» demadilar. Bir narsani qilmay qo'ygan bo'lsam, «Nima uchun buni qilmading?» demadilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam tamomi insonlarning xush xulqi edilar. Va pok jismlari ham shunday edi. Men hech bir ipak parchani yo holis ipakni o'zini yo biror muloyim narsani ushlamadimki, Janobning muborak kaftlaridan yumshoqroq bo'lsa va xech bir mushkni yo atrni iskamadimki, Janobning muqaddas badanlaridan tomgan terdan xushbo'yroq bo'lsa.

*I z o h. Bu hadis muborakda mubolag'a yoki g'alat hech yo'qdir. Haqiqat o'zi shudir. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak terlarini jam qilib xushbo'y o'rnida iste'mol etmish sahobai kirom o'rtalarida mashhur bo'lgan. Bu borada ajib bir xikoya ham bor. Bir kun Anas roziyallohu anhu majlisda o'tirib, nixoyatda xursand bo'lib turib, dedilar: Men ushbu qo'llarim bilan Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qo'llariga musofaxa qilganman. Umrimda men Janob qo'llaridan muloyim ipak parcha yo holis harirni ushlamadim va ko'rmadim. Bu so'zni eshitib, o'tirgan shogirdlari savol qildilarki, men ham ushbu qo'llarim bilan Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qo'llariga musofaxa qilgan qo'lga musofaxa qilishni orzu qilaman. Baxtiyor shogirdning tamannosi sabab bo'lib, dunyoda bu odat bu kungacha ya'ni, ming to'rt yuz yildan ziyoda muddat joriy bo'lib keldi, va muhaddislar o'rtalarida musofaxa hadisi nomi bilan mashhurdir. Shu hadisni rivoyat etishga musalsil musofaxa qilinib kelingandir.*

270. Anas roziyallohu anhu dedilar: Bir kun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qoshlarida bir odam o'tirgan edi. Ustida sariq rangli libos bor edi. Janobning odat sharifalari bir kishida nomunosib narsani ko'rsalar, o'z yuziga demas edilar. Shuning uchun xomush o'tirdilar. Keyin sariq liboslik odam turib ketgandan keyin majlisda o'tirganlarga dedilar: Sizlar bu bechorani sariq libos kiymakdan man qilsangizlar yaxshi bo'lar edi.

271. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam mizoji muboraklari shunday ediki, tab'larida xulqi bexayolik o'zi yo'q edi. Takalluf bilan hamma bexayolik so'zlarni majlislarda qilmas edilar. Bozorlarda baland ovoz bilan so'z qilish odatlari yo'q edi. Bir kishi Janobga yomonlik qilsa, Janob esa unga yomonlik qilmas edilar. Balki afv etar edilar va gunohidan o'tar edilar.

*I z o h. Yomonga yomon jazo bermay va undan intiqom olmay afv etmoq voqeasi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning butun hayotlarining har lahzasida jilva qilib turgan duraxshon sifatlaridir. Bu sifat tavzihi ustida bir ajib hikoya bordir. Zayd ibn Sa'na degan bir yahudiy bor edi. O'z tili bilan bayon qiladiki, men nubuvvat, ya'ni, payg'ambarlik alomatlarini Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak vujudlarida to'liq topdim. Magar ikki alomat qolgan edi. Biri Nabiyning hilmlari g'azablariga g'olib kelur, ikkinchisi, bir kishi nabiyy xuzurlarida naqadar nodonlik va axmoqlik qilsa, Janobning tahammul va bardoshlari shu qadar ziyoda bo'lur. Men bu ikki sifatni ham Janobda topilarmikan deb, bir necha kun tekshirib turdim. Janob bilan aloqa va do'stlik rafti va omadin ko'proq qilib turdim. Bir kun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam hujrai saodatdan tashqariga chiqdilar. Ali birga edilar. Rubaro'lariga badaviyga o'xshagan bir odam kelib savol qildi: "Yo, Rasulalloh, mening qavmim musulmon bo'lgandilar. Men ularga degan edimki, musulmon bo'linglar, agar sizlar musulmon bo'lsangizlar rizqlaringiz farovon bo'lur. Endi bugun ahvol shundayki, ularning ustilariga ocharchilik keldi. Hammalari qiynalgan. Bu hol sabab bo'lib, ular Islom dinidan chiqib ketmasalar edi. Shuning uchun sizdan umid qilamanki, shularga biror yordam yetkizsalar". Janob Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Ali roziyallohu anhuga qaradilar. U zot arz kildilarki, yo, Rasulalloh xozir qoshimizda xech bir narsa yuq. Zayd ibn Sa'na aytadi: Men bu holatni tomosha qilib turar edim. Men aytdim: Yo, Muhammad, siz agar falon kishining bog'idan bu qadar xurmoni muayyan vaqtda menga bera olsangiz, men sizga hozirdan o'sha miqdor xurmoning pulini avvaldan beraman. Va o'sha muayyan vaqtda sizdan xurmoni to'liq olaman. Janob dedilar: Men bu muomalani qila olmayman.*

*Magar, bog'ning nomini olmay, tayin qilmay pul bersang, men muomala qilay. Men dedim: Qabul qildim. Keyin o'sha miqdor xurmoning qiymati uchun sakson misqol nakd tilla berdim. Janob mendan tillani olib, so'z qilgan badaviyga berdilar va dedilar: "Birodar, insof bilan ish qil. Hammalarining xojatlarini ravo qil". Zayd bin Sa'na dedi: Endi, Xurmoni Janobdan qabul qilib olishga bir-ikki kun qoldi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam sahobalar bilan bir janozadan forig' bo'lib, bir tarafda turgan ekanlar. U yerda Abu Bakr va Umar roziyallohu anhumo ikkilari ham bor ekanlar. Men u jamoaga bordim va Janobning kuylak chodralarini tutib, turib nihoyatda achchiq va qo'pollik bilan dedim: Muhammad, sen mening qarzimni bermaysanmi? Xudo nomiga qasam ichib deymanki, men senlarni - avlodi Abdulmutallibni hammalaringni yaxshi bilaman. Senlar birovning haqqini olasizlar, lekin bermaysizlar. Umar roziyallohu anhu g'azablari kelib, meni turtdilar va dedilar: "Ey, Xudoning dushmani, nimalarni aytib aljirab turubsan? Agar men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan qo'rqmasam, vallohi boshingni uzib tashlar edim". Lekin Rasululloh sollallohu alayhi vasallam tabassum bilan menga boqib turar edilar. Umar roziyallohu anhuga nihoyatda yaxshi bir iltifot bilan boqib dedilar: "Ey, Umar, men bir narsaga va bu haqdor yana bir narsaga ziyoda muhtoj edik. U narsa shu edi-ki: Menga yaxshilik bilan xaqni ado etishga va bunga yaxshilik bilan xaqni talab qilishga nasixat qilsang bo'lar edi. Endi, ey Umar, bu odamni olib bor, haqqi qancha bo'lsa topshir, va ozor berganliging uchun yigirma so' ortiq bergin". Keyin Umar meni olib ketdilar va haqqimni tamom topshirdilar. Ustiga yana yigirma so' ziyoda berdilar. Men dedim: Bu yigirma so' nima uchun berilyapti? Umar dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday hukm berdilar. Keyin men dedim: Yo, Umar, sen meni taniysanmi? Umar dedilar: Men seni tanimayman. Men dedim: Zayd bin Sa'naman. Umar dedilar: Shu nomda yahudlarning bir katta allomasi bor, deb eshitar edim, o'sha odam senmisan? Men dedim: o'sha odam menman. Keyin Umar dedilar: Sen agar o'sha buyuk alloma bo'lsang, ne uchun Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga shunday odobsizlik qilding? Men dedim: Nubuvvat alomatlarining hammasini Janobda mavjud topdim. Magar ikki alomatni topolganim yo'q edi, va ularni ham imtixon qilmoqqa navbat kelgan yo'q edi. Endi har ikkisini ham imtihon qildim. Janobda mukammal bor ekan. Biri - hilmlarining g'azablariga g'olib kelishi, ikkinchisi - nodonning jaholatidan tahammullarining ziyoda bo'lishi. Bugungi muomala bularni isbot qildi. Endi, ey, Umar, men musulmon bo'lganligimga seni guvoh qilaman, va deymanki, mening yarim molim ummati Muhammadiyyaga sadaqadir.*

*Bu so'zni deb Zayd ibn Sa'na Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga qaytib keldi. Qo'llarida musulmon bo'ldi. Keyingi barcha g'azotlarda ishtirok etdi. Tabuk g'azotida shahid bo'ldi. Roziyallohu anhu (manbaa: "Jam'u-l favoidi jam'u-l vasoil").*

272. Oisha roziyallohu anho dedilar: Janobi Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam Alloh yo'lidagi jihoddan boshqa maqomda muborak qo'llari bilan xech kimni urmadilar. Na bir xodimni va na bir xotinni.

273. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga bir kishi zulm qilgan bo'lsa, shu zolimdan o'chlarini olganliklarini biror marta ham ko'rmadim. Magar, bir kishi Alloh Taolo harom qilgan narsalardan birini poymol etgan bo'lsa, uning uchun xammadan ziyoda g'azablari kelar edi, va Janobga qachon ikki ishdan birini qilmoqqa ixtiyor berilgan bo'lsa, u holda qaysi biri osonroq bo'lsa (agar ma'siyat bo'lmasa), shuni ixtiyor etar edilar.

274. Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: Bir kun bir odam Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga kirmoq uchun izn so'radi. Janob avval dedilar: Bu odam o'z jamoasining naqadar yomon o'g'lidir, yo naqadar yomon birodaridir. Keyin u odamga ijozat berdilar. Kirdi, va unga muloyim so'zlar qildilar. Men Janob qoshlarida edim. Haligi kishi chiqib ketgandan keyin savol qildim: Yo, Rasulalloh, bu odam haqida ba'zi so'zlarni qildingiz, keyin unga muloyim so'zlar qildingiz. Janob dedilar: Ey, Oisha, uning yomon so'zligidan odamlar uni tashlab qo'yadigan kishi insonlarning nihoyatda yomonlaridan hisoblanadi. Men bu odamga muloyim so'z qilishim uning behayolik va yomon so'zligidan saqlanmoq va qavmini buning fitnasidan asrab qolmoq uchun edi.

275. Hasan roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Husayn roziyallohu anhu dedilar: Men otamdan bobomiz Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hammajislari bilan bo'lgan siyratlarini so'radim. Otam dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam hamisha chehralari kulib turgan xushmijoz bir zot edilar. Bir maslahatga qo'shilishlari oson, yumshoq tabiat edilar. Na qattiq so'zlik, na toshdillik, na hayosiz, na ayblaguvchi, na manman va na adovatlik bir zot edilar. Nomunosib so'z va fe'l bo'lib qolsa, undan beparvo bo'lar edilar. Lekin o'zlari muvaffaqat etmas edilar va o'zlaridan biror odam biror narsaga umidvor bo'lsa, ma'yus o'tmas edilar. Uch narsadan o'zlarini alohida qilib olgan edilar: birinchi, noshar'iy janjaldan, ikkinchi, o'zlarini ulug'lashdan yoki so'zni ko'p qilishdan, uchinchi, bekor so'z, bekor ishdan. Uch narsadan xulqini ham alohida qilib qo'ygan edilar: birinchi, hech kimni yuziga yomonlamas edilar, ikkinchi, hech kimni ortidan ham ayblamas edilar, uchinchi, hech kimning aybini topmoq uchun tajassus etmas edilar. Va qachon so'z qilsalar, savobi umid etilgan narsa uchun so'z qilar edilar. Va qachon so'z gavharlarini majlisda sochsalar, huzurlarida hozir zotlar hammalari boshida go'yo qush o'tirgan odamdek, odob va ehtiyot bilan o'tirar edilar. Qachon Janob so'zdan to'xtasalar, keyin ular so'z qilar edilar. Lekin Janob huzurlarida so'z ustida janjal qilmas edilar. Va kimki qoshlarida so'z boshlasa, uning so'zi tamom bo'lguncha hammalari xomush turib, so'ziga quloq solar edilar. Hammalarining so'zlari Janob qoshlarida birinchilari so'z boshlaganda qanday ehtimom bilan eshitilsa, shunday eshitilar edi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ashoblari nimaga kulsalar, unga kular edilar. Va nimadan taajjub qilsalar, undin taajjub qilar edilar. Va qachon bir g'arib va musofir kelib, so'zlab qolsa, uning so'zini birga eshitar edilar. Qo'polliklarini ko'tarar edilar. So'zida va savolida bo'lgan og'ir aziyatlariga sabr qilar edilar. Shuning uchun sahobai kirom g'arib va musofirlarni Janobning suhbatlaridan istifoda qilishlari uchun xuzuri muboraklariga olib kelar edilar.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam der edilarki, agar biror xojatmand insonni ko'rsangizlar, madad va muso'ada etinglar. Va bir kishining sano va ta'rifini qabul etmas edilar. Magar haqiqatda bir kishi ko'rgan exsonga tashakkur maqomida bir narsa so'zlasa, sukut qilar edilar. Hech kimning so'zini band qilib, to'xtatmas edilar. Magar so'zda xaddan tajovuz qilsa, u holda so'zdan man qilar edilar, yo turib ketar edilar.

276. Jobir roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam agar bir kishi bir narsa so'ragan bo'lsa, u narsa o'zlarida bor bo'la turib hargiz yo'q demaganlar. Balki berganlar. Agar yo'q bo'lsa, va'da qilar, yoki haqqiga yaxshi duo qilardilar. VALLOHI TAOLO u odamni beniyoz qilgandir.

277. Ibn Abbas roziyallohu anhumo dedilar: Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ehsonda va karamda bashar jinsi qila olmagan saxovatni qilar edilar. O'zlari darveshona

xayot kechirar edilar. Lekin exsonda shoxanshoxlarni sharmisor etar edilar. Butun yil axvollari shu bo'ldi. Lekin ramazoni muborakda karamlari xaddan tashqari bo'lar edi. Xususan, Jabroil alayhis-salom kelib Qur'oni karimni eshitdirar vaqtlarida, yomg'ir keltiradigan shamoldan ham ziyoda saxiy bo'lar edilar. Do'st va ahli va noaxil hamma barobar naf olar edi.

278. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ertangi kun uchun xech bir narsani zaxira qilib olib qo'ymas edilar. Balki Alloh Taologa tavakkul qilar edilar. Ya'ni, shu bugun nima mavjud bo'lsa, yeb-edirib tamom qilar edilar. Ertaga zarurat bo'lib qolur degan xayol bilan olib qo'ymas edilar. Bu hol o'z xususlarida edi. Ammo volidalarimiz nafaqalarini o'z-o'zlariga topshirib berar edilar. O'z haqlariga o'zlari ozod va o'zlari muxtor edilar. Xoxlaganlaridek tasarruf qila olar edilar, xoxlasalar saqlab qo'yar edilar, xoxlasalar taqsim qilib xalos qilar edilar. Lekin Janobning xonadonlari har bir holatda Janobga ergashar edilar.

279. Umar ibn al-Xattob roziyallohu anhu dedilar: Bir kishi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga hojat talab qilib keldi. Janob dedilar: Bu soatda mening qoshimda xech bir narsa yo'qki, senga bersam. Endi sen mening nomimdan kerakli narsangni sotib ol. Qachon menga biror narsa paydo bo'lib qolsa, qarzni men uzaman. Umar dedilarki: Yo, Rasulalloh qo'llarida davlat bor zamonda berdilar, endi qudratlari yetmagan narsani bermakka mukallif emaslar-ku. Janobga Umar roziyallohu anhunging so'zlari nomunosib ko'rildi. Shu soatda madinalik bir sahoba dedilar: Yo, Rasulalloh, har yo'l bilan bo'lsa ham bersinlar. Arsh Moliki tarafidan keladigan atolarni kam bo'lishidan qo'rqmasinlar. Janob u zot so'zlaridan tabassum qildilar va dedilarki: "Shu narsaga buyurilganman".

280. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam xadyani qabul qilar edilar. Va unga mukofot ham berar edilar. Va mukofotlari olgan xadyalaridan yaxshiroq narsa bo'lar edi.

281. Abu Sa'id Xudriy roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam pardada o'tirgan qiz boladan ham ziyoda hayoli edilar. Qachon bir narsani yomon ko'rsalar yomon ko'rganliklarini bizlar chexralaridan bilar edik. (Ya'ni, tillari bilan bayon qilmas edilar).

282. Oisha roziyallohu anho dedilar: Men Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning nihoyatda xayoli bir inson bo'lganliklaridan biror bor uyat yerlariga boqa olmadim va boqmadim.

*I z o h. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam nihoyatda sharmli uyatchan bir inson bo'lganliklaridan uyat yerlarini shu qadar extiyot bilan berkitar edilarki, xatto volidalarimizdan ham maxfiy tutar edilar. Hammadan maxbub, hammadan bemalol erka xotinlari modomiki ko'ra olmagan bo'lsalar, boshqa volidalarimiz xech ko'ra olmagan bo'ladilar. Endi o'z hamxonalaridan shu darajada extiyot qilib uyat yerlarini ko'rsatmagan zoti aqdas boshqaning avratini qanday ko'ra olurlar. Onamiz Ummu Salama roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qachon ahliyalaridan birlari bilan suxbat qilmoqchi bo'lsalar, ko'zlarini berkitib, boshlarini past qilib olar edilar. Va axliyalariga ham og'ir mijoz va sharmlik turishga amr berar edilar.*

## **RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING QORTIQ BILAN QON OLDIRGANLIKLARI HAQINDA BAYON QILINADI**

Xijom kalimasi mixjama bilan qon olish deganidir. Mihjama - qon oladigan asbobning nomi. Qon oldirish badan muolajalaridan biri bo'lib, xasta odam uchun muolaja qildirmoq tavakkul sifatiga xilof emas. Arbobu tavakkul imomlarining peshvolari Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdirlar. U Janob sollallohu alayhi vasallam qilgan ishni xilofi tavakkul demoq ham jaholatdir. Banda bilmog'i lozimki, tavakkul ma'nosi sabablarni ro'yobga chiqarib, so'ng Xudoga suyanmoqdir.

283. Xumayd dedilarki, Anas roziyallohu anhudan "Qon olguvchining ujrasi haqida joizmi yo nojoizmi?" deb savol qilindi. Anas dedilar: "Rasululloh sollallohu alayxi vasallam xijomat qildirdilar. Abu Tayyiba ismli kishi qonlarini oldi. Keyin uning ujrasi uchun ikki so' taom buyurdilar. Va uning hojasi bilan so'zlashib xirojidan bir so' kam qildirdilar. Va dedilarki, qilib yurgan ilojlaringizning yaxshilaridan biri qon oldirmoqdir".

*I z o h. Abu Tayyiba Bani Xorisa jamoasining quli edilar. Xojalari degan ediki: Har kun bizga uch so' xurmo topib keltirib bersang, ortgani o'zingga. Bu odam qortiq qo'yib, so'rib qon olishni bilar edilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bu odam qulidan kon oldirib, haqiga ikki so' taom yo xurmo buyurib berdilar. Va xojalari bilan so'zlashib, har kun beradigan uch so' xurmoni ikki so'ga tushirdilar. Keyin xijomat muolajasi muolajalarning yaxshilardan biri ekanligini bayon qildilar. Bu hadisdan yana ma'lum bo'ladiki, xijomat qilib olingan ujra xalol ekan.*

284. Ibn Umar roziyallohu anhumo dedilar: Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bir hijom qortuq bilan qon oladigan odamni chaqirtirib buyurdilar: U qonlarini oldi. So'radilarki: har kun xojalaringga beradigan narsalaring qancha? U odam dedi: uch so'. Keyin Janob uning hojalari bilan so'zlashib, bir so'ini kamaytirdilar. Va haqini berib jo'natdilar.

285. Anas roziyallohu anhu dedilar: Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam muborak bo'yinlarining ikki tarafidan va ikki yelkalarining o'rtasidan qortuq bilan qon oldirar edilar. Va g'oliban o'n yettinchi, o'n to'qqizinchi, yigirma birinchi tarixlarda oldirar edilar.

286. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sallohu alayhi vasallam Makkai mukarrama bilan Madinai munavvaraning o'rtalarida Malal degan bir mavzeda exromda turib, qadamlarining orqasidan qortuq bilan qon oldirdilar.

*I z o h. Exrom holatida qon oldirmoq ba'zi imomlar qoshlarida makruxdir. Lekin xanafiylarda badan tuki to'kilmay yo qirilmay olinsa, joizdir.*

## **RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING NOM VA LAQABLARIDAN BA'ZILARI**

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam asmoi muboraklari haqida ulamolar turli rivoyatlar keltirganlar. Ibn al-Arabi sharxi Termiziyda asmoi muboraka adadlarini bir mingga yetkazgandir. Imom Suyutiy bir mustaqil risolada besh yuzga yetkazganlar. Musannif raximaxumulloh bu bobda tabarrukan ikki hadis keltirganlar.

Bu ikki hadisda to'qqiz nom keltirilgan.

287. Jubayr Mut'im roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat qildilar: "Mening bir nechta nomim bordir. Men Muhammaddirman, Ahmaddirman, Mohidirman, Alloh Taolo men bilan dunyodan kuforni mahv etadi. Men Xoshirdirman, odamlar mening izmimdan xashr etiladilar va men Oqibatdirman. Oqibat ma'nosi hammadan keyin kelguvchi bo'ladi. Ya'ni, Janob sollallohu alayhi vasallamdan keyin payg'ambar kelmas.

288. Xuzayfa roziyallohu anhu dedilar: Men Madina ko'chalarining birida Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan muloqot etib qoldim. O'sha vaqtda Janob dedilar: Men Muhammaddirman, Axmaddirman. Nabiy-ar-Raxmatdirman, Nabiy-at-Tavbadirman va Mukaffidirman va Hoshirdirman va Nabiy-al-Maliximdirman. Nabiy-ar-Rahmat ma'nosi Rahmat payg'ambari demakdir. Va Nabiy-at-Tavba ma'nosi Tavba payg'ambari va Mukaffi ma'nosi hamma payg'ambardan keyin kelguvchi yoki hamma payg'ambarga itbo' qilguvchi va Nabiy-al-Maloxim urushlar payg'ambari demakdir.

### **RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING HAYOT KECHIRISHLARI HAQIDAGI VOQEALAR**

289. Oisha roziyallohu anho dedilar: Bizlar Ahli va Avlodi Muhammad sollallohu alayhi vasallam komil bir oyga qadar uyimizda o't yoqmas edik. Faqat xurmo va suv bilan o'tar edik. Ya'ni, yemak uchun xurmodan boshqa bir ne'mat xonai saodatda bo'lmas edi. Xurmo ham kifoyat qilmaganligida suv bilan qorin to'yg'azar edik.

290. Abu Talxa roziyallohu anhu dedilar: Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlarida nihoyatda och qolganligimizdan shikoyat qildik va qorinlarimizga bog'lab olgan bir-bir toshlarimizni ko'rsatdik. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bu so'zni eshitib, o'zlarining muborak qorinlarini ochdilar. Qarasak, Janob qorinlariga ikki tosh bog'lab olibdilar.

291. Abu Hurayra roziyallohu anhu dedilar: Bir kun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday bir vaqtda uydan tashqariga chiqdilar, odat sharifalari u vaqtda ko'chaga chiqmas edilar. Va xech bir odam u vaqtda huzurlariga xozir bo'lmas edi. Janob ko'chaga chiqqan zamonlari ro'baro'laridan Abu Bakr roziyallohu anhu kelib qoldilar. Janob savol qildilar: Ey Abu Bakr nima uchun bevaqt kelib qoldingiz? Abu Bakr dedilar: Jamoli muboraklarini sog'indim. Salom bergim keldi (Haqiqatda u zotga ochlik paydo bo'lgan edi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ranjimasinlar deb, izxor qilmadilar). Birozdan keyin Umar roziyallohu anhu ham kelib qoldilar. Janob sollallohu alayhi vasallam bu zotga ham yuqoridagi savolni qildilar. Lekin Umar dedilar: Yo, Rasulalloh, meni ochlik bu yerga keltirdi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat qildilar: Ochlik menga ham biroz ma'lum bo'lib turibdi. Keyin bu uch zot Abu Haysam Ansoriy degan bir zotning makonlariga bordilar. Abu Haysam madinalik sahobalarning boylaridan bo'lib, katta bir xurmozor bog'lari bor edi. Echkilari ham ko'p edi. Lekin xizmatchilari yo'q edi. Uning uchun uy ishlarini o'zlari qilar edilar. Bu uylariga borganlarida uydarlarga shirin suv olib kelmoq uchun o'zlari ketgan edilar. Janob xotinlaridan so'rganlarida shunday javob berdilar. Keyin biroz vaqt o'tmay, kelib qoldilar. Meshilarini suvga to'ldirib kelibdilar. Ko'rdilarki, Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam va ikki ashobi muxtaram bu zot

xonalariga da'vatsiz tashrif qilibdilar. Bu holni ko'rgach, yugurib kelib Sarvari olam sallolohu alayhi vasallamni quchoqlab olib, dedilar: Ota-onam fido bo'lsin, yo Rasululloh, xush kelibdilar.

Keyin u zotlarni boshlab, bog'lariga kirdilar. Va ular uchun bisotlar to'shadilar. O'tirg'izib qo'yib, o'zlari xurmo keltirmoq uchun bordilar. Bir bosh to'da xurmoni keltirib, qoshlariga qo'yidilar. U shohda pishgan va pishmagan har turli xurmolar bor edi. Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat kildilar: "Nima uchun butun bir boshni keltirdingiz? Bunda xomlari ham bor ekan. Bekor qoladi. Pishganlarini olib kelsangiz bo'lmasmidi?" Abu Xaysam dedilar: "Men shu niyatda keltirdimki, Janob xoxlaganlaridan tanovul qilsinlar. Xoxlasinlar pishganidan, xoxlasinlar g'urasidan yesinlar". Keyin har uch mexmon mukarram xurmodan yedilar. Va suvdan ichdilar. Va Rasullulloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: "Jonim qo'lida bo'lgan Zotga qasamki, bugungi bu ne'mat o'sha ne'matlardandirki qiyomat kunida undan savol qilinasizlar". (Ya'ni, bu uch ne'matki – oromlik, soya va shirin yangi xurmo va muzdek sovuq suv). Keyin Abu Xaysam mexmonlarga taom xozirlamoq uchun o'rinlaridan turib yurib qoldilar.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Ey, birodar, bizlar uchun jondor so'ymoqchi bo'lsangiz, sut berib turgan narsani so'ymang. Keyin Abu Xaysam roziyallohu anhu bir echkinning bolasini so'yib, nihoyatda tezlik bilan taom xozirlab keldilar. Hammalari u taomdan tanovul qildilar. Keyin Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Ey, Abu Xaysam, xodimingiz bormi? Abu Xaysam dedilar: xodimim yo'q. Janob dedilar: Kachon bizga bir tarafdin g'ulomlar kelsa, yodimizga soling, xojatingizni ravo qilamiz. Ittifoqo, bir tarafdin ikki adadgina g'ulom kelib qoldi. Abu Xaysam roziyallohu anhu va'dalarini yodga solmoq uchun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam xuzurlariga keldilar.

Janob dedilar: Bu ikki adad g'ulomdan qaysi biri xizmatga munosib ko'rilsa, olib boring. Abu Xaysam dedilar: Mavlomiz o'zlari menga birini xoxlab bersinlar. Janob dedilar: Mushavvara so'ralgan inson amin bo'ladi. Mana bu g'ulomni oling, uni namoz o'qib turganini ko'rdim. Lekin mening bu g'ulom xususida sizga tavsiyam shuki, buning haqida xayrixox bo'ling. Keyin Abu Xaysam roziyallohu anhu g'ulomni olib uylariga bordilar. Bo'lgan voqeani va Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning vasiyatlarini xotinlariga bayon qildilar. Xotinlari dedilar: Siz Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning tavsiyalarining haqini ado qila olmassiz. Munosibi shuki, bu g'ulomni ozod qilib yuboring, shoyad rizolarini topsangiz. Abu Xaysam roziyallohu anhu o'zlariga nihoyatda zarur bo'lgan bir g'ulomni Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning xushnudliklari uchun Alloh Taolo yo'lida ozod qilib yubordilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga bu voqea ma'lum bo'lgan edi, har ikkilaridan xush bo'lib dedilarki: Alloh Taolo har nabiy va uning xalifasi uchun ikki botiniy maslaxat berguvchi va dalolat qilguvchini paydo qilgan. Ulardan birlari yaxshilikka dalolat qiladi, va targ'ib beradi va yomonlikdan man qiladi. Ikkinchisi, barbod bo'lmog'i va xalokati uchun hamisha ko'shish qiladi, va bu xususda xech sustlik qilmaydi. Har kim yomon yo'llarga dalolat etguvchi rafiqdan saqlanib qolsa, u odam tamomi yomonlik va xalokatdan salomat qolibdi.

292. Sa'd ibn Abi Vaqqos roziyallohu anhu dedilar: Ummati islomiyada hammadan avval Xudo yo'lida qon to'kkan zot menman. Va hammadan avval Xudo yo'lida o'q otgan odam ham menman. Sahobai kiromning bir jamoalari bilan bir zamonlarda shunday holda urush qilar edikki, u kunlarda daraxtlar bargi va tikanli daraxtlar mevasidan boshqa bir narsani yemas edik. Bora-bora og'izlarimizning ichlari yara bo'lib ketdi. Qaysi birimiz

taxorat ushatsak, quy kabi yo tuya kabi ushatar edik. Men shunday kunlarni ko'rib kechirgan bo'lsam, bu kun Bani Asad qabilasi mening dinim haqida menga tanbeh berurlarmi? U holda mening tamomi amallarim zoe bo'lib, o'zim ziyonkor va noumid bo'lgan bo'lurman.

*I z o h. Bu hadisda sahobai kirom roziyallohu anhumning avvali Islomdagi holatlaridan bir namuna ko'rsatilgandir. Bu uzun bir xadisning bir qismidir.*

293. Xolid ibn Umayr va Shuvays ikkilari dedilar: Umar roziyallohu anhu Utba ibn G'azavonga buyurdilar: sen barcha yuldoshlaring bilan birga ilgariga qadam qo'y. Bora-bora Arab mamlakatining oxiriga va Ajam mamlakatining avvaliga yetasan. Bular xukmga bo'ysungan holda ilgari yurdilar. Bora-bora Basraning Mirbadi, ya'ni, xurmo jam qilib quritadigan yeriga yetdilar, u yerda yumshoq toshlarni ko'rdilar. Dedilar: Bu nima? Ba'zilari dedilar: Bu Basradur: Basra deb, oqqa moyil bo'lgan oqni aytilur. Keyin yana yurdilar. Bora-bora Dajla daryosining kichik ko'prigining yaqiniga yetdilar. Keyin dedilarki, Umar roziyallohu anhu turmoq uchun sizlarga amr bergan yer shu yerdir. Keyin shu yerga tushdilar, va unda qaror oldilar, deb roviylar hadisni tamomini bayon qildilar.

Shu xadis oxirida Utba roziyallohu anhumning xutbalari bordir, unda deyiladi: Bir kunlar shunday xolatlarni ko'rdikki, men yetti nafarning yettinchilari edim. Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan birga edik. Yemaklarimiz daraxtlarning barglari edi. Barglarni yeb-eb og'izlarimizning ichlari yara bo'lib ketdi. O'sha kunlarda men yerdan bir chodir topib oldim. Uning yarmini Sa'dga berdim: bizlar avvali Islomda shunday kulfatlar ko'rgan edik. Bu kunlar o'sha yetti kishi hammamiz bir-bir katta shaharda amirmiz. Lekin Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam yo'llaridamiz. Lekin sizlar oz kunda boshqa amirlarni ham ko'rasizlar.

294. Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Men Alloh taoloning yo'lidan u zamon qo'rqitildimki, hech kim qo'rqmas edi. Va u zamon aziyat berildimki, xech kimga aziyat berilmas edi. Va mening boshimdan shunday o'ttiz kecha va kunduz o'tdiki, men bilan Bilol ikkimiz uchun jonvor yeydigan bir taom yo'q edi. Magar shunchalik bir narsa bo'lar ediki, uni Bilol o'z qo'ltig'ida saqlar edi.

*I z o h. Bu hadisdan tushunarli bo'ladiki, Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o'zlari va hammadan avval Islom diniga musharraf bo'lgan sobiqin avvalin roziyallohu anhum avvali Islomda inson ko'rmagan jafo va aziyatlarni ko'rgandilar. Xudoni yakka va yagona e'tiqod qilganliklari uchun mushriklar qo'llaridan xar turli ozor berildilar. Ular o'ldiramiz, deb qo'rqitdilar. Butun dunyo xalqi har xil roxat va amniyatda bo'lgan bir zamonda ular uchun keng jaxon ignaning ko'zi kabi tor bo'ldi. Lekin bu imtihonlarda sabr qilgan zotlarga dunyoning o'zida ham Alloh Taolo buyuk mukofotlar ato qildi. Oxiratdagisi inshoolloh alohida turibdi.*

295. Anas roziyallohu anhu dedilar, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning na ertalabki taomlarida va na kechki taomlarida non va go'sht ikkisi jam bo'lgan emas edi. Balki biri bo'lsa, ikkinchisi bo'lmas edi. Magar qachon bir mexmon majlisi bo'lib qolsa, u holda, albatta, non va go'sht ham jam qilinar edi. (Ya'ni, Janob o'zlari va xonadonlari tanho bo'lsalar – mehmon bo'lmasa – u holda go'sht bo'lsin yo non bo'lsin o'zini tanovul qilar edilar. Takalluf qilib o'tirmas edilar).

296. Navfal ibn Iyos dedilar: Abdurahmon ibn Avf bizlarga hamnishin edilar. Va nihoyatda yaxshi bir hamnishin edilar. Bir kun bizlar bilan barobar bir yerdan qaytdilar va o'zlarining uylariga bizni olib bordilar. Borgan zamonlari g'usl qildilar. Keyin qoshimizga chiqdilar. Huzurlariga katta bir taboqda go'sht va non keltirildi. Abdurahmon ibn Avf uni ko'rib yig'ladilar. Men so'radim: Nima uchun yig'layapsiz? Abdurahmon dedilar: Janobi Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam dunyodan rihlat qildilar. Va hayotlarining oxirigacha na o'zlari va na xonadonlari arpa unidan bo'lgan nonning o'zidan qorinlari to'ymaydi. Mening xayolim shuki, Janobdan keyin bizlarning bu nadar ne'matlarga g'arq bo'lishimiz bizlar uchun yaxshi bo'lmasa kerak.

297. Muhammad ibn Sayrin raximahulloh dedilar: Bir kuni bizlar Abu Hurayra roziyallohu anhuning xuzurlarida o'tirgan edik. Badanlarida ikki adad qizil rangli liboslari bor edi. Ulardan biriga burunlarini tozaladilar, keyin dedilar: ajab-ajab bu kun Abu Hurayra kanap libosga burnini tozalar. Men bir kuni o'zimni shunday holda ko'rganmanki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning minbarlari bilan Oisha roziyallohu anho hujralarining o'rtasida bexush bo'lib yiqilib yotar edim. O'tkinchi odam kelib, oyog'ini bo'ynimga qo'yar edi. Va gumon qilar ediki, men jinni bo'lgan bo'lsam, holbuki, men jinni emas edim. Ochlikkina meni shu holga solib qo'ygan edi (Arablar bexush odam hushiga kelsin deb, buyniga oyoqlarini qo'yadi).

298. Molik bin Danbor roziyallohu anhu dedilar: Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam xech bir vaqt nonga va go'shtsa ham muborak qorinlari to'ygan emas. Magar, muborak xonalariga mexmon kelib qolsa, u xolda mexmonlarga yedirmak uchun va ularga iltifotlar qilib tuyulsa, mumkin edi.

## **RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING MUBORAK YOSHLARI HAQIDAGI TAHQIQ**

Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning yoshlari haqida ulamolar uch xil fikrdalar. Jumxur muxaddisin va muarrixin qavllari va sahih qavl shuki, yoshlari 63 ga borgan. Ikkinchi qavlda 60 dedilar. Bu qavlda g'oliban undan ziyodasini zikr kilinmay aytilgandir. Bu tariqa ham arablarda bir qoida bor. Uchinchi qavlda 65 deyiladi. Bu qavlda tug'ilgan yillari bilan vafot qilgan yillarini alohida sanalgan.

299. Ibn Abbos roziyallohu anhumo dedilar: Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam nubuvvatdan keyin o'n uch yil Makkai mukarramada turdilar. Bu asnoda Janobga vaxiy tushib turdi. Va Madinai munavvarada o'n yil turdilar. Va Madinada yoshlari 63 ga kirganda vafot qildilar.

300. Muoviyya roziyallohu anhu bir bor xutbalarida dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam 63 yoshda vafot qildilar. Va Abu Bakr va Umar roziyallohu anhumo ikkovlari ham shu yoshda ketdilar. Va men ham xozir 63 yoshdaman. (Ya'ni, umidim borki, menga ham tab'iy itbo' nasib bo'lib qolsa).

*I z o h: Lekin Muoviyya roziyallohu anhuga umrda Sayyidi olamra itbo' nasib bo'lmadi, balki taxminan 80 yillar umr ko'rdi.*

301. Ibn Abbos roziyallohu anhumo dedilar: Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam 65 yoshlarida vafot qildilar.

### **RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING VAFOTLARI HAQIDA**

Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning vafotlari tamomi tarix ittifoqlari bilan dushanba kuni bo'lgan. Tarix o'ninchi sana xijriyning rabi'ul avvali edi. Aksari muarrixlar o'n ikkinchi rabi'ul avval dedilar. Lekin muxaddislar taxqiqlarida ikkinchi rabi'ul avvalda ekanligi sahih ko'rilgan. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam vafotining avvali bosh og'riqdan boshlandi. O'sha kuni validamiz Oisha roziyallohu anhoning uylarida edilar. Keyin Maymuna roziyallohu anho navbatlari bo'lgan kunda dardlari yana ziyoda bo'ldi. Shu hollarda ham validalarimizning navbatlarini barobar berib turdilar. Xastaliklari tobora ziyoda bo'la boshlagan edi, Janobning ishoralari bilan hamma validalarimiz to bemorlikdan tuzalgunlaricha Oishaning uylarida tursinlar deb rozi bo'ldilar. Avvali va oxiri o'n ikki kun yo o'n to'rt kunda dunyodan oxirat diyoriga rihlat qildilar. Va dushanba kuni chosht vaqtda bu voqea vujudga keldi.

302. Anas roziyallohu anhu dedilar: Mening Janobi Rasuli akram sollallohu alayhi vasallamning muborak diydorlariga oxiri musharraf bo'lishim dushanba kuni edi. Bomdod nomozini sahobai kirom Abu Bakr roziyallohu anhuning orqalarida o'qib turib edilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam birdan xonai saodat pardasini ko'tardilar. Ummatlarining namozlarini ko'zdan kechirdilar. U vaqt Janobning chexrai muboraklari safoda, nurda guyo mushaf sharifning sof bir varag'iga o'xshar edi. Bu holni ko'rib, sahobalar orqaga surildilar – shoyad namozga kelsalar, degan umidda betoqat bo'ldilar. Janob sollallohu alayhi vasallam hammalaringiz o'z-o'z joylaringizda turinglar deb ishora qildilar, va pardani tushirdilar. Va shu kunning oxirida jon taslim qildilar.

303. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning vafot qilgan kunlarida men Janobni o'z siynamga suyab o'tirdim. Jon berilishdan avval bir idish talab qildilar. Unga peshob qilib bo'lganlaridan keyin jon berdilar.

304. Oisha roziyallohu anho dedilar: Men Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni ko'rdim, jon berib turgan soatlari edi. Qoshlarida bir idishda suv bor edi. Muborak qo'llarini u idishga solib, chexrai anvorlariga surkar edilar, va der edilar: "Yo, Alloh, o'lim achchiquklari ustida menga madadkor bo'l".

305. Oisha roziyallohu anho dedilar: Men Janobi Rasululloh sollallohu alayxi vasallamning vafot soatida qiynalganliklarini ko'rganimdan keyin biron kishining oson o'lishini ko'rib, uni orzu qilmadim. (Ya'ni, oson jon bermoq o'sha jon berguvchining fazilati bo'la olmas ekan. Agar shunday bo'lsa edi, Sarvari koinot sollallohu alayhi vasallam oson jon berar edi).

306. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam vafot etgan vaqtlarida, sahobai kirom u zotning muborak jasadlarini qaysi yerga dafn etish xususida ixtilof qildilar. Ba'zilar masjidga, ba'zilar Baqi'ga (Madinadagi qabriston), ba'zilar bobolari ko'milgan joylari Quddus sharifga, ba'zilar asli vatanlari Makkai mukarramaga dafn qilaylik dedilar. Shu holda Abu Bakr roziyallohu anhu dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan bir hadis eshitganman. Uni xech faromush qilmadim: Alloh taolo har nabiiyning jonini nabiy u yerga dafn qilinishini do'st tutadigan bir yerda qabz

qiladi. Mana bu hadis mafxumicha jon taslim qilgan yerlariga dafn qilinsin. Keyin sahobai kirom jasad muborakni Oisha roziyallohu anxonining hujralariga dafn etdilar.

307. Ibn Abbos va Oisha roziyallohu anhumo dedilar: Abu Bakr roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi vasallam vafotlaridan keyin keldilar va muborak yuzlaridan bo'sa qildilar.

*I z o h. Bu bo'sa agarchi barakat xosil qilmoq uchun bo'lsa ham aslida, mahubbdan doimiy judolik soatida vido' bo'sasidir.*

308. Oisha roziyallohu anho dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam vafot qilganlaridan keyin Abu Bakr roziyallohu anhu xujrai saodatga kirdilar, va Janobning peshonalaridan bo'sa qildilar. Va ikki bilaklariga qo'llarini qo'yib turib "va anbiyo va asfiyoh va ahliloh" dedilar.

309. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Madinaga tashrif qilgan kunlarida, Madinaning har bir narsasi nurlik, duraxshon bo'lgan edi. Janob vafot etgan kuni Madinaning har bir narsasi qorong'u bo'ldi. Bizlarning qo'llarimiz tuprog'i kovidan va dafnlaridan bo'shagan ham emas edikki, dillarimizning o'zgarganligini sezdik.

*I z o h. Bu o'zgarish amallarda va aqidalarda emas edi, balki suxbatlarning fayzsiz bo'lishi va zoti baland sifatlaridan ajralish natijasi bo'lgan bir hol edi.*

310. Imom Muhammad Bokir raximahulloh dedilar: Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dushanba kuni vafot etdilar. O'sha kun va seshanba kechasi va seshanba kunduzi turdilar, va chorshanba kechasi kechqurun yerga qo'yildilar.

311. Abu Salama ibn Abduraxmon Avf roziyallohu anxumo dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dushanba kuni vafot qildilar, va seshanba kuni dafn qilindilar.

312. Solim bin Ubayd roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o'lim bemorliklarida behush bo'ldilar. Keyin xushlariga kelib, "Namoz vaqti bo'ldimi?" deb so'radilar. Xizmatlarida hozir zotlar «Ha. Namoz vaqti bo'ldi» dedilar. Bilolga aytinglar, azon aytsin. Abu Bakrga aytinglar, imom bo'lib, odamlarga namozlarini o'qib bersin", dedilar. Bu so'zni deb, yana bexush bo'ldilar. Yana xushlariga kelib, "Namoz vaqti bo'ldimi?" deb so'radilar. Hozirlar: "Ha", dedilar. Janob dedilar: "Bilolga aytinglar, azon aytsin. Abu Bakrga aytinglar imom bo'lib, odamlarga namoz o'qib bersin". Oisha roziyallohu anho dedilar: "Yo, Rasululloh, mening otam g'amga mag'lub bir zotdirlar. Janoblarini maqomlarida holi ko'rsalar yig'lab betoqat bo'ladilar va namoz o'qiy olmaslar. Boshqa bir kishiga amr bersalar". Rasululloh sollallohu alayhi vasallam yana bexush bo'ldilar. Hushlariga kelganlaridan keyin yana dedilar: "Bilolga aytinglar, azon aytsin va Abu Bakrga aytinglar imom bo'lib odamlarga namoz o'qib bersin". Keyin Oisha roziyallohu anxoga boqib dedilar: "Sizlar Yusuf alayhis-salomning sahobalari kabisizlar". Keyin Bilol roziyallohu anhuga azon uchun amr qilindi. Azon aytdilar, va Abu Bakr roziyallohu anxuga aytili. Odamlarga imom bo'lib, namoz o'qib berib turdilar, ya'ni juma kechasining xufton namozidan boshlab, dushanba kunining bomdod namoziga qadar, jami o'n yetti namozni imomat bilan ado qildilar. Bemorlik vaqtlarida Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam bemorlik vaqtlarida biroz tuzalgandek bo'ldilar, dedilar:

“Qaranglar, meni suyab masjidgacha olib boradigan odam bormikan?” Shu holda Oishaning ozod qilgan cho`rilari Bariyra bilan yana bir kishi kelib edi, ularga suyanib, Janob masjidga bordilar. Namoz jamoatda imom bo`lib turgan Abu Bakr roziyallohu anhu Janobni ko`rib, keyinlariga qaytib, mexrobni bo`shatmoqchi bo`ldilar. Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam «Joyingizdan qo`zg`almang» deb ishora qildilar. Keyin Abu Bakr roziyallohu anhu namozlarini tamom qildilar. Keyin Janob Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o`sha kun foni dunyodan vafot etdilar. Tamomi sahobalar mudhush bo`ldilar. Har qaysilari har xil holatlarga duchor bo`ldilar. Umar roziyallohu anhuga ajib bir kayfiyat zohir bo`ldi. E`lon etdilarki, biror kishidan “Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni vafot qildilar” degan so`zni eshitsu, men bu qilich bilan boshini olaman. Sahobai kirom hammalari bundan avval biror payg`ambar zamonini ko`rmagan va nabiy vafotlarida nimalar qilinadi, tajriba qilmagan, avvalgi payg`ambarlar kitoblarini o`qimagan va eshitmagan edilar. Shuning uchun Umar e`lonlari bilan hammalari xomush to`xtadilar. Sollallohu alayhi vasallam vafot etdilar degan so`zni qila olmadilar. Solim deydi: Hammalari menga dedilar: Ey, Solim, sen Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sohiblari Abu Bakrning qoshlariga borib, u zotni chaqirib kel. Men u zotni chaqirgani Avoliga bordim. Abu Bakr mahallalarining masjidida ekanlar. Men yig`lagan va hushim ketgan holda huzurlariga yetdim. Meni ko`rgan zamonlari “Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam vafot etdilarmi?” dedilar. Men dedim: Umar har kimdan «Rasululloh vafot qildilar» degan so`zni eshitsu, bu qilichim bilan buynini uzib tashlayman, dedilar. Abu Bakr Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning biroz tuzalganliklarini ko`rgach, o`zlaridan ijizat olib, ahllarini ko`rgani Avoliga ketgan edilar. Vafotlarining xabarini eshitib, men bilan masjidga keldilar. Odamlarning oralarini «qoch-qoch» deb yorib, xujrai saodatga doxil bo`ldilar, to`g`ri borib, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning ustlariga o`zlarini tashladilar va bo`sa qildilar va bu oyat sharifani tilovat qildilar (Tarjimasi): “Siz ham vafot qilursiz, va ular ham vafot qilurlar”.

Sahobalar dedilar: Ey Sahobi Rasul, Rasululloh vafot qildilarmi? Abu Bakr dedilar: Ha. Janob Dorul-baqoga rixlat qildilar. Bu so`zdan tamomi sahobalar bildilarki, Janob vafot qilibdilar. Abu Bakr roziyallohu anhuning oyat bilan qilgan istidlollari rostdir. Keyin yana savol qildilar: Ey Sahobi Rasul, Rasulullohga janoza namozi o`qiladimi? Abu Bakr dedilar: Ha. Janoza o`qiladi. Ular dedilar: Qanday o`qiladi? Abu Bakr dedilar: Bir jamoa kiradi, to`rt takbir aytadilar va Janobga salovot o`qiydilar va duo qiladilar. Keyin chiqadilar. Keyin boshqa jamoa kiradilar: Takbir aytadilar va salovot o`qiydilar va duo qiladilar va chiqadirlar. Mana shu tariqa hamma odamlar janoza o`qiydilar.

Sahobalar dedilar: Ey, Rasulullohning ashoblari, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni yerga dafn etiladimi? Abu Bakr dedilar: Ha. Yerga dafn etiladilar. Dedilar: Qaysi yerga dafn etiladilar? Abu Bakr dedilar: Alloh Taolo jonlarini olgan yerga dafn etiladilar. Chunki Alloh Taolo bu Janobning jonlarini yaxshi bir yerda qabz qildi. Shu yer munosibdir. Sahobalar bildilarki, Abu Bakr rost so`zladilar. Keyin Abu Bakr amr qildilarki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamniig muborak jasadlarini o`zlarining yaqin xeshlari yuvsinlar. G`usl qildirguvchi zot Ali roziyallohu anhu bo`ldilar. Abbos va o`g`illari Fazl ikkilari yordam berib turdilar. Qusay va Usoma shaqron parda orqasidan va ko`zlarini bog`lagan hollarida suv quyib berib turdilar. Laxadlarini Abu Talxa qazidilar.

Keyin xalifa tayin etish haqida mashvarat qilmoq uchun muxojirlar jam bo`ldilar. Abu Bakrga dedilar: Yuring, birodarlarimiz Ansori kirom xuzurlariga boraylik. Keyin ularning qoshlariga bordilar. Ularning kattalari Suqayfa Bani So`dada jam bo`lgan ekanlar.

Ulardan Habbob ibn al-Munzir dedilar: Bizlardan bir amir, sizlardan bir amir bo'lsin. Umar ibn al-Xattob roziyallohu anhu dedilar: bu oyatdagi uch fazilat jam bo'lgan zot kim: birinchi, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan hamisha birga bo'lgan, xususan, g'ordagi ikkinchi biri, ikkinchi, Kur'oni karim shaxodati bilan soxibligi sobit bo'lgan, bu suxbatga munkir albatta, kofir bo'ladi, uchinchi, Alloh Taoloning inoyatiga noyil bo'lgan. Bu oyatda zikr qilingan ikki zot kimlar? Umar roziyallohu anhu bu so'zni aytgandan keyin bay'at uchun qo'llarini uzatdilar. Abu Bakr roziyallohu anhu bay'at qildilar. Keyin Suqayfaga jam bo'lgan zotlar hammalari bay'at qildilar. Va nihoyatda yaxshi bir bay'at bo'ldi.

313. Anas roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam marazul-mavt alamlarini tortib turgan edilar, Fotima roziyallohu anho: «Xoy, otamni taklif qilinglar» dedilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: "Bu kundan keyin otangga taklif yo'qdir. Bu kun otangga shunday bir narsa keldiki, qiyomatgacha xech bir kishi uni o'zidan uzoq qila olmas. Endi muloqot qiyomat kuni bo'lur".

314. Ibn Abbos roziyallohu anhu dedilar: Men Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan bu so'zni aytib turganliklarini eshitdim. Mening ummatlarimdan kimning ikki farzandi yosh va go'dakligida o'lib ketgan bo'lsa, Alloh Taolo u ikki farzand tufayli uni jannatga doxil qiladi. Oisha roziyallohu anho dedilar: Agar bir kishining birgina farzandi o'lgan bo'lsa-chi? Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Kimning birgina farzandi o'lgan bo'lsa, uning ham xukmi shudir. Oisha dedilar: Ummatlaringizdan bir kishining birorta ham farzandi o'lgan bo'lmasa, uning holi qanday bo'ladi? Janob dedilar: Ular uchun men zaxira bo'laman. Ummatim uchun mening judoligimning ranji axlu-avlod judoligining ranjidan ziyodadir.

## **RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNING MEROSLARI HAQIDA**

Bu bobda kelgan hadislarning hammasining mazmuni shuki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan qolgan mol – sadaqadir. Vorislarga taqsim etilmas. Axli sunnat va jamoat ulamolari bu masalada hammalari ittifoq qilganlar. Tamomi nabiyalar qoldirgan narsalari ham aksari ulamolalar nazdida shundaydir. Buning sabablaridan biri shuki, nabiyalar qabrlarida tirikdirlar. Tirikning moli taqsim qilinmaydi. Va xotini boshqaga nikoh etilmaydi va hokazo.

315. Amr ibn al-Xoris roziyallohu anhu dedilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam o'zlaridan keyin faqat urushda kiyadigan qilich, nayza, zurra va qalqon kabi aslahalarini va hamisha minadigan duldul nomli xachirlarini va bir muncha yerlarini qoldirib ketdilar va ularni ham hayotlarida sadaqa qilgandilar.

*I z o h. Janobning yerlari Fidak zaminining yarmini va vodiy Quro zaminining uchdan biri va Bani Nadir zaminining uchdan biri va Xaybar Xumsidan iborat bo'lgan xissalari edi. Bu yerlarning xosili umumiy edi. Ya'ni o'zlariga, oilalariga va musulmon faqirlarga ulardin xissa taqsim etilar edi.*

316. Abu Hurayra roziyallohu anhu dedilar: Fotima roziyallohu anho Xalifai avval Abu Bakr roziyallohu anhu huzurlariga keldilar va savol qildilar: Sizdan qolgan meroslaringizni kim oladi? Abu Bakr roziyallohu anhu dedilar: Axlim va avlodim oladilar. Fotima dedilar: Shunday bo'lsa, men nima uchun otamning meroslarini olmayman? Abu

Bakr dedilar: Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan eshitganmanki: Bizlar (ya'ni, payg'ambarlar)ning vorislarimiz bo'lmaydi. Mollarimiz ularga taqsim etilmaydi, lekin men vaqflarga nazorat qiluvchi bo'lib turganligim uchun kimlarga Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bosh bo'lgan bo'lsalar, men ham ularga bosh bo'laman. Kimlarga Rasululloh sollallohu alayhi vasallam nafaqa berib kelgan bo'lsalar, men ham ularga nafaqa beraman.

317. Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Bizlarning vorislarimiz bo'lmaydi. Nima narsa bizlardan qolgan bo'lsa, u sadaqa bo'ladi.

318. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Mening vorislarim o'z o'rtalarida mendan keyin na tillo taqsim qiladilar va na kumush. Mendan nima qolgan bo'lsa, xotinlarim nafaqalariga va Xalifam zaruriyatiga sarf qilinadi. Ortgani sadaqa bo'ladi.

319. Molik ibn Avs roziyallohu anhu dedilar: Men bir kun Amirul-Mo'minin Umar roziyallohu anhu huzurlariga kirdim. Mendan keyin Abdurahmon ibn Avf va Talxa va Sa'd kirdilar. Bir ozdan keyin Ali va Abbos janjallashib keldilar. Umar roziyallohu anhuga boqib dedilar: Hammalaringizdan yeru osmonning moliki bo'lgan Xudo nomida qasam berib turib, savol qilaman: «Bilasizlarmi, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam degandilar: Bizning vorislarimiz bo'lmas, bizdan nima narsa qolsa, sadaqa bo'lur». O'tirganlarning hammalari dedilar: Ha, shunday deganlar.

*I z o h. Umar Ibn Nadir zaminidan Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning xissalarini Ali va Abbos ikkovlariga o'zlari va oilalari uchun harj qilib, ziyodasini sadaqa qilishlari uchun bergan edilar. Shu yer ustida janjal bo'lgan edi.*

320. Oisha roziyallohu anho dedilar: Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan na tilla va na kumush va na qo'y va na tuya qolgandir. Roviyy dedilar: Oisha va na qul va na cho'ri ham dedilarmi, yo demadilarmi? Lekin boshqa rivoyatlarda bordir.

## **RASULULLOH SOLLALLOHU ALAYHI VASALLAMNI TUSHDA KO'RMOQLIK HAQIDAGI HADISLAR**

Tushda bir narsani ko'rmoq uch turli bo'ladi. Birinchi, yaxshi tush, ya'ni, muborak xob – bu Alloh Taolo tarafidan bir bashorat bo'ladi. Ikkinchi, odam qo'rqadigan tashvishli tush – bu shayton tarafidan bo'ladi. Musulmonga ozor bermoq uchun ko'rsatiladi. Uchinchi – insonning o'z xayollari va vasvasalari tushda ko'riladi.

Bir musulmon agar Janobi Rasululloh sollallohu vasallamni tushida ko'rsa, haqiqatda Janobning o'zlarini ko'rgan bo'ladi. Shaytonda Janobning suratlariga o'tib turib ko'rinish qudrati yo'qdir.

321. Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Kimki tushida meni ko'rsa, u odam haqiqatda meni ko'rgan bo'ladi, chunki shayton mening suratimga o'tib ko'rinsa olmas.

322. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Janobi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Har kim meni tushida ko'rsa, u albatta, mening o'zimni ko'rgan bo'ladi. Chunki shayton mening suratimda ko'rinmaydi va menga o'xshay olmaydi.

*I z o h. Alloh Taolo payg'ambarimizning hayotlarida o'zlarini qanday shaytonning ta'sirlaridan salomat saqlagan bo'lsa, vafotlaridan keyin ham suratlarini uning kasridan maxfuz saqlagandir.*

323. Yazid Forsiy roziyallohu anhu mushaf yozar edilar. Bir kecha tushlarida Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni ko'rdilar. Ibn Abbos roziyallohu anhumu u zamonda tirik edilar. Tushlarini u zotga bayon qildilar. Ibn Abbos dedilar: Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam degandilarki, shayton o'zini menga o'xshatib ko'rila olmas. Kimki meni tushida ko'rsa, u haqiqatda meni ko'ribdi. Keyin ibn Abbos Yazid Forsiyga dedilar: Sen o'sha tushda ko'rgan odamingning shakllarini bayon qila olasanmi? Yazid Forsiy dedi: Ha. Bayon qila olaman: u zot qomatda ham jismda ham mo'tadil bir zot edilar. (Ya'ni, na uzun va na qisqa, na semiz va na oriq, o'rta bir holda edilar). Muborak ranglari oqqa moyil, bug'doyrang edi. Ko'zlari surma qo'yilgan, og'izlari kulib turgan, yuzlarining mudavirligi yarashgan, soqollari qalin, yuzlarini ixota etgan va siynalarini yopgan edi.

Ibn Abbos roziyallohu anhumu dedilar: Agar sen u Janobni uyg'oqligingda ko'rgan bo'lsang ham, bundan ziyoda ravshan, ta'rif qila olmas eding. (Ya'ni, tamomi o'z shakllarini mukammal bayon etding). Albatta, Janobning o'zlarini ko'ribsan.

324. Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: Har kim meni tushida ko'rgan bo'lsa, albatta, mening o'zimni ko'rgandir. Chunki, shayton mening suratimda ko'rina olmas, va mo'min bandaning tushi nubuvvatning qirq oltidan biri bo'ladi".

Imom Termiziy raximaxulloh bu muborak kitoblarini salaf imomlaridan ikki buyuk zotning haqiqatda buyuk nasixatlar bo'lmish asarlari bilan xatm qiladilar. Birinchisi shuki, bir narsaga xukm qilinadigan bo'lsa, gumon va taxmin bilan qilinmasin, balki dinimizning madori bo'lgan itbo'i sunnat bilan ish ko'rilsin. Ikkinchisi, har bir kas va nokasdan ilm olinmasin, balki dindor insondan ilm olinsin. Dini yo'q insonga ergashmoq – xalokatning o'zidir. U ikki asar bulardir:

325. Abdulloh ibn al-Muborak raximahulloh dedilar: Ey, musulmon, agar qozi yoki hakam bo'lib qolsang, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam va sahobai kirom roziyallohu anhum yullaridan ajralmagin.

326. Imom ibn Sirin raximahulloh dedilar: "Din ilmlarini kimlardan olayotganingizga qaranglar" degan so'zlar hadisandir.

*I z o h. Hadis, tafsir, fiqh, tavhid, axloq va boshqa tamomi diniy ilmlar haqiqatda dindir. Bular vositalari bilan inson o'z dinidan ilm, ta'lim oladi, dindorlik hukmlarini o'rganadi. Shuning uchun din olmoqda, dindor taqvolik ustozini bilib, tanib, undan ilm kasb etish lozimdir. Ustoz va shogirdga asari buyuk bo'ladi. Suxbat asari ko'p zamon qolib ketadi. Bir bor o'zgarib qolgandan keyin, tuzalmoq mushkul bo'ladi.*

Bu asar mutarjimi Sayyid Maxmud Tiroziy tarjimasi quyidagi soʻzlar bilan xatm qiladilar: Haq SUBHONAHU VA TAOLO DARGOHIGA bexisob hamd va beaded shukrlarimni arz etamanki, bu qadar zaiflik va xastalik va bedastyorlik hollarimda va HARAM sharif darslari bilan masrufiyatim zamonlarida oʻz lutfi va karami bilan bu muborak kitob ShAMOILI TYeRMIZIYning Turkistoncha tarjimasini toʻrt oy zarfinda Madinai Toyyibada soxibi ShAMOIL ALAYHIS-SALOTU VAS-SALLAM jivorlarida itmomiga muvaffaq ayladi. Karamidan umidim shulki, biz aftoda muhojirlarga bu kitob bilan amal davlatini nasib aylasin, OMIN!

### **SAYYID MAXMUD TAROZIY. 1354 XIJRIY**

Ushbu kitobni online oʻqish:

<http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=263.0>

Kitobni forum uchun **Abdusalom** tayyorlagan.

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

2007